

37
F-29

G'afforov Ya.

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

O'quv qo'llama



34
1-29

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

G'AFFOROV Ya.

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA YANGI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH USULLARI

5A120302-Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)
magistrilar uchun o'quv-qo'llanma

- 11183 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent
Shafolat nur
2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TAILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

UO'K 37.091.33
KBK 74.00

G' 29

G'afforov Ya.

Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. [Man] : o'quv qo'llanma / Ya. G'afforov. - Toshkent: "Shifoat Nur Fayz", 2021. -160 b.

UO'K 37.091.33
KBK 74.00

Mazkur o'quv qo'llanmada yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib borilayotganligi hisobga olinib, Oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini ko'rsatib berishga harakat qilingan. Shuningdek, o'quv-qo'llanmada pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi hamda maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni, ana shularga asoslangan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish hamda tashkil etish uslublarini ham yoritishga xarakter qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 05.10.2020 yil 522-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan

Taqrizchilar:

1. X.E. Yunusova, tarix fanlari doktori, professor (O'zMU)

2. A.A. Ermetov, tarix fanlari doktori (O'zMU)

3. J.N. Abduraxmonova, tarix fanlari nomzodi dotsent (CHDP)

Mas'ul muharrir: t.f.n.dotsent, O.N.Nosirov

ISBN: 978-9943-6743-3-2

© "Shifoat Nur Fayz" nashriyoti, 2021 y.
© G'afforov Ya.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. Maxsus fanlarni o'qitish texnologiyasi.....	9
1.1. Maxsus fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muammolari va vazifalari.....	9
1.2. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanishi tarixi.....	21
1.3. Yangi pedagogik texnologiya prinsiplari.....	33
II BOB. Dars o'tishning zamonaviy metodik, pedagogik va axborot texnologiyalari.....	48
2.1. Maxsus fanlarni o'qitishda dars o'tishning usul hamda uslublari va pedagogik texnologiya.....	48
2.2. Ta'lim tizimida metodika va texnologiya uyg'unligi.....	66
2.3. Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni.....	73
III BOB. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari.....	80
3.1. Maxsus fanlarni yangi metodik va pedagogik texnologiyalar asosida o'rganilishi.....	80
3.2. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari va elementlari.....	91
3.3. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari va ana shularga asoslangan ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish.....	109
IV BOB. Tarix ta'limida interfaol metodlar.....	116
4.1. Tarix ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarning roli.....	116
4.2. Maxsus fanlarni o'qitishda interfaol metodlar asosida seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.....	127
Illovalar va slaydalar.....	133
Foydalanilgan adabiyotlar.....	153

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani singari ta'lim tizimida ham o'ziga xos yangiliklar qaror topmoqda. Ayniqsa ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonlariga qo'llash asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Chunki yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tezda qabul qilish, ularni tahlil etib, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish hamda talabalarga etkazib berish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga nisbatan samarali yondoshuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni ma'lum bir vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni"ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarini ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Jumladan, didaktik maqsadlar ruxyatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lim jarayonini loyihalash, ta'lim jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, o'quvchilar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqoni o'zlashtirilishi, barcha o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va hokozolar. Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda, ushbu jarayonning ham sub'ekti ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va talabalar turadilar. SHunday ekan, ushbu sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro mulotoqol, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur.

Buning uchun o'qituvchi eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar u bilan hamkorlik qilish uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan mulotoqga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurklangan bo'lishim lozim.¹

Respublikamiz oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarining o'rni va roli beniboya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahorati-ga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga hosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quydagilar kiradi:

- O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmashligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlaydi;

¹ O' - Tolipov, M.Usmombecva. Pedagogik texnologiyalarni talabiy asoslari. T. Fan, 2006 y. 42-43 betlar R. Istimomshoev.

- O'quvchi-talabalarining bilimga bo'lishini qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;

- Pedagog va o'quvchi-talabalarining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi va hokazolalar.

Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiya nazariyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmini bilish ta'lim jarayonini rivojlantirish va boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning natijasi nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir.

Ma'lumki ta'lim nazariyasi amaliyotida yangi pedagogik texnologiyalarni tadqiq etish ishi fanlararo (pedagogika, psixologiya, metodologiya, falsafa, tarix, sosiologiya va boshqa fanlar) aloqadorlik va bog'liqlik asosida yondashuvni talab etadi. Ko'rsatib o'tilgan fan yo'nalishlarining har birida ta'lim texnologiyalarining ma'lum nazariy jihatlari va texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etishda alohida o'rin tutuvchi qulay shart-sharoitlarni bir qadar to'liq tahlil qilingan.

Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, ta'lim texnologiyalarini yaratish muammolari bo'yicha olib boriladigan umumiy va amaliy tadqiqotlarga keng yo'l bergan holda ushbu nazariya mohiyatini to'laqonli aks ettiruvchi terminologiyani shakllantirishni taqozo etadi. Bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan umumiy ishlamlarning mavjud bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoki, umumiy nazariy bazaga ega bo'lmasdan turib ayrim muammolarni hal etish mumkin emas.

Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarining mohiyati, ularni ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmini ta'lim falsafasi va sosiologiyasi qatoridan tashqarida ko'rib chiqish mumkin emas. Chunki, mazkur fanlar ta'limining jamiyat hayotidagi o'rn va roli, shuningdek, ijtimoiy vazifalarini har tomonlama

tahlil etadi, ta'lim metodologiyasi muammolarining chegarasini ko'rsatib beradi.

Umuman olganda, bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablardan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki-ta'limning har bir bosqichida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda jamiyat munosabatlarini islox qilish, ya'ni demokratalashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta'limni insonparvarlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-amaliy asosga ega bo'lgandagina qo'llashga muvofiqdir.

Qo'llanilayotgan texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi hayotiga engillik olib kelishi, o'quvchining xohlab, qiziqirib borishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini kafolatlashi kerak. O'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishidan oldin moslashtirishdan o'tishi pedagogik shart-sharoitlari, moddiy-texnik baza xisobga olinishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda oldimizda yanada muxim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini yanada mustaxkamlash, uning nafakat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan xamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va donmla-

larning mashqatli va ma'suliyatli mexnatini har taraflama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, xayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol topirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi".¹

Ushbu o'quv-qo'llanmada rejada ko'rsatilgan ayrim mavzular me'yoriga etmagan bo'lishi mumkin, albatta bunday kamchiliklar bo'lishi tabiiydir. Mazkur o'quv-qo'llanma muallifi barcha mulohaza va takliflarni, tanqidiy fikrlar bildirganlarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

I BOB. MAXSUS FANLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

1.1. Maxsus fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muammolari va vazifalari

Mamlakatimizda mafkuraviy mo'ljallarning tubdan yangilanishi, milliy istiqbol g'oyasining omma ongiga uzluksiz singdirib borilishi pedagogik tafakkurni ham o'zgartirmoqda. Mafkuraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasi, tasavvurlarini qamrab olmasdan iloji yo'q. Yangi pedagogik bilimlar ko'lamli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib bormoqda, tadqiqot yo'nalishlari erkin shaxsni shakllanishi muammolariga qaratilayapti. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimida yangicha metodik yondashuvlarni yuzaga keltirayotir.

Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi mavqei milliy mafkura doirasida yanada ko'tarilib, ularning oliy maktabda o'qitilishiga, mazmunini yangilashga qo'yilgan talablar ham kun sayin oshib ketayapti. Shu boisdan yangi 2002-2003 o'quv yilining ilk oylaridan boshlab Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tashabbusi bilan O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand va Farg'ona universitetlarida «ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchi-larining malakasini oshirish» mavzusida maxsus seminarlar uyushtirildi va ularda etakchi olimlar tegishli fan sohalari bo'yicha o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashishdi.

Ma'ruzalarda asosiy e'tibor ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda ta'lim mazmunini jamiyatimiz va dunyo sahnasida ro'y berayotgan ob'ektiv jarayonlar, mafkuraviy muammolar, hodisa va voqealar bilan to'ldirishga qaratildi. Odatda didaktika o'qitish nazariyasi sifatida ikkita savolga javob beradi: «Nimani o'qitish kerak (mazmun)?», «qanday o'qitish kerak (texno-

¹ Sh.Mahmudov. Milliy taraqqiyot yo'lini qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Tashkent, 2019-yil. 1-jild. 24-25 betlar.

logiya)?». Nazarimiza, yuqoridagi seminarlarda savolning ikkinchisi javobsiz qoldi, o'z yechimini to'laqonli topmadi.

Olib borilgan analitik-sintetik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qituvchilari amaliyotida ham «izohli tasviri yondashuv» - an'anaviy metodika hali-hanuz ustivorlik kasb etmoqda. asosiy o'quv vaqtini egallamoqda. Bu yerda ma'ruza o'qitishning asosiy shakli sifatida saqlanib qolyapti yoki 80 daqiqa (tanaffussiz) davomida o'qituvchi tayyor bilimlarni uzatish bilan o'raladi. U talabalarning o'quv bilim faoliyati tashkilolchisi bo'lishi bilan bir qatorda bilimlar manbaiga aylanib qolayotganligini kuzatish mumkin.

To'g'ri, olimlar oliy maktab o'qitish tizimida ma'ruzaning o'zini alohida e'tirof etishadi va shu bilan birgalikda uning qator kamchiliklaridan xoli emasligini uqtirishadi:

- ma'ruza – o'zgalar fikrini sust qabul qilishga talabani o'rgatib qo'yadi, mustaqil fikrlashni bo'g'adi;
- ma'ruza – mustaqil shug'ullanishga moyillikni yo'qotadi;
- ma'ruza darsliklari yo'q yoki kam bo'lgan hollardagina kerak;
- ma'ruza davomida ba'zi talabalar mulohaza yuritishga ulgurishadi biroq ko'plari matni mexanik, tarzda yozib borishadi – auditoriyani boshqarish murakkablashadi, teskari aloqaning yo'qligi o'qituvchiga o'z faoliyatini tuzatishga imkon bermaydi.

Bu bir tomondan. Boshqa tomondan ma'ruzani uzluksiz o'qish uchun o'qituvchi katta ichki energiya sarflaydi, natijada ruhiy zo'rliq kelib chiqadi.


Uchinchidan, eng asosiy, o'qitishning an'anaviy shaklida erkin shaxsni shakllantirish jarayoni sust boradi mustaqil fikrlaydigan va kelajakda erkin faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislarni tayyorlash kabi davlat buyurtmasini amalga oshirish qiyinlashadi.

Demak, pedagogik loyihalash texnologiyasini qo'llashda o'quvchilarning ehtiyojlari, ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida darsga tayyorlash imkoniyati, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'stirishni asosiy masalalar sifatida tan olisagina muvaffaqiyat qozonadi. O'quvchi faoliyatida kelajakka mo'ljallangan va tezkor loyihalash turli darslarda turlicha moslashtiriladi. Pedagog loyihalashda kirishda xoh u dars, xoh u tarbiyaviy tadbir bo'lsin, har bir pedagogik vazifa-ning yaxlit pedagogik jarayon tizimidagi o'zini bilishi lozim.

Pedagogik texnologiya fan mavzulari bo'yicha oldindan loyihalashni va u o'qitish tekisligiga ko'chirilsa yakuniy natijani (talabaning o'quv materiallarini kamida 55% o'zlashtirishini) kafolatlashi bilan farqlanishini e'tibor o'tamiz! Shu bilan birgalikda har qanday pedagogik texnologiya asosini ilmiy jihatdan qurilgan didaktik jarayon tashkil qiladi. Ana shu jarayonni ajratilgan o'quv vaqti doirasida amalga oshirish oliy o'quv yurti o'qituvchisining pedagogik mahoratini darajalab beradi.

Quyida umumiy holda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishga asoslangan, bu jarayonda o'qituvchi hamda talabaning tutgan mavqecini oydinlashtiradigan pedagogik texnologiya tuzilmasini keltiramiz (chizmada).

Asosiy kanal (1) orqali o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quv elementlarining tuzilgan ro'yxati mazmuni o'qituvchi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida talabalarga etkaziladi. Bu jarayonda yangi bilimlarni qabul qilish, anglash, o'zlashtirish amalga oshiriladi.



Talabalar teskari aloqa (3) yordamida tegishli axborotlar o'qituvchiga etib boradi, ya'ni o'qitish jarayoni natijalari to'g'risida ma'lumot olinadi. Bugun qo'llanilayotgan reyting tizimi aynan shu vazifani uddalashi lozim. O'qituvchida talabani o'zlashirish darajalari to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lagina u o'quv-bilish faoliyatini samarali boshqaradi, ta'limiy axborotlarning mazmuniga zaruriy tuzatish kiritib shu yerda bir ziddiyatli holatni keltirib o'tamiz. Professor-o'qituvchi o'rtasida xali-hanuz davom etayotgan tortishuvlarga sabab bo'layotgan holat - talabalar bilimlarini qaysi metod yordamida nazorat qilish va baholash kerak? Yozma yoki og'zaki so'rov ma'qulmi yo test-reyting ma'qulmi? Biroq o'qituvchi e'tiboridan reytingdan ko'zlangan asosiy maqsad-natijalar asosida o'z faoliyatini koreksiyalash zaruriyati chetda qolib ketayapti. O'qituvchi nima uchun bir hil o'quv fondi va sharoitida talaba A o'quv materiallarini yaxshi o'zlashirayapti, talaba B esa aksincha sust o'zlash-tirayapti, degan savolga javob topish kerak.

Ana shunda o'z faoliyatini tuzatish, ya'ni asosiy o'quv materiallari sifatida talabalarga uzatilayotgan axborotlar mazuni-ning maqbul hajmini rejalashtirish mumkin. Shu maqsad uchun 2-kanal ishga tushadi. Fanning aniq mavzusi butun fan yuzasidan talabani egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimini (strateik maqsad) oldindan belgilanadi va ularga dars davomida tayyanlanadi. Faqat o'qitish jarayoni natijalari oldindan belgilan-sagina pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyili-yakuniy natijaning kafolatlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

O'quv vaqtining asosiy qismi talabani o'z-o'zini bosh-qarish jarayoniga sarf bo'lishi kerak. Talabalar muayyan mavzu-ga tegishli bo'lgan o'quv elementlarga ishlov berish uchun "qo'shimcha axborotlar manbai"ga murojaat qilishadi. Bu manbani o'qituvchi o'z fani bo'yicha auditoriyada yaratishi lozim. Shundagina uning pedagogik mahoratini jolib baholash mumkin. Ular kitob (darslik qo'llanma, ishlanna, ma'ruzalar matni, monografiya, jurnal, gazeta maqolalari v.b.), o'qishning

texnik vositalari, kompyuter, interneta iborat bo'lib, talabalar-ning mustaqil ishlashiga, o'z-o'zini o'qitish va nazorat qilishga qulay imkoniyat tug'diradi. Bu vaqt umumiy o'quv fondining 70% ni tashkil etishi mumkin, qolgan 30% o'qituvchi ixtiyoriga berilayapti. Ana shu vaqt sarfini o'qituvchi mavzu bo'yicha o'quv elementlarining soni va murakkablik darajasiga bog'liq holda taqsimlaydi.

Shunday qilib, qaratilgan texnologik jarayon tuzilmasi-ning samaradorligini oshirish uchun:

1. talabalarga uzatilayotgan ilk o'quv axborotlarining optimal mazmunini aniqlashi;
2. talabalarining bilish faoliyatini samarali boshqarishni rejalashtirish va amalga oshirish;
3. "o'z-o'zini o'qitish" asosida talabaning o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatidan keng foydalanish;
4. talabaning o'zlashtirish darajalarini nazorat qilishni tashkil etish.

Endi bevosita fan mavzulari bo'yicha o'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlarini o'rganib chiqish:

1. Fan mavzusi bo'yicha maqsadni belgilash qonuni.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, bugun oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari fan mavzulari bo'yicha o'quv maqsadlarini quyidagicha belgilashmoqda:

1) Maqsadni o'rganilayotgan mavzu mazmuni orqali belgilash. Misol uchun "Markaziy Osiyo mintaqasidagi makruraviy jarayonlarni o'rganish" yoki "Pedagogik tadqiqot metodlarini o'rganish" va hokazo. Maqsadni bunday ifodalashda o'quv jarayonini qurish uchun biror bir konstruktiv yechim qaratilmayapti. Shu boisdan maqsadni bu tarzda o'rnatishni pedagogik texnologiya tarafdorlari etarli emas, deb hisoblashadi.

2) Maqsadni o'qituvchi faoliyati orqali belgilash. Misol uchun, "Talabalarni interfaol metodlar tuzilmasi bilan tanishtirish", yoki "Diqqatni boshqarishni trening yordamida namoyish qilish" va hokazo. Maqsadni "O'qituvchi" tomonidan bunday

o'rnatilishi o'qituvchining shaxsiy faoliyatiga qaratilgan, biroq o'qituvchi o'z hatyi-harakatlaridan kelib chiqayotgan o'qitishning real natijalari bilan, ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlar bilan solishtirmay belgilaydi, chunki kutilayotgan natijalar maqsadni belgilashning bu usulida qaratilmagan.

3) Maqsadni talabaning o'quv faoliyati orqali belgilash. Misol uchun "xo'jalikda ro'y bergan iqtisodiy tenglikni echish" yoki "pedagogik tizimni loyihalash bo'yicha mashq qilish" va hokazo. Bir qarashda o'quv maqsadlarini bunday ifodalash darsni loyihalash va o'g'kazishga birmuncha aniqlik kiritadi. Biroq bu yerda ham diqqat-markazdan o'qitishdan kutilayotgan natija, uning oqibatlari cheida qolib ketayapti.

Pedagogik texnologiya tarafdorlarining fikricha, o'qitish maqsadlarini o'qituvchi yoki o'quvchi faoliyati, predmet mazmuni orqali belgilash kutilayotgan natijalar to'g'risida to'liq tasavvurni bermaydi. Yuqoridagi holatlarda o'quv maqsadlari talabaga harakatlarda aks etgan va kat'olalanishi zarur bo'lgan o'quv natijalari orqali belgilanmayapti. Ana shu holat pedagogik texnologiyaga zid ekanligini ta'kidlash joiz.

Agar ta'limiy uchlik – "maqsad – jarayon (vosita) – natija" da O'zbekistonlik va Rossiyalik olimlar asosiy e'tiborni o'qitish jarayoni muammolariga qaratishgan bo'lsa, g'arb pedagoglari tomonidan zanjirning ikki chetdagi zvenolari birmuncha chuqur tadqiq qilingan. Shu boisdan amerikalik psixolog va pedagoglar (B. Blum, V. Gerlah B. Skinner va b.) tomonidan "o'quv maqsadlari taksonomiyasi" konsepsiyasiga o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab asos solgan bo'lsa-da, u bugungacha o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Fan mavzulari bo'yicha o'quv maqsadlarini aniq o'rnatish pedagogik texnologiyani loyihalashning dastlabki sharti hisoblanadi. Bu muammoni hal etish uchun o'qituvchi asosiy e'tiborni yangi mavzu bo'yicha o'quv elementlari ro'yxatini tuzishga qaratishi lozim. O'quv elementi deganda o'rganish maqsadida tanlangan fanning barcha ob'ektlari tushiniladi. Ro'yxatga

11183 -

kiritilgan o'quv elementlari boshqa ijtimoiy tajriba mavzusidagi tushuncha, xodisa, jarayonlardan ajralib turishi lozim. Misol uchun, "Milliy istiqbol mafkurasining asosiy g'oyalari" (Milliy istiqbol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar fani) mavzusi bo'yicha 7 ta o'quv elementi alohida ajratib ko'rsatilgan: 1. Vatan ravnaqi. 2. Yurt tinchligi. 3. Xalq farovonligi. 4. Komil inson. 5. Ijtimoiy hamkorlik. 6. Millatlararo totuvlik. 7. Dinlararo bag'rikenglik. Bular mavzu bo'yicha belgilangan umumiy maqsadlarni va mazmuni ifodalaydi. O'qituvchi belgilangan har bir umumiy maqsadlarni va mazmuni ifodalaydi. O'qituvchi belgilangan har bir umumiy maqsadni-mikromaqсадlarga aylantirish kerak bo'ladi. Misol uchun "Komil inson" (№4 o'quv elementi)ni o'rganishda quyidagi mikro maqsadlarni alohida belgilab olish mumkin: komil inson g'oyasining milliy va umumbashariy mohiyati; tasavvuf ilmida komil inson tushunchasi; O'rta asr allomalarning ijodida barkamol shaxsni ifodalash; Milliy dasturda barkamol shaxs tarbiyasi; yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlod tarbiyasi v. b.

Mavzu maqsadini aniq; o'rganish borasidagi keyingi qadam – bu ajratib ko'rsatilgan o'quv elementlari bo'yicha talabalarning boshlang'ich bilim darajalarini tegishli pedagogik instrumentariy (test, yozma, og'zaki so'rov, kompyuterli nazorat) yordamida o'lash va baholash hisoblanadi. Bu amalni bajarish zarur, aks holda o'qituvchi mashg'ulot davomida "Amerikani kashf etishi" mumkin. Boshqacha aytganda, o'qituvchi qaysi o'quv elementlarini talabalar birmuncha chuqur o'rganishi yoki qay birini yuzaki-epizodik tarzda tushuntirish mumkinligi to'g'risida axborot oladi va o'z faoliyatini olingan natijalarga mos ravishda o'zgartiradi.

II. Fan mavzusi bo'yicha o'quv axborotlarini saralash qonuni.

Mavzu maqsadini o'rganishda ishtirok etgan o'quv elementlari bu bosqichda ham ishtirok etishdi, biroq ular endi ro'yxat ko'rinishida matn ko'rinishiga o'tadi. Mazmuni saralashda

o'qituvchi, asosan, ikki holatni, ya'ni o'quv materialini bayon qilishning ilmiy tili yoki fan rivojining abstraksiya pog'onalarini inobatga olish shart.

Har bir ijtimoiy fan o'z xususiy rivojlanish tarixiga ega. Fan taraqqiyoti olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida rivoj topgan. Fan ob'ektlaridan o'quv elementlari ajratib olinadi va o'quv dasturi tuziladi. Shubhasiz, o'quv elementlari (O'E) fan ob'ektlaridan (FO) kichik bo'ladi, ya'ni O'EFO.

Olimlar Fan rivojining quyidagi abstraksiya pog'onalarini e'tirof etishadi va o'qituvchi O'Ega ishlov berishda ularga tayanib ish ko'rishi lozim.

Birinchi abstraksiya pog'onada (**fenomenologik**) narsa va xodisalarning bayonini tavsiflash cheklangan, ob'ektlarning muayyan tartibli ro'yxati keltirilgan bo'ladi, ularning sifat va xususiyatlari qayd etiladi. O'E oddiy, odatdagi tilda tushuntiriladi. Misol uchun, o'qituvchi "komil inson" tushunchasini hazrat Navoiy ta'rifi bilangina etkazadi.

Ikkinchi abstraksiya pog'onada (**analitik-sintetik**) Fan uchun xususiy bo'lgan tushuncha va atamalar, qonuniyatlarni O'Ening asosiy tarkibini tashkil etadi. O'E Fan tilida bayon qilinadi. Misol uchun, "komil inson" tushunchasini yoritishda o'qituvchi qator allomalarning, zamonaviy olimlarning, Prezidentning ta'riflarini tahlil qiladi va sintezlab, "yagona xulosa" chiqaradi.

Uchinchi abstraksiya pog'onada (**bashoratlovchi**) fanga tegishli ma'lum xodisalarni ularning sonli nazariyalari asosida tushuntiriladi, qonun va xususiyatlarni analitik tasvirlash amalga oshiriladi. Hodisa va jarayonlarning kechish muddati va sonini oldindan aytib berish imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Rivojlangan fan tili vujudga kelib, O'E bayoni fanlararo bog'lanishlar asosida olib boriladi. Misol uchun, "komil inson" tushunchasi psixologiya, falsafa, pedagogika, sotsiologiya fanlari mavqeidan kelib chiqqan holda talabalarga etkaziladi, sog'lom avlodning mamla-

katimiz ravnaqini rivojlantirishdagi o'zini jonli misollar yordamida tushuntiriladi.

To'rtinchi abstraksiya pog'ona (**aksiomatik**) narsa va hodisalarni tushuntirish o'quv materialining keng qamrovligi, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borish bilan tavsiflanadi. Fanning predmetlararo tili mavjud bo'lib ular yordamida ilmiy bilishning amaliy yo'nalishlari qaytadan ilmiy asoslanadi. Misol uchun, o'qituvchi "Komil inson" mohiyati, uni shakllantirish bosqichlari, komilik mezonlari, barkamol shaxsni tarbiyalash metodlari, shakllari va boshqa qirralarni ilmiy-tadqiqot institutlari bilan aloqa o'rnatgan holda o'rganadi va dars davomida talabalarga etkazadi. Bu o'quv elementi bo'yicha fandagi eng so'nggi yutuqlardan foydalangan holda o'qituvchi ma'ruza matnining ilmiyligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, o'qituvchi butun ma'ruza matnini to'rt darajada yoritish, ya'ni ta'lim mazmuni belgilangan O'E yordamida ifodalashi mumkin ekan. Biroq o'quv materialining murakkablashuvi talabalarining o'zlashtirish darajasiga nechog'lik to'g'ri keladi? Bu savolga javob topilgandagina belgilangan ta'lim maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

2. Talabalarining o'zlashtirish darajalari. O'z navbatida talabalar O'Eni qaysi darajada o'zlashtirishlari yoki mahorat bilan bajarishlari kerak? Bu savolga psixologlar tomonidan yaratilgan faoliyat nazariyasi javob beradi. Axborotlardan foydalanish harakteriga qarab faoliyatning ikki ko'rinishini farqlash mumkin: nomahsul va mahsuldor.

Talabalarining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalari nomahsul faoliyatda tanishuv va algaritmik darajada, mahsuldor faoliyatda esa evristik (qisman izlanuvchan) va ijodiy darajada bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda guruhdagi talabalar o'z iqtidori va qobiliyatiga ko'ra to'rt darajaga bo'linar ekan. Endi aytib-chi, tanishuv darajada faoliyat ko'rsatadigan talabaga aksiomatik pog'onada saralangan o'quv materiallarini tavsiya etib bo'ladimi? Aslo, yo'q! Unga faqat fenomenologik pog'ona-

ga to'g'ri keladigan o'quv materialini berish kerak. Xuddi shu jarayonda tabaqalashtirilgan ta'limni joriy etish zarurati mavjud. Guruhni o'zlashtirish darajasiga mos ravishda kichik guruhlariga ajratish va ularga alohida ishlangan o'quv axborotlarini tavsiya etish lozim (qarang: "Kichik guruhda ishlash" "Ma'rifat", 30 oktyabr, 2002 yil).

III. Didaktik jarayonni ko'rish va o'quv vaqti davomida amalga oshirish qonuni.

Fan mavzulari bo'yicha didaktik masalalarni (maqsad, mazmun, talabaning o'zlashtirishi) aniq, belgilash asosida samarali didaktik jarayonni-texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish mumkin.

Didaktik jarayon o'zaro bog'liq bo'lgan uchta komponent-motivatsiya, talabaning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarishdan iborat.

Motivatsion bosqichda o'qituvchi talabalar diqqatini mavzuni o'rganishga turli metodlar yordamida jalb etadi, ularda ichki talab, ehtiyojni vujudga keltiradi. Bunday metodlar sarasiga muammoli vaziyatlarni mashg'ulot boshlanishida talabalarga taklif etish, tarixiy materiallardan foydalanish, u yoki bu mavzuga oid qisqa metrajli kino kadrlar ko'rsatishni kiritish mumkin. Ular talabalarda kuchli motivlarni vujudga keltirish bilan mavzuni zo'r hissiyot bilan o'rganishga undaydi.

O'quv faoliyati natijasida talabalar bilimlarni o'zlashtiradilar, ko'nikma va malakalarni egallashadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, har qanday o'quv faoliyati umumiy loyihaga bo'yicha ko'riladi va o'zida mo'ljali bajaruvchi, nazorat qiluvchi va tuzatuvchi harakatlarni mujassamlashtiradi. Bu harakatlarni talabalar bevosita o'qituvchi yoki darslik yordamida turlicha to'liqlikda va turlicha ta'lim nazariyasiga tayangan holda bajarishi mumkin. O'qituvchi talabaning hatti-harakatlarini kuzatish va farqlay olishi lozim. O'quv harakatlarining har bir O'Eni o'zlashtirishining ma'lum bosqichida namoyon bo'ladi. Misol uchun, mo'ljali harakatning bajarilishi va o'quv

topshiriqlarini o'zlashtirish quyidagicha boradi: a) o'zi uchun topshiriqni faol qabul qilishi; b) topshiriqlarni tushunib etish; v) ularni bajarish ketma-ketligini o'rganish metodikasini egallab olish; g) mustaqil ravishda o'quv topshiriqlarini o'rganish.

Bajaruvchi harakatlar ham o'zlashtirishning turli bosqichlarida bo'lishi mumkin: a) asosiy o'quv harakatlarning bajarilishi (tahlil, o'zlashtirish, taqqoslash, modelldashtirish); b) alohida harakatlarning ayrim O'E bo'yicha bajarilishi; v) bir masalaning yechimiga qaratilgan va yirik bloklarga qo'shilgan holda amalga oshadigan bir qator o'quv harakatlarni bajarish; g) bu bloklarni anglash darajasida (ko'nikma) yoki "avtomatik" (malaka) darajasida amalga oshiriladi.

Keyingi bosqich-nazorat qituvchi harakat mavzu bo'yicha O'Eni o'zlashtirish darajasi bo'lib, o'quvchining o'z-o'zini nazorat qilishi evaziga amalga oshiriladi va etalon bilan solishtiriladi. Agar o'zlashtirish darajasi past (5.5%) bo'lsa, u yoki bu harakat bosqichida yo'l qo'yilgan xatolar o'quv faoliyatining tuzatuvchi bosqichida aniqlanib, tuzatishga oid qo'shimcha didaktik jarayon tashkil etiladi.

O'quv faoliyatining muhim ko'rsatkichi-uning natijasidir: ob'ektiv-yechimning to'g'riligi, natijani olgunga qadar harakat va qadamlar soni, vaqt sarfi; sub'ektiv-talaba uchun ishning muhimligi; yakundan sub'ektiv qanoatlanishi, uchun sarfi va boshqalar.

Didaktik jarayonning so'ngi tarkibiy qismi-o'quv-bilish faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Ko'nikma siklik turdagi boshqarish tizimi didaktik jarayon uchun qo'l keladi. Sababi, zaruriy o'quv axborotlari o'qituvchidan talabalariga, to'g'ri aloqa yordamida uzatiladi. Asosiy harakatlarni bajaraganligi haqidagi ma'lumotlarni esa testkari aloqalar yordamida talabalardan o'qituvchiga uzatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Boshqarishning muhim jihati shundaki, agar o'quv faoliyati talaba tomonidan bajarilsa, boshqarish algoritmimi o'qituvchi tomonidan yoki talaba ham bajarishi mumkin. Buning uchun o'quv topshiriqlarining

to'g'ri javoblari-etolonlari talabalariga ham beriladi. Shunda talabalar o'z faoliyatlarini tekshirish va harakatlarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Shunday qilib, didaktik jarayonni ko'rish qonunlarini qisqacha bayon qildik. Xo'sh, o'quv vaqti didaktik jarayon bosqichlarida qanday taqsimlanadi? Yuqorida biz 30% o'quv vaqti o'qituvchi ihtiyoriga berilishini ta'kidlagan edik. Ana shu vaqt motivatsion va boshqarish bosqichlari uchun sarf bo'ladi. Asosiy o'quv vaqti (70%) talabaning o'z-o'zini o'rgatishga ya'ni o'quv faoliyatiga ajratilishini paykash qiyin emas.

Albatta, didaktik jarayon o'qitishning samarali tashkiliy shakllari asosida amalga oshiriladi. O'quvchi mavzuning murakkabligi yoki didaktik jarayonni tatbiq etish vaqtini hisobga olgan holda faol o'qitish shakllaridan foydalanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishning maqsadi, ta'lim-tarbiyaviy vazifalari va g'oyaviy mafkuraviy asoslarini tushuntirib bera olasizmi?
2. Maxsus fanlarni o'qitish usullarining asosiy muammolari va ularni hal etish yo'llari nimalardan iborat?
3. Maxsus fanlarni o'qitishda o'timish va zamonaviy fanlar aloqadorligini tushuntirib bering?
4. Zamonaviy tarix ta'limiga bo'lgan talablar qanday belgilanadi?
5. O'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlari —
 - a) fan mavzusi bo'yicha maqsadni belgilash qonuni;
 - b) fan mavzusi bo'yicha o'quv axborotlarini saralash qonuni;
 - v) didaktik jarayonni ko'rish va o'quv vaqti davomida amalga oshirish qonuni va boshqalarni bilasizmi? Tushuntira olasizmi?

1.2. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharoifi tufayli barcha fan sohalarni rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada o'rganish va xayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek yaqin kelajakda "kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi".

Bu faslda biz pedagogik texnologiya nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlaymiz.

30-yillarda "pedagogik texnika" tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va u o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. Shuningdek, bu davrda PT deb o'quv va laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni uddalash, ko'rgazmali qurollardan foydalanish tushunildi.

40-50-yillarda o'quv jarayoniga o'qitishning texnik vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PT ga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalarida bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarda keng muxokamaga tortildi. 1961 yildan boshlab AQShda "Pedagogik texnologiya" (Educational Technology), 1964 yildan Angliyada "Pedagogik texnologiya va dasturi ta'lim" (Technology and programmed Learning), Yaponiyada esa 1965 yildan "Pedagogik texnologiya" (Educational Technology) jurnallari chop etila boshlandi. 1971 yilda xuddi shu nomli jurnal Italiyada chiqarila boshlandi. (20-betdagi chizmaga qarasin)

Rivojlangan mamlakatlar PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR Markazlari

Davlatlar	AQSH		ANGLIYA		YAPONIYA		ITALIYA	VENGRIYA	Sobiq SSSR
Yil	1971		1976		1965			1973	1965
Markazlar	Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiyasi		Pedagogik texnologiya Milliy Kengashi		Umumyapon Pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi		Pedagogik texnologiya Milliy Kengashi	O'qitish texnologiyasi Davlat Markazi	Maktab jihozlari va O'TV ITI
Yil	1961	1971	1970	1964	1965		1971		
Jurnal-lar	Pedagogik texnologiya	Audio vizual ta'lim	Audio vizuall kommunikatsiya	Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim jurnali	Pedagogik texnologiya	Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar	Pedagogik texnologiya		Maktab va ishlab chiqarish

PT muammosining o'ta dolzarbligi hisobga olinib, uning ilmiy asoslarini tadqiq qilish maqsadida maxsus korxonalar tuzildi. Misol uchun, 1967 yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National Council for Educational Technology) tashkil etildi va 1970 yiddan boshlab "Pedagogik texnologiya jurnali" (Journal of Educational Technology) chiqqa boshladi. AQShning qator universitetlari va ilmiy markazlarida ham PT muammolariga jiddiy e'tibor berildi. 1971 yilda maxsus "Kommunikatsiya va texnologiya Assotsiatsiya'si" (Association for Educational Communications and Technology) faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirgi kunda bu tashkilotning barcha shatlarda va Kanadada 50 dan ziyod filiallari ishlab turibdi.

Yaponiyada PT muammolari bilan to'rtta ilmiy jamiyat shug'ullanmoqda, faol harakatdagi pedagogik texnologiya Markaziy Kengashining 22 ta davlat universitetlarida makazlari mavjud. Har uch oyda yapon tilida chiqadigan "Pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlar" (Educational Technology Research) jurnallarida yirik olimlarning ilmiy ishlari o'z o'rnini topmoqda. Yaqinda Uumnyapon pedagogik texnologiya Markaziy Kengashi (The Japanese Council of Technology Centers) tuzilib, bu sohada xalqaro aloqalar o'rganish ishlari bilan mashhur.

Didaktikaning bu yo'nalishiga e'tibor nixoyatda oshib borishini 70-yillarda o'tkazilgan qator xalqaro Konferensiyalar tasdiqlaydi. Shunday xalqaro Konferensiyalar 1966 yildan boshlab har yili bahorda Angliyada o'tkazilib kelinadi va anjuman materiallari "Pedagogik texnologiya jihatlar" (Aspects of Educational Technology) nomida nashr qilinadi.

Shu kabi ma'lumotlarni keltirishni g'arb davlatlari misolida yana ham davom ettirish mumkin, biroq chizma bunga ehtiyoj qoldirmaydi. Yuqoridagilarning o'zidayoq PT pedagogika nazariyasi va amaliyoti sohasidagi alohida xodisa sifatida diqqat markazda turganligini, 60-yillardan boshlab chet ellarda yangi yo'nalish sifatida shakllanganligini ta'kidlab turibdi. Tahlillarning

ko'rsatishicha, bu davrda PT ikki yo'nalishda muxokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi-o'quv jarayoniga texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq bo'lsa (shu jumladan dasturli ta'limning texnik vositalari), ikkinchisi - o'qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib ta'lim jarayonini turlicha nashri va texnik vositalardan jamumjam foydalanigan holda tizimli tashkili etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

Shu yerda birinchi Konferensiya materiallari (1966 yil) to'planning kirish maqolasida yozilgan juda muhim dalilni keltirish o'rnilidir: ikki tushuncha - "pedagogika" va "texnologiya"larni qo'shish mantiqi tortishuvlarga sabab bo'layapti. Chunki "texnologiya" so'zi sinf xonasiga texnikani kiritish va "degumanizatsiya" (insonparvarlikdan voz kechish) g'oyasi bilan tavsiflanishi pedagogik kasb vakillarini cho'chitishi mumkin. Albatta, bu fikr ma'lum darajada to'g'ri bo'lishi mumkin. Biroq texnokratik fikrlash (texnikaning inson va uning qadriyatlarini usidan ustunligi) fanda qoralanadi yoki inson xech qachon "temir mashina"ga tobe bo'lmaydi, balki uni o'z akl-zakovati bilan yaratadi va boshqaradi. Bu muammoning psixologik jihatlar bo'lib kam o'rganilgan soha.

70-yillarning boshiga kelib o'quv jihozlarning turti hillarini va o'qitishning predmetli vositalarini loyihalash va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zaruriy shartlardan biriga aylandi, ularsiz ilg'or metodika va o'qitish shakllari samarasiz bo'lishi, ta'lim sifatiga erishib bo'lmasiligi anglab etildi. Shu boisdan sobiq sotsialistik lagerdagi davlatlarda ham bu sohada ma'lum xajmdagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1965 yilda Pedagogika Fanlari Akademiyasida "O'quv jihozlari va o'qitishning texnik vositalari" ilmiy tekshirish instituti tashkil etildi va hozir ham Rossiya ta'lim akademiyasi instituti sifatida faoliyat ko'rsatayapti. 1973 yilda Vengriyada "O'qitish texnologiyasi Davlat Markazi" bevosita YUNESKO tashabbusi va dasturi asosida tashkil etildi va uning asosiy vazifasi o'qitish texno-

lojiyasining yangi qirralarini kashf etish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi masalalardan iborat bo'ldi.

YUNESKO insonparvar va tarakkiyparvar tashkilot sifatida xalqaro muammolarni o'rganish bilan muntazam shug'ullanib kelmogda. 1971 yilda YUNESKO sobiq bosh direktori Rene Mais Fransiya Bosh vaziri (ayni vaqtda Ta'lim vaziri) Edgaro Forga murojaat qilib maxsus guruhga rahbarlik qilishni, tezkor o'zgarishlar ro'y berayotgan bir sharoitda jahon ta'limi oldiga qo'yilgan maqsadni va uni amalga oshirish uchun aqliy va moddiy vositalar miqdorini belgilab berishni iltimos qildi.

Shunday qilib, 1972 yilning kech kuzida Buyuk Britaniya va Fransiya kitob do'konlarida "Yashash uchun o'qish. Dunyo tarbiyasi bugun va ertaga" (Learning to be The world of education today and tomorrow) kitobi paydo bo'ldi. Bu vokeaga roppa-rosa 35 yil vaqt o'tigan bo'lsa-da, ma'ruzaning asosiy g'oyalarni eslash foydadan xoli bo'lmaydi. Boz ustiga bu kitob boshqalari kabi mamlakatimiz keng auditoriyasiga kirib kelmadi, kutubxonalarimiz bo'yilgiga aylanmagan.

Komissiya tomonidan jahon ta'limining joriy holati tahlil qilinib asosiy yo'nalishlari belgilandi. Komissiya milliy Konsepsiya, shuningdek maorif va tarbiyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun o'z tavsiyalarini ifoda etdi. Bu konsepsiyaning bosh g'oyasi: inson butun xayoti davomida tiklanish holatida bo'ladi, demak u o'z potentsialini faqat uzluksiz ta'lim jarayonidagina amalga oshiradi-doimo yangiliklarni bilishga va mavjud tajribalarini faollashtirishga intiladi. Shu boisdan ma'lumotlilik faqat ma'lum xajmdagi bilimlarni uzatish bilan bog'liq holda emas, inson o'z hayoti davomida tiklanish jarayonining mantiqini aniqlaydigan omil sifatida tushunish kerak. Eng asosiy, Edgaro Fora tomonidan "zamonaviy texnologiya ta'limni modernizatsiyalashda harakatlanuvchi kuch" ekanligi qayd etildi.

Bu davrda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar turli mamlakatlarda turlicha kechdi: ba'zi birlari amaliyotdagi mavjud ta'limni takomillashtirishni afzal ko'rsalar, boshqalari o'z oldlariga hozirgi ta'lim tizimini yangisiga almashtirishni maqsad qilib qo'ydi. Nihoyat, uchinchilari esa jamiyatni o'zgartirmasdan turib ta'lim tizimini isloh qilish mumkin emasligini, vaqtni boy bermasdan yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarining yangi tizimini yaratishga kirishish kerakligini e'tirof etadilar.

Bugun O'zbekistan demokratik huquqiy davlat va adolati fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmokatamiz.

1977 yilda Budapeshtda o'tkazilgan o'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro seminar ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni bilan bog'liq omillar rus olimi S.G. Shapovalenko tomonidan quyidagicha belgilandi: texnikani bilish va mukammal egallash; audiovizual fondi bilan tanish bo'lish; texnik vositalardan foydalanish metodikasini egallash.

Biroq bu fikrning bir yoqlamaligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Undan farqli o'laroq g'oyalar shu seminar ishtirokchilari tomondan aytiladi. Misol uchun, venger olimi L.Salai o'qitish texnologiyasi doirasini bir muncha kengaytirishga urinadi: rejalashtirish, maqsad tahlili, o'quv tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, maqsad va mazmunga mos keladigan metodlar, vositalar va materiallarni tanlash bevosita PTni loyihalashdagi o'qituvchi faoliyatiga xosligini ta'kidlaydi. Shunga yaqin fikrlar, ya'ni o'qitish texnologiyasi o'zida yordamchi vosita va yangi tizimni qamrab olgan holda o'quv jarayonini rivojlantirishga, uning

tashkiliy shakllarini, metodlarini, mazmunini o'zgartirgan holda o'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik tafakkurlashiga ta'sir ko'rsatishi J.Seller tomonidan ta'kidlandi. Bu ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, 70-yillar oxiriga kelib chet ellarda texnika rivoji va ta'limni kompyuterlash darajasiga bog'lik holda PTning ikkita jihatlari alohida ajratilib ko'rsatilgan va tadqiq qilingan: 1) o'quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish; 2) amaliy masalalar yechimini topishda bilimlar tizimidan foydalanish. Misol uchun, Yaponiyada bu davrda olib borilgan tadqiqotlar o'quv jarayonini texnolo-giyalashtirishning birinchi yo'nalishi, ya'ni ta'limning yangi texnik vositalarini yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan bevosita bog'lik bo'lgan (Noshinono Harou, Educational Technology in Japan, Audio shal Institution, November, 1979).

Bunday holat boshqa kator davlatlar uchun ham xarakterli bo'lib, PTning ikkinchi yo'nalishi-nazariy-didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSh va Angliyada tadqiqot ob'ekti-ga aylandi. Chunki "texnologiya" so'zi keng ma'noda nazariy bilimlarni amaliyot maqsadiga ko'chirish, bu ko'chirishning aniq yo'llarini ishlab chiqish zarurati e'tirof etildi.

Shunday qilib, 80-yillarda PTning mohiyatini oydinlashtirishga bo'lgan urinishlar yanada davom ettirildi. Bu soha Rossiyalik pedagog olimlarning diqqatini ham jalb eta boshladi. PTning rivojlanish tarixi T.A.Ilinaning ilmiy maqolalarida burjua didaktikasining yo'nalishi sifatida talqin etilsada, u birinchilar qatorida o'z hamkasblarini bu muammo bilan shug'ullanishga da'vat etadi va chet el maktablari va pedagogikasida bu sohadaagi yangi va qiziqarli nashrlarning barchasini kuzatish foydali ekanligini alohida ta'kidlaydi. SHu boisdan 80-yillarning oxiri, 90-yillarda PTning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilish Rossiyada keng yo'lga qo'yildi. Akademik V.P. Bespal-koning 1989 yilda nashr etilgan "Slagacemne pedagogicheskoy texnologii" (5) kitobi bu sohadaagi yirik tadqiqotlarning natijasi hisoblanadi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, 80-yillardayoq

Vladimir Pavlovich tomonidan PTning ilmiy maktabi yaratilgan edi va kitob muallifi ham shu dargohda tahsil olganligini alohida faxr bilan tilga oladi: Ustoz g'oyasi: "PT-amaliyotga joriy etiladigan ma'lum pedagogik tizim loyihasidir". Bugungi kunda ana shu konsepsiya pedagogik hamjamiyat tomonidan tan olindi va olimlar tomonidan ta'limiy texnologiyalarni loyihalash va rivojlantirishda foydalanib kelimmogda. Fikrimizning dalili sifati-da "Pedagogika" jurnalida chop etilayotgan qator maqolalarni keltirish mumkin [14; 16; 29].

Xo'sh, PT mamlakatimiz ta'lim tizimida, qolaversa, pedagogik nashrlarda ilmiy tushuncha tarzda qachon paydo bo'ldi? Shubhasiz, yangi soha 1997 yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida dolzarb tadqiqot ob'ekti darajasiga ko'tarildi va jiti-moiy buyurtma sifatida yuzaga qalqib chiqdi. Shu bilan birga-likda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu muammoga qo'l urildi, aniqrog'i 1993 yilda "Xalq ta'limi" jurnalida chop etilgan maqolada birinchi marta PT tushunchasi mohiyati, uning ta'rifi va ma'lum pedagogik tizim doirasidagi talqini yoritildi [20].

Bugun esa PT mavzusi bo'yicha mamlakatimizda nazariy va amaliy Konferensiyalarni uyushtirish, vaqti matbuotlarda maqola-larning tez-tez ko'zga tashlanib turishi jiti-moiy voqe'likka aylanib borayotganligi quvonchlidir. 1997 yil may oyida Samarqand Davlat universitetida o'tkazilgan Oliy ta'limning hozirgi dolzarb muammolari" Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-metodik Konferen-siyaning yalpi yig'ilishida "Pedagogik texnologiya: konseptual tahlil" mavzusida ma'ruza qilindi [21]. Ma'ruzada ta'limni texnologiyalashtirish jarayoni jiti-moiy buyurtma sifatida mavjudligi e'tirof etildi, PT ta'rifi, mohiyati va tarixi hamda zamonaviy loyihasi metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

PT muammolariga oid olimlarning fikrlari vaqti nashrlarda, "Ma'rifat", "Учитель Узбекистана" kabi gazetalarda mustazam ravishda yoritilib turibdi. Demak, bu mavzu nazariyasi va amaliyoti ko'r ming sonli auditoriyaga kirib borayapti, o'qituv-chilar kunlik faoliyatlarida ulardan foydalanayotganligi ma'lum.

XXI asrga qadam qo'yish arafasida G.K. Selevko tomonidan PTga oid yirik metodik asar - o'quv qo'llanma yaratildi va unda pedagogik texnologiyalar tasnifi keltirildi [24]. Olim PTlarni o'n ikki turga ajratadi:

1. Qo'llanish darajasi bo'yicha (umumpedagogik; xususiy predmetli; lokal, moduli, tor pedagogik).
2. Falsafiy asos bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik metafizik insonparvar, noinsonparvar, antroposofiya, teosofiya, pragmatizm, ekzistensializm, sionizm).
3. Ruxiy rivojlantirishning etakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).
4. O'zlashtirish konsepsiyasi bo'yicha (assosiativ-reflektorli, rivojlantiruvchi, bexevioristik gestalt-texnologiya, suggestiv, neyrolingvistik).
5. Shaxs tuzulmasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (informatson, operatsion, hayajonli-badiiy, hayajonli-axloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evristik va amaliy).
6. Mazmuni va tuzilish xarakteri bo'yicha (ta'limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texнократик turlicha sohaviy texnologiyalar, xususiy predmetli hamda monotexnologiyalar, politexnologiyalar).
7. Tashkiliy shakllar bo'yicha (sinf-dars, muqobil, akademik, yakka tartibli, guruhli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqalashtirilgan ta'lim).
8. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali klassik o'qitish; audiovizual texnik vositalar yordamida o'qish; "maslahatchi tizim"; kitob yordamida o'qitish; "kichik guruh" tizimi; kompyuterli o'qitish; "repetitor" tizimi; "dasturi ta'lim" - V.P. Bepalko).
9. Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, didaktotsentrik shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).

10. Ustuvor metodlar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish - ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, muammoli ta'lim, ijodiy; dasturi ta'lim, dialogli, o'yinli ta'lim, o'z-o'zini o'qitish ta'limi, informatson ta'lim).

11. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samara-dorligi asosida; o'quv materiallarni metodik va didaktik rekonstruksiyalash asosida; tabiatan monandlik muqobillik texnologiyalari; mualliflik maktabining yagona texnologiyasi).

12. Taxisil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, to'ldiruvchi; o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari).

Bu tasnifi keltirishdan asosiy maqsad pedagoglarni o'tmishda qo'llanilgan, hozirgi kunda joriy etilayotgan va kelajak faoliyatda qo'llash mumkin bo'lgan texnologiyalar bilan to'liq tanishtirishdir. Ularning ko'pchiligi sizga mutlaqo notanish ekanligiga ham ishonamiz, biroq bundan tashvishga tushishga xojat yo'q. Bu haqda G.K. Selevkoning kitobidan to'liq ma'lumotlarni olishingiz mumkin (24). Tasnifdan ko'rinish turibdiki, olimning o'zi ham har doim ilmiy jihatdan asoslangan va ham-maga ham tushunarli bo'lgan texnologiyalarni keltirish lozimligi oldida hisob beravermaydi.

Shunday qilib, PT konsepsiyasining rivojlanish tarixini kuzatish natijalari asosida bu sohada sarmashqat izlanish-larni olib borayotgan tadqiqotchilarni faoliyat darajalariga bog'lik holda sharti uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ba'zi "jonkuyar" olimlarning PTni pedagogikadagi zamonaviy yo'nalishi, deb an'anaviy yondashishlari va o'z imkoniyatlari doirasida muammoga ilk bor qo'l urishlari. Ular "tasodifiy" guruh vakillaridir.

2. Ta'limning bugungi axvolidga qayg'uradiganlar va uni informatika inqirozidan qutqaruvchi kuch texnologiyalashtirish, deb qaraydigan "qisman ijodkor" guruhiga mansub tadqiqotchilar.

3. Bu guruh a'zolari texnologiyalashtirishni ob'ektiv jaryon, deb hisoblaydilar va yangi sifatiy muammolarni echish uchun ta'limni evolyutsion jaryonga ko'tarish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etgan holda ijod qilmoqdalar. Ular "ilmiy" guruhni tashkil etadilar.

Savol va topshiriqlar

1. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi qachondan boshlangan?
2. XX asrning 70-80 yillariga kelib nima uchun sobiq ittifoq (SSSR) xududlarida o'qitishning texnik vositalariga bo'lgan e'tibor va qiziqish kuchaydi?
3. G.K. Selevko tomonidan yaratilgan yangi pedagogik texnologiyalar tasnifi ni bilasizmi?

1.3. Yangi pedagogik texnologiya prinsiplari

Yangi texnologiyalarni loyihalash va ulardan ta'lim-tarbiya jaryonida maqsadga muvofiq holda foydalanish ma'lum qonuniyalarga asoslanadi. Bu asoslar PTning o'ziga xos jihatarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko'rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda ularni PT prinsiplari deb atash mumkin.

Prinsip - lotincha "principium" so'zidan olingan bo'lib asos, dastlabki holat, boshqaruvchi g'oya, umumlashgan talab kabi ma'nolarni anglatadi. Didaktikada olimlar prinsiplarni turlicha talqin qilishadi: pedagogik faoliyatni yo'lga soladigan didaktik holatlar, tavsiyalar (V.I.Zagvyazinskiy, L.I.Gritsenko), o'qitishning me'yoriy asosi (M.A.Danilov), didaktika va metodikaning barcha savollarini echish uchun umumiy talablar (I.I.Kobilyatskiy), didaktik maqsadlarga erishish usullari (I.YA.Lerner) va hokazo.

Biz pedagogik texnologiya prinsiplari deganda loyihalangan o'quv-tarbiyaviy jaryonini amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talablarni tushunamiz. Demak u yoki bu pedagogik hodisa prinsip bo'lishi mumkin, biroq; uni o'quv jaryonida hisobga olish (rioya qilish) zarur bo'lsa, ya'ni unga tayanihsa.

Olib borilgan analitik-sintetik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, PT prinsiplari didaktik prinsiplardan tubdan farq qiladi va o'zida muhim sifat ko'rsatkichlarni mujassam-lashtiradi. Darvoqe, ta'limning tarixiy rivojlanish bosqichlarida o'quv-tarbiyaviy jaryonni amalga oshira oladigan PT mavjud bo'lganni yoki bu fenomen bugun paydo bo'ldimi? Bu savolga akademik V.P.Bespalkoning javobi quyidagicha: "Pedagogik texnologiya har doim har ganday o'qitish va tarbiyalash jaryonida mavjud, biroq eng maqbul o'qitish va tarbiyalash texnologiyasini tanlash va anglagan holda boshqarish pedagogika fani va maktab amaliyoti imkoniyatlari doirasidan chetda qolyapti" [5,176].

Aslida ham maktab (oliy o'quv yurti) amaliyotida PTning moddiy tashuvchilari-kitoblardai, texnik vositalardan va o'qitish metodikalaridan ko'pdan buyon foydalanib kelinadi yoki oldindan rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni o'qituvchi faoliyati orqali amaliyotga joriy etilyapti. Shu bilan birgalikda PT - bu qotib qolgan, qisuvga olingan yalang'och loyiha emas, balki ta'lim va tarbiya samaradorligini belgilovchi qator omillarni baholash imkonini beraoladigan ijodkorlik yaratuvchi fikr-fidoyilik faoliyati natijasidir.

PT prinsiplarini aniqlashda quyidagi holatlar e'tiborga olinadi: 1) mavjud jamiyat talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadi; 2) didaktik jarayonning ob'ektiv qonuniyatlari; 3) ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan shart-sharoitlar.

Yangi PTni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ham tuzilish ham mohiyat jihatdan yaxlitlik prinsipiga asoslanadi. Bu prinsip texnologiya loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimining barcha elementlarini o'zaro ta'sir ostida bo'lishini va o'zaro bog'liqligini e'tiborga olishni taqozo etadi. YA'ni, ta'lim maqsadining qat'iyani aniqlanishi (nega va nima uchun?), o'quv jarayoni mazmuni (nima?), tashkiliy shakllarni (qanday?), o'qitish metodlari va vositalarini (nima yordamida?) saralash va tanlashga ko'maklashishi, shuningdek, o'qituvchining mahorat darajasiga bog'liq holda didaktik jarayon samarasini aniqlashga imkon berishi kerak.

Yaxlitlik prinsipi pedagogik texnologiyani tashkiliy etuvchi elementlardan birini yangilab yoki o'zgartirib, qolganlariga tegmaslikni, qayta ko'rmaslikni inkor etadi. Misol uchun, ta'lim maqsadini o'zgartirib, uning mazmunini yoki o'qitish jarayonini eskicha qoldirish mumkin emas. Nima uchun bugungi kunda Respublikamiz xalq ta'limi tizimida chuqur o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilyapti?

Birinchidan, ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi-erkin fikrlaydigan fuqaroni, barkomol inson shaxsini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, bu ijtimoiy buyurtma o'z navbatida ta'lim mazmu-

nini tubdan qayta ko'rishni, yangi o'quv darsliklari va dasturlarini yaratishni keltirib chiqaradi. Uchinchidan, ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni axborotlarni o'quvchi(talaba)larga ma'lum vaqt doirasida etkazish jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni talab etadi. Ana shu vajdan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish Prezidentimiz tomonidan olimlarimiz oldiga ko'ndalang vazifa qilib qo'yilyapti. Pedagogik faoliyat yurgizayotgan har bir shaxs bu muammolarni to'g'ri anglab olishi va ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishlari zarur.

PT **maqsadli** ta'lim-tarbiya jarayonini tavsiflaydi. Agar an'anaviy pedagogikada maqsad muammosiga nazariyachilar va amaliyotchilar kam e'tibor qaratishgan bo'lsa, PTda bu markaziy muammo hisoblanadi va uning ikki jihatli amalda ajratilib ko'rsatiladi: 1. Tashxislanadigan maqsadli ta'lim va o'quv materialini o'zlashtirish sifatini ob'ektiv nazorat qilish. 2. Umumiy holda shaxsni rivojlantirish.

PT o'quv-tarbiyaviy jarayoni oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani sinf(auditoriya)da amalga oshirishni ko'zda tutadi. Shu boisdan PTning muhim prinsipi - bu bo'lajak o'quv-tarbiyaviy jarayoni **oldindan loyihalash** prinsipidir. To'g'risini aytganda hamma ham loyiha muallifi bo'la-vernmaydi. O'qituvchi bu sharaflilik nom-"pedagog-texnolog" sohibi bo'lishi uchun shu kitobda kayd etilgan didaktik masalalar va uni hal etish texnologiyalarini loyihalash qonuniyatlari bilan chuqur tanish bo'lishi kerak. Bu esa, tabiiyki, o'qituvchidan ijodkor faoliyatni talab etadi. Loyihalangan texnologiya dars mavzuiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilishi lozim. O'quv vaqti PTni oldindan ko'rishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi va o'qituvchi uni hisobga olishi shart. Loyihalananayotgan didaktik jarayon sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasiga mos kelishi, hamma uchun tushunari bo'lishi juda muhimdir. Shundaygina, **yakuniy natija** qo'lga kiritiladi.

Yakuniy natijaning **kafolatlanishi** PTning yana bir muhim prinsipidir. Bu tushuncha aslida nisbiy harakterga ega, chunki

tuzilgan texnologiya amalg oshirilgach, yaxshimi yoki yomonmi, har kalay ma'lum natijalar bo'lishi o'quvchilarning o'quv materiallarini turli darajada o'zlashtirib olishlari tabiiy. Biroq bu erda yakuniy natija tasodifiy va past ko'rsatkichga ega bo'ladi. Gap mavjudlik algoritmining (Ma) keyingi ikki bosqichida ketyapti: nazorat qiltuvchi harakat (Nlb) didaktik jarayonning natijaviy yakunini aniqlab beradi va tuzatish amali (Tuz) o'quvchilarning past o'zlashtirishiga sabab bo'layotgan didaktik jarayon xatolarini yo'qotish usullarini ko'rsatadi. Xo'sh, yakuniy natija qaysi sahtda bo'lishi kerak?

Bu savolga javobni PTning juda muhim prinsipi- o'qitishning tugallanganlik prinsipi javob beradi. O'quvchining tajribalarini o'zlashtirish sifati (α) o'zlashtirish ko'effitsienti ($K\alpha$) bilan aniqlanishini ta'kidlagan edik. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, agar $K\alpha \leq 0,7$ bo'lsa o'qitish jarayoni yakuniga etgan, tugallangan deb hisoblanadi va keyingi o'quv mavzusini o'rganishga kirishish mumkin, Agar $K\alpha \geq 0,7$ bo'lsa o'quvchilar bilan yangi mavzuni o'rganish faqat "o'zlashtirmovchilar" sonini ko'paytiradi. Shu o'rinda quyidagi holatga alohida to'xtalish lozim. Mamlakatimiz o'quv yurtlarida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati - $K\alpha \geq 0,55$ bo'lsa, ya'ni o'quv materialining 55 foizi o'zlashtirilisa "qoniqarli" deb hisoblanayapti. Fikrimizcha, bu ko'rsatkich ta'lim tizimini isloh qilishning dastlabki bosqichlari uchun etarlidir. Sababi uzoq yillar davomida shakllangan eski ta'lim tizimi sovet pedagogikasi inkirozga yuz tutdi va mamlakatimizda milliy ta'lim modeli yaratildi. Uning kelgu-sidagi ijobiy "portlash effekti" Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslandi. Ana shu "effekt" natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish sifati ham oshib boraveradi va kelajakda rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tariladi. Demak $K\alpha$ o'zgaruvchan qiyomatga ega bo'lib, turli davlatlarning ijtimoiy-siyosiy sohasidagi tub o'zgarishlarni hisobga oladi. Misol uchun, amerikacha bixevioristik konsepsiyada "muvaffaqiyat qonuni" mavjud bo'lib,

o'quvchilar 95 foiz savollarga to'g'ri javob bersagina ta'lim muvaffaqiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish o'zida egiluvchan avtomatlashtirilgan tizimni mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Bugun yangi texnologiyalar almashuvchanlik xususiyatiga ega: zarurat tug'lsa yangi mahsulot turiga mos holda ishchi o'rinlar qayta jilhozlanib, texnologik jarayon tuzilmasi zudlik bilan o'zgartiriladi. Texnologiyaning bu sifat ko'rsatkichi egiluvchanlik deb yuritiladi.

Egiluvchanlik yangi PTlarga xos asosiy prinsip hisoblanadi yoxud u PTning qo'llanish sohaslarini ta'lim mazmuni xajmiga mos holda birmuncha kengaytiradi. Gap shunda-ki, u yoki bu mavzu bo'yicha loyihalangan texnologiya hech bo'lmaganda fan bo'limlari chegarasida egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchida kam kuch va kam vaqt sarfi evaziga fan mavzulari bo'yicha didaktik jarayon tuzilmasini tashxisi maqsadga muvofiq tarzda almashira olish yoki qaytadan loyihalash imkoni mavjud bo'ladi. Misol uchun, fizika fanining "Kuch" mavzusi bo'yicha loyihalangan texnologiya aniq o'rnatilgan mavzu maqsadiga muvofiq kichik o'zgarishlar bilan "Ish" mavzusi uchun ham qo'llash imkoni bo'lsa, shubhasiz, loyiha muallifi egiluvchanlik prinsipiga tayanib ish ko'rgan bo'ladi. Egiluvchanlik prinsipi asosida yaratilgan PTlar ta'lim bosqichlarining turli uchun ham qo'l keladi. Bu erda fan dasturi mavzulari bo'yicha O'E soni va ularning mazmuni xajm jihatidan o'zgaradi, xolos. Bu fikrni misol yordamida tushuntirishga harakat qilamiz. Ma'lumki, kimyo fani tegishli bo'lgan barcha ta'lim muassasalarida (umumiy o'rta maktab akademik litsey, kasb-xunar kolleji, oliy maktab) o'qitiladi. SHu fanning "Kislotalar" mavzusi bo'yicha oliy maktab talabalari uchun loyihalangan texnologiyaga qisman o'zgartirishlar kiritgan holda umumiy o'rta maktab o'quvchilari uchun ham qo'llash mumkin. Bu erda o'quv materialining xajmi (Q) va o'quvchilarning yuklanganlik ko'effitsienti (ϵ) hisobga olinishi kerak.

Shunday qilib, PT ning egiluvchanligini ta'minlash o'qituvchidan didaktik jarayonni ko'rish qokuniyatlarini bilan chuqur tanish bo'lishni taqozo etadi.

Yangi pedagogik texnologiyaning sifat ko'rsatkichlari nimalardan iborat? U boshqa soha texnologiyalaridan qaysi jihatlari bilan farqlanadi? Ana shu savollarga javob topish uchun ko'plab pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishga to'g'ri keldi va natijada bu ko'rsatkichlarning asosiy mazmuni aniqlandi:

1) **Zamonaviylik:** Ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribada tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, faol metodlar va shakllar, tartib-qoidalarini joriy etishning majburiyati Milliy dastur g'oyasidir. Aslida ham ta'limning taraqqiyot darajasi uning mazmuniga kiritilayotgan fan-texnika yangiliklari bilan tavsiflanadi. Pedagogik jarayonda suskash-likka, harakatsizlikka yo'l qo'yish mumkin emas; aks holda ta'lim inkizozga uchraydi. SHu jihatdan olganda ta'lim mazmunini uzluksiz yangilab borish yangi PT ning jiddiy shartlaridan biridir. Bu yo'nalishda olib boriladigan ishlar, birinchi navbatda, o'quv dasturlaridan ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati kam bo'lgan tarixiy materiallarni chiqarib tashlash maqsadini belgilaydi. Bu harakatlar o'quv predmetini shunday tasavvurlash imkonini bersinki, natijada o'quvchilarda u yoki bu fan to'g'risida mantiqiy xulosalar shakllanishi, o'quv materiallarini o'zlash-tirish jarayonini engillashi, egallangan bilimlarni amaliyotga qo'llash imkoniyatlari vujudga kelsin. O'quv materiallarini tizimlash fanlararo aloqalarni ham tig'izlashtirishga, ixcham-lashtirishga imkon berishi bilan birgalikda ba'zi bir o'quv harakatlarning avtomatlashuviga ham zamin yaratadi, o'quv vaqtini tejashga, o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar xajmini kamaytirishga olib keladi.

2) **Ilmiylik** ta'limning didaktik masalalarini belgilashda fanning abstraksiya pog'onalaridan (3) to'g'ri foydalanish hisobiga erishiladi. O'qitish nazariyasi va o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish texnikasini doimiy ravishda rivojlantirish shart. SHundaygina zamonaviy ta'lim to'g'risida ijobiy fikrlar aytish

mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonini uzluksiz tadqiq qilishni, uning natijalarini amaliyotda qo'llash zarurligini ko'zda tutadi.

"O'qitish texnologiyasi - bu ta'limni ilmiy asosda takomillashtirish sinonimi yoxud **ilmiylik** birinchi galda u yoki bu yechimning qimmatini to'g'risidagi xususiy fikrga emas, balki qabul qilinayotgan yechimlarning ilmiy dalillarga tayanishini belgilaydi" [31].

3. **O'quv jarayonini maqbullashtirish** - kam kuch sarfi evaziga o'qituvchi va o'quvchi(talaba)ning o'qitish maqsadiga erishishdir. Bu esa ta'lim jarayoni uchun eng maqbul sharoit yaratishni, loyihalayotgan didaktik jarayon bosqichlariga mos holda o'qitish metodlarini, shakllarini, texnik vositalarni tanlash belgilangan mavzu maqsadiga muvofiq tarzda va o'quv vaqti miqdorini hisobga olib amalga oshirish kerakligini talab etadi. Albatta, bu talab o'qitish jarayoni qacda kechayapti, o'qituvchining kasb mahorati, imkoniyatlari qanday, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'lim mazmuni to'g'ri keladimi, degan qator savol-larga ham javob topish kerakligini o'qitiradi (Yu.K.Babanskiy).

4. **O'quv jarayonini va o'quvchi(talaba)ning dasturiy faoliyati** o'quv jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori xamijahatlikni ta'minlashga va pirovard natijada-ko'zlangan yakuniy natijalarni qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalashda o'qituvchi "texnolog" sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lim maqsadini aniq o'rganishi, o'tilayotgan o'quv materiallarni mazmunini saralashda o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini (a), fanni bayon qilishning ilmiy tilini (R) hisobga olishi kerak va nixoyat, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabga mos holda o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rish kerak bo'ladi. Umuman o'quv jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy

natijalarining ta'lim maqsadiga mos kelishini chamalamasdan, shuningdek, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib o'quv jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

5. **Axborot texnologiyasi va texnik vositalar** samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy PTning eng asosiy belgilaridan biridir. Milliy dasturda o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Biroq axborotli vositalar (kompyuter, elektron aloqa, radio, televidenie)dan foydalanish darajasi ikki omil bilan aniqlanadi:

a) o'quv jarayoni uchun axborotli vositalar samara beradigan mavzuni aniqlaydigan didaktik materiallarni ishlab chiqish;

b) o'qituvchilarning o'z amaliy faoliyatlarida texnik vositalar va didaktik materiallardan metodik jihatdan to'g'ri foydalana olish tayyorgarligini tekshirish.

Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri va PTning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

6. O'quv jarayoni uchun **zamonaviy moddiy-texnik baza**ning mavjud bo'lishi PTning navbatdagi sifat belgisidir. O'qituvchi va o'quvchilarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun yangi baza yaratish, uning tarkibiy tuzilishini loyihalash ham nazariy va empirik tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. Misol uchun, quvvatli texnik-texnologik vositalardan foydalanish arxitektura oid qator yechimlarni o'quv binosi loyihalanaotgandayog hisobga olishni va tegishli qulay sharoitlar (iqlim, yorug'lik, mebel, va boshqa) bilan ta'minlashni taqozo etadi. Demak, auditoriyadan tortib to nashriyot bazasigacha ta'lim vositalari tarkibiga kirib, ularsiz zamonaviy texnologiyalarni tasavvur qilib bo'lmaydi.

7. O'quv-tarbiya jarayoni natijalarini **ob'ektiv nazorat qilish va sifati baholash** PTning o'z oldiga qo'ygan natijaviy maqsadidir. Mamlumki, jahon pedagoglari uyushmasi tomonidan tan olingan ikki nazorat turi mavjud: **sub'ektiv** va **ob'ektiv**. Sub'ektiv usulda bilim va ko'nikmalarni tekshirish o'quvchi (talaba) oldiga qo'yilgan savolga olinadigan javobni eshitishdan hosil qilingan taassurot ostida o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va o'quvchi javobi xech qanday o'lchov va sifat mezon bilan taqqoslanmaydi. Misol uchun, imtixon savollariga og'zaki javob berishni baholash yoki yozma ishlarni tekshirish sub'ektiv nazoratdir, sababi baholash sifatining ob'ektivligiga qo'yilgan talablar oldindan shakllantirilgan o'lchov bilan solishtirilmaydi.

Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va baholashning ob'ektiv usulida o'qituvchi o'z hukmini o'quvchining javobi (yoki amaliy xarakati)ni belgilangan ta'lim maqsadiga mos holda ma'lum usullar yordamida aniqlangan sifat mezonlarini aks ettiruvchi o'lchovlar bilan solishtirish asosida qabul qiladi. Sub'ektiv nazorat qilishda nafaqat mulohazalash va baholash aniqligi yo'qoladi, balki bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishda tuzatib bo'lmaydigan ziyon etkazish mumkin. Misol uchun, o'quvchida bahoga nisbatan nigisistik (bahoning to'g'ri qo'yilganini inkor etish) yondashishni yuzaga keltirib chikarish mumkin. Afsuski, qator yillar davomida biz o'quvchilar bilimini sub'ektiv usulda nazorat qilib keldik. Bu esa, tabiiyki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida har doim ham jiboy munosabatlarni shakllantirishga kafil bo'la olmaydi.

Test ob'ektiv nazorat qilish usuli bo'lib, bugun amaliyotda keng qo'llanilyapti. Testga qator talablar qo'yilib, ularning ichida asosylari: moslik (adekvatilik), oddiylilik, aniqlik va muayyanlikdir.

Moslik. Testning mosligi deyilganda test topshiriqlarining o'quvchi(talaba)lar egallashi zarur bo'lgan bilimlar mazmuni va ma'nosi bilan to'liq ravishda va aniq mos kelishi tushuniladi.

Testning mazmunan mosligi dastlab nazariy tahlil (ekspertiza) orqali, so'ngra esa eksperimental usulda tekshirib ko'riladi. Nazariy tahlil davomida testning mazmuni o'quv dasturi va o'quv qo'llanmasi bilan taqqoslanib, uning to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilganligi haqida hulosaga kelinadi. Bu borada o'quvchi faollik ko'rsatib, har bir fandan tuzilgan testni komissiya ko'rigidan o'tkazishi kerak. Aks holda test moslik talabi chegarasidan chiqishi mumkin.

Aniqlik. Testni loyihalashda ularning aniqlik darajasiga alohida e'tiborni qaratish kerak. O'quvchi(talaba) testni o'qishi bilan darhol qaysi faoliyatni bajarish zarurligini, qanday bilimlarni va qaysi xajmda namoyish qilish chegarasini chuqur anglab olishi kerak. Testning aniqlik darajasini ta'minlash uchun ular ketma-ket seriyali eksperimentlar yordamida tekshirilib ko'riladi.

Oddiylik. Bu talab test mazmunida mumkin qadar topshiriqlarning ifodalanishi faoliyat turiga qarab sodd va to'g'ri chiziqli holda bo'lishini e'tirof etadi. Buning uchun test topshiriqlari ma'lum doira chegarasida echlilishi mumkin bo'lgan masalalardan tashkil topishi kerak. Agar bir topshiriqning o'zida yechimini kutayotgan bir nechta masalalar mavjud bo'lsa, u holda biz o'quvchi uchun sun'iy holda qiyinchilik tug'diramiz. Chunki ular testdagi barcha savollarni anglab olish va ularni xohirasida doimo saqlab turishi kerak ularidan biriga javob bera borib, boshqalariga ham javob berishni unutmastligi kerak. Agar o'quvchi noma'lum sababga ko'ra savollarning birini unutsa va unga javob bermasa, bu hol uning bilimini noto'g'ri baholanishiga sabab bo'lishi mumkin, aslida sababi-e'tiborsizlik bo'lishiga qaramay. Yaxshisi, testlarni echishda o'quvchilar faoliyatini taalluqli bo'lmagan savollar bilan chalg'itish va murakkablashtirish maqsadga muvofiq emas. Ularga oddiylik talabiga javob bera oladigan ketma-ket test taklif etilgani ma'qul.

Muqoyamlik. Testga qo'yilgan bu talab uning bajarilish sifatini barcha ekspertlar (imtihon oluvchi, mutaxassis va h.k.) tomonidan baholashda qarama-qarshiliklar yuzaga kelmaslikni

taqozo etadi. Bu degan so'z-test tarkibida ishonchli ishlov berishga imkon bera oladigan aniq va o'zgarmas natija olish mumkin bo'lgan topshiriqlar alohida ajratilib ko'rsatilishi kerak. Shuning uchun testni tuzishda ma'lum faoliyatni aks ettiradigan topshiriqni ifodalash bilan chegaralansadan, balki o'zida o'choq tizimi va baholash sifatini mujassamlashtira olgan etaloni ishlab chiqish kerak. O'quvchining faoliyatini bajarish sifati haqida xulosa chiqaruvchi bunday bo'limlar testning muhim (jiddiy) amallari deyiladi. Umuman test amali deganda sinalluvchining test shartiga binoan uni echishda bajaragan alohida harakati tushuniladi. Jiddiy amallar esa ma'lum predmet bo'yicha o'quvchi bilimini tekshirishning maqsadini aniq ifoda etuvchi amallardir. Testning bu amallar sonini ajratish va hisoblash uchun ularni tez topish maqsadida etalonda turli usullar bilan belgilanadi (tartib raqami bilan belgilash, ajratib ko'rsatish, qavs yordamida va h.k.)

O'quvchilar bilimini baholash jarayonini ob'ektivlash-tirish maqsadida test topshiriqlarini yuqorida tilga olingan talablarni hisobga olgan holda **tabaqalashtirish** zarur. Faqat shu yo'l bilanгина ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Tabaqalashtirishda har bir o'quvchining ma'lum fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi. Biz olib borgan ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi to'rt sinfga bo'linadi (bu faoliyat darajalariga mos keltirilgan sonlar) va shunga mos holda test topshiriqlari ham tabaqalashtiriladi.

Birinchi darajali test - nomahsul faoliyatni ifodalaydi.

Ikkinchi darajali test - algoritmi faoliyat.

Uchinchi darajali test - mahsuldor evristik faoliyat.

To'rtinchi darajali test - mahsuldor ijodiy faoliyat bilan tavsiflanadi.

Topshiriqlarni tabaqalashtirishda bir nechta ko'rsatkichlar e'tiborga olinishi kerak. Jumladan, topshiriq hajmi (chizma ishning, matematik hisoblashning salmog'i, savollar soni va h.k.); uni bajarish uchun zarur bo'lgan fikrlash faoliyatining turi

amaliyotga joriy etila-digan pedagogik tizim loyihasidir. Bu tizimni takomillash-tirish, asosan, quyidagi yoʻnalishlarda olib borilmoqda:

- didaktik birliklarni yiriklashtirish;
- oʻqitish natijalarni oldindan belgilash, rejalashtirish;
- taʼlim jarayonini psixologiyalashtirish;
- kompyuterlashtirish.

Bugungi kunga kelib, shubxasiz, bu yoʻnalishlar boʻyicha maʼlum yutuqlarga erishildi. Agar bu yoʻnalishlar aniq taʼlim-tarbiya maqsadini echishga qaratilgan holda yaxlitlashtirilsa yoki integral holatga keltirilsa, bu amal natijasida kuchli texnologiya vujudga keladi. Bu texnologiya integral texnologiya deb ataladi va yunoncha soʻz boʻlib, "bir butunlik", "uzluksizlik" maʼno-larini anglatadi. Integral texnologiyalar uchun yangi mashgʻulot shakli – seminar-praktikum yaratiladi. Uning mazmuni: mashgʻulotni oʻtkazish uchun talabalar kichik guruhlariga birlashadi va har bir guruh, chegaralangan vaqt davomida bajara oladigan topshiriq, oladi. Ana shu topshiriqni olgandan bajarishga kiritishadi va bunda taʼlim-tarbiya jarayoni obʼekti toʻgʻri tanlash jiddiy ahamiyat kasb etadi. Obʼekti obdon tadqiq, qilin-gach, natijalari boʻyicha kichik guruhlar "hisob" beradilar, yaʼni mashgʻulot "publik himoya" koʻrinishida tashkil etiladi. qarabsizki, talabalar oʻz-oʻzini oʻqitish, bahs, munozara, mavgei-ni mustahkamlash orqali oʻquv mavzularini chuqur oʻrganadilar va shu tarzda yakuniy natija taʼminlanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Yangi pedagogik texnologiya prinsiplarining mohiyati nimalardan iborat?
2. Maxsus fanlarni oʻqitishda yangi pedagogik texnologiya-larning sifat koʻrsatkichlarini tushuntirib bering.
3. Test texnologiyasi va testga qoʻyilgan asosiy talablar boʻlgan moslik, oddiylik, aniqlik va muayyanlikni tushuntirib bera olasizmi?
4. Oliy taʼlimda integral texnologiyalar va uning rivoj-lanishi hamda takomillashtirishi haqida fikringiz?

II BOB. DARS O'TISHNING ZAMONAVIY METODIK, PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

2.1. Maxsus fanlarni o'qitishda dars o'tishning usul hamda uslublari va pedagogik texnologiya

Pedagogik faoliyat o'zining ta'lim uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining birlamchi asosi bo'lgan darsdan foydalanishligini ham bildik. Dars haqiqiy bo'lib hisoblanishi uchun unda talaba, pedagog, me'yoriy xujjatlar, darsning texnik vositalari hamda o'qitishning usul va uslublari bir nuqtada mujassam bo'lishligi shartligini ham eslaylik.

Usul va uslublarning metodik ta'rifi bilan ilgari tanishgan edik. Endi bu kategoriyalarning pedagogikada qo'llanishi va pedagogik usullar tizimini, shu jumladan, texnologiyalashirilgan variantini ham ko'rib chiqamiz.

Pedagogikada o'qitish usuli deb, ta'limiy maqsadlarga erishishda qo'llaniladigan pedagogik chora-tadbirlar yig'indisiga aytiladi. Vaholanki boshqa faoliyat sohalarida buni uslub deb nomlaydilar.

Pedagogikada yana metodika degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha, ta'limiy maqsadga erishishda qo'llaniladigan pedagogik chora, tadbir va usullarini qo'llash yo'riqnomasi sifatida tushuniladi.

Pedagogikada usul atamasi ustida boshqa tushunchalar ham mavjud. Chunonchi, usullarni pedagogik qo'llaydigan bo'lsa o'qitish usuli, talaba qo'llaydigan bo'lsa, o'rganish usuli deyiladi. O'qituvchi va talabalarning bilim egallash maqsadida birgalikda qo'llaydigan usullarni ma'rifiy usullar deyiladi. Usul va uslublar yuzasidan boshqacha fikrlar ham bor.

Har bir ta'limiy usulni bir butunlik (majmu) deb bilib, uni tashkil qiluvchi unsurlarni tahlil qilib chiqqanda, ularning har biri uslub (priyom) bo'lib chiqmoqda. E'tibor bering, uslubning falsafiy talqinida, maqsadga etishishda qo'llaniladigan usullar

tizimi uslub deb aytilgan. Pedagogikada uning aksi bo'lib chiqmoqda. Ya'ni pedagogik maqsadga erishishda qo'llaniladigan usulning bir unsuri pedagogik uslub bo'lmog'ida. Bu tushunchalar pedagogika ilm-fanida an'anaviy qo'llanib kelinganligi uchun, biz ham shunga bo'ysunib, pedagogikada qabul qilingan tushunchalardan foydalanamiz.

Ta'limiy usul-murakkab, ko'p pog'onali, ko'p qirrali disseptiv, ochiq, qaytariluvchan markazlashagan ijtimoiy majmu bo'lib, dars jarayonini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogik usullarda, ta'lim jarayonida ob'ektiv mavjud bo'lgan qonuniyatlari, ta'lim maqsadi, mazmuni tamoyillari va ta'lim berishning shakllari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ta'lim-tarbiya usullari didaktikaning barcha tamoyillari (prinsiplari) o'z ifodasini topgan ekan, ular o'zaro funksional bog'liq bo'lib, ta'lim usullari o'zgarishini bilan didaktika prinsiplari ham takomillasha boradi va butun uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining takomiliga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Pedagogik usullari tarkibida **ob'ektiv va sub'ektiv** uslublar degan qismlar mavjud. Pedagogik usulning tarkibidagi ob'ektiv uslublarga, hamma usullarda istisnosiz va doimiy ravishda hukm suradigan qonuniyatlari qonun va qoidalaridan hamda ta'limiy maqsad, mazmun va shaklidan kelib chiquvchi uslublar kiradi. Sub'ektivlariga o'qituvchi va pedagogning shaxsiy sifatalaridan, o'qituvchi va talabalarning hamda o'quv jarayonining o'ziga xos hususiyati va sharoitidan kelib chiquvchi uslublar kiradi.

Har qanday pedagogik usulni shakllantirishda, albatta, ob'ektiv uslublarga suyaniladi. Hech qachon sub'ektiv uslublarga keng o'rin berilmasiligi kerak. Ob'ektiv uslublar bilan sub'ektivlarining orasidagi munosabatlarni optimallashtirish ustida doimiy tortishuvlar bo'lgan va bo'lib kelmog'ida. Pedagogik usullarni rivojlantirish uchun, albatta, sub'ektiv uslublar bilan ular boyitib borilishi kerak ammo bu harakat me'yoridan oshib ketmasligi lozim. Aynana sub'ektiv uslublarni yaratish va

ulardan pedagogik amaliyotda foydalanish pedagogning o'z kasbining mohir ustasi bo'lib etishganining belgisi hisoblanadi.

Ob'ektiv uslublar bilan sub'ektivlari orasidagi nisbatni muvozanatda ushlash juda qiyin. Chunki pedagogik usul o'qituvchi va pedagoglarning dars berishdagi asosiy quroli bo'lib, o'qituvchi rejalashtirgan maqsadni, maqsadga erishish choratadbirlarini, quyilgan maqsaddan kelib chiqib va echilishi shart bo'lgan masalalar tizimini, ta'lim-tarbiya jarayonining mantiqini, axborot manbalarini, o'qituvchining mahoratini va boshqa qo'plab narsalarni o'zida ifodalashi kerak.

Ko'rib turganimizdek, pedagogik usul ko'p qirrali ijtimoiy borliq, unga ta'rif berganda, uning hamma tomonlarini ifodalash qiyin. Shuning uchun unga quyidagicha qisqa ta'rif berish mumkin. Pedagogik usul-bu ta'limiy maqsadga erishish yo'lidagi o'qituvchi va talabalarning birgalikda qiladigan harakatlarning tartibi.

Pedagogik usul ko'p qirrali bo'lgani uchun ham uni guruhlashtirganda istagan jabhasini asos qilib olsa bo'ladi. Shuning uchun ham pedagogik usullarni turlarga ajratganda, albatta, pedagogik amaliyot talablaridan kelib chiqishlik to'g'ri bo'ladi.

Quyidagi pedagogik usullar tasniflarining ba'zi birlariga e'tiboringizni qaratamiz.

1. An'anaviy tasnif o'zining ildizi bilan qadimiy falsafiy va ta'limiy tizimlarga borib taqaladi. SHu kunda bu tasnifning zamon talabidan kelib chiqib, takomillashgan varianti mavjud. Bu tipdagi tasnif o'ziga asos qilib bilim manbalarini olgan. Bilim manbalariga quyidagilar kiritilgan: amaliyot va ko'rgazmalar (empirik bilimlar manbai); og'zaki so'z va kitob (nazariy bilimlar manbai), axborot texnologiyalari-video, televizor, kompyuter va internet tarmoqlari (ham ko'rgazmali, ham nazariy, ham empirik bilimlar manbai). Bu tasnif orqali usullar besh toifaga ajratilgan: amaliy, ko'rgazmali, og'zaki, kitob bilan ishlash va virtual (video, kompyuter, internet).

Bu usullarning har birining o'zini namoyon etish uslublari bor.

2. Belgilangan maqsadga qarab tasniflash. Bunda, dars bosqichlarining ketma-ketligi umumiy asos qilib olingan. Ularda quyidagi usullar ajratilgan: bilim egallash; ko'nikma va malakalar hosil qilish; bilimni amaliyotda qo'llash; ijodiy faoliyat; mustahkamlash; bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish jadal yoziladi.

3. Bilim faoliyatining tipiga qarab usullar quyidagilarga ajraladi: axborot-retseptiv yoki illyustrativ-tushuntirish: reproduktiv; muammoli bayon; evrestik yoki yarim tadqiqot va tadqiqot. Bu tipdagi usullar bilish faoliyatining kuchlanishiga qarab guruhlashtirilgan. Bunda usul, o'qituvchi o'qituvchi hamkorligida bilim olish jarayonidagi faoliyatida tafakkurini ganchalik ishlatishi bilan izohlanadi.

Agar o'qituvchi tomonidan tashkil qilingan bilish faoliyati, uning bergan bilimlarini eslab qolish va ularni qayta aytib berish bilan bog'liq bo'lsa, unda o'qituvchilar aqlini faol ishlamay, xotirasini ishga solib, yod olish bilan cheklanadilar. Bunday usul reproduktiv usul deyiladi. Agar o'qituvchi talabalar tafakkurini yuqori kuch bilan ishlashga majbur qiladigan usullarni qo'llasa, ular yarim tadqiqot va tadqiqot usullari deyiladi.¹

Axborotli-retseptiv usullar quyidagi belgilar bilan izohlanadi:

1) O'qituvchi va talabalarga bilimlar tayyor holda beriladi;
2) O'qituvchi turli uslublar bilan bu bilimlarni qabul qilib olishni ta'minlaydi.

3) Talabalar bu bilimlarni o'zlashtirib (retseptsiya), ularni tafakkuridan o'tkazib, xotirasida saqlaydi.

Bunday usullarni qo'llaganda barcha axborot manbalaridan foydalaniladi (so'z, ko'rgazmalilik va xokazo). Bayon qilish jarayonida mantiqning induktiv yo'li bilan bir qatorda deduktiv yo'ldan ham foydalaniladi.

¹ B. Zyomahmammadov. Pedagogik mahorat asoslari. T. "TIB-KITOB" nashr. 2009 yil. 149-bet.

Reproduktiv usulning quyidagi belgilari mavjud:

- 1) o'quvchi va talabalar bilim tayyor holda beriladi;
- 2) o'qituvchi bilimni beribgina qolmaydi tushuntirib beradi;
- 3) o'quvchi va talabalar tushungan holda bilimlarni o'zlashtiradilar va xotiralarida saqlaydilar. Ularning o'zlashtirganlik darajasi, berilgan ma'lumotlarni to'g'ri aytib berishi reproduktiv bilan izohlanadi;
- 4) puxta o'zlashtirishga ko'p marotaba qaytarish yo'li bilan erishiladi.

Bu va bundan oldingi aytilgan axborotli-retseptiv usullarning afzalligi hamda keng qo'llanishining sababi, ularning tejankorligi bilan belgilanadi. Bu usullar orgali kam vaqt ichida kam kuch sarflab, ko'p bilimni oshirib bersa bo'ladi.

Inson faoliyati yo reproduktiv (bilgan yo'ldan og'ishmay uni aynan qaytarish), yoki ijodiy (maqsadga yetish yo'lini o'zi izlab topadi) bo'lishi mumkin. Bu yerda shuni aytib o'tish joizki, har qanday ijodiy harakadan oldin reproduktiv harakatlar bo'ladir. Shuning uchun bu usulni mensimaslik joiz emas. Ammo, uni qo'llashga ham qattiq berilib ketmaslik lozim. Eng yaxshisi, reproduktiv usul bilan bir qatorda boshqa usullardan ham birday foydalanish yaxshi samara beradi.

Muammoli bayon usuli oralik usul hisoblanib, ko'r qorilardak yod olish va uni aytib berishdan, mustaqil fikr yuritishga o'tish uchun xizmat qiladi. Bolalar, rivojlanishning ma'lum bir bosqichida, mustaqil fikr yuritishga olinmaydilar. O'qituvchi va pedagog talaba-yoshlar oldiga muammoni qo'yib uni echish yo'llarini o'zi bayon qilib beradi. Shunda talabalar muammoni echishda ishtirok etmasalar ham, o'qituvchining sinf oldiga qo'yilgan muammoni mohirona yechishini kuzatib ilhomlanadilar va muammoni o'zlari echishni istab qoladilar

Eyresitik yoki yarim tadqiqot usul quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- 1) O'quvchilarga bilim tayyor holda berilmay, u mustaqil ravishda topiladi:

- 2) O'qituvchi turli vositalar yordamida, mustaqil ravishda bilim olishni tashkil qiladi;

- 3) O'quvchi va talabalar o'qituvchi yoki pedagog yordamida mustaqil fikr yuritishga va shu orgali yangi bilimlarni topishga o'rganadilar. Ular mustaqil ravishda muammolarni echish yo'llarini izlaydilar. Topilgan natijalarni tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, umumlashtiradilar va yakun yasaydilar

Bu usulning yarim tadqiqot deb nom olganligining sababi, o'quvchi va talabalar avval hech qachon mustaqil ravishda bilim olishmagan bo'lishsa, bu vazifani bajarishga qiyinaladilar. Shuning uchun o'qituvchi va pedagoglar ularga yordam beradilar. Bu usul qo'llanganda o'qituvchi-o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchi sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi. Shunda bilimning bir qismini pedagog aytib, qolganini topish talabalarga qo'yib beriladi.

Tadqiqot usulining mohiyati esa quyidagicha:

- 1) Pedagog talabalar bilan birga muammoni shakllantiradi va uni hal qilish uchun talabalarga muddat beriladi;

- 2) O'quvchi va talabalarga bilim aytilmaydi. Uni talabalarning o'zlari mustaqil ravishda izlab topadilar. Shunda, bu bilimni topish chora-tadbirlarini ham o'quvchilarning o'zlari belgilaydilar;

- 3) O'qituvchi va pedagogning faoliyati talabalar izlanishini boshqarishdan iborat bo'ladi;

- 4) Bu usulda o'quv jarayoni o'ta jadal va yuqori qiziqish orgali kechishi bilan, topilgan bilimlar chuqur, ta'sirchan va in-chunin bolalar xotirasida uzoq saqlanishi bilan boshqa usullardan ajralib turadi. Bu usulning kamchiligi, unga ko'p vaqt hamda o'quvchi va o'qituvchilardan anchagina kuch sarflanishi talab qiladi.

4.Didaktik maqsadlarga ko'ra usullar ikki guruhga ajraladi:

- 1) bilimlarning birlamchi o'zlashtirishiga xizmat qiluvchi usullar;

2) egallangan bilimlarni mustahkamlashga va takomillashtirishga yo'naltirilgan usullar.

Birinci guruhga: axborot-rivojlantiruvchi usullar (og'zaki bayon, suxbat, kitob bilan ishlash), evrestik (izlanuvchan) usullar (evrestik suhbat, munozara, laboratoriya ishlari); tadqiqot usullari kiradi.

Ikkinchi guruhga: mashq (nushaga qarab ko'chirish, sharhlangan mashqlar, variantli mashqlar va xokazo) va amaliy mashg'ulotlar kiradi.

5. Bir necha bor **binar va yarim binar** usullarni yaratishga urinib ko'rilgan. Bunda usullar ikki va undan ortiq belgilariga qarab guruhlashtiriladi. Masalan, bilim berish usullarini bilan bilim olish usullarining birkuvidan hosil bo'lgan usullar va hokazo.

6. **Didaktikada** keng tarqalgan usullar guruhi, bu akademik Yu.K.Babanskiyning taklif qilgan tasnifidir. Bunda uch yirik pedagog usullar guruhi ajratilgan:

1) o'qish-o'rganish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish usullari;

2) o'qish-o'rganish faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyalash;

3) o'qish-o'rganish faoliyatining samaradorligini tekshirish va o'zining o'zi nazorat qilish usullari.

O'qish-o'rganish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish usullari, o'z navbatida, to'rt guruhga bo'linadi:

1) Manbalar jihatidan-og'zaki, ko'rgazmali va amaliy;

2) Mantiqiy jihatidan-induktiv va deduktiv;

3) Fikr yuritish bo'yicha-reproduktiv va muammoli izlanish;

4) Boshqarilishi jihatidan-mustaqil ishlash va o'qituvchi rahbarligida ishlash usullari.

O'qish-o'rganish faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyalash usullari ikki guruhdan iborat:

1) o'qishga qiziqishni asoslash va uni rag'batlantirish;

2) o'qishga bo'lgan ma'suliyatini asoslash va rag'batlantirish.

O'qish-o'rganish faoliyatining samaradorligining tekshirish va o'zini o'zi nazorat qilish usullari, o'z navbatida, uch bo'lakdan iborat:

1) Og'zaki tekshirish va o'zini o'zi nazorat qilish darslari.

2) Yozma ravishda tekshirish va o'zini o'zi nazorat qilish usullari;

3) Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar orqali tekshirish hamda o'zini o'zi nazorat qilish usullari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, usullar asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi: o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalash, o'qishga qiziqtirishni rag'batlantirish, nazorat qilish va tuzatish. Pedagogik usullar yordamida maorifiy maqsadga erishiladi.

Ayib o'tilgan pedagogik usullarning birontasi ham kam-chiliklardan holi emas. Shuning uchun usullar nazariyasi tinimsiz taraqqiy etib, barcha o'qituvchi va pedagoglar talabiga birday javob beruvchi usullar izlanmoqda. SHu izlanishlar natijasi sifatida o'quv jarayonining texnologiyalashgan usuli vujudga keladi¹.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Keyingi o'n yil ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiya", "Progressiv pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan, ularning o'zbek tilidagi maromiga etgan ta'rifi hali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

¹ B. Zayonmuhamedov. Pedagogik mahorat asoslari. T.: "TIB-KITOB" nashr, 2009 yil, 152-bet.

Bu yerda, "Nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zarurati tug'ildi?" degan savol paydo bo'lishi mumkin. "Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimni kadrlarni va yuqori malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika usullari mavjudku, ularning eskirib, talablarga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi?" - degan mulohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyat, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. Chunki:

Birinchiidan, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiyot eigan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi usun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi:

Ikkinchiidan, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishni tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi;

Uchinchiidan, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasi axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

To'rtinchiidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

Beshinchiidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqga majmu yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidir.

Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o'tilgan beshta shartning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir.

Shu kundagi ijtimoiy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda, ma'rifiy va madaniyat sohalariga, shu jumladan, ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga ham yangi texnologiyani joriy etishni taqazo etmoqda.

Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiqot olib borishni ko'zda tutadi. Bunda, eng avvalo, quyidagilarni aniqlash lozim:

- ta'lim texnologiyalarini ilmiy ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish uchun ijtimoiy-pedagogik asoslar mavjudligini aniqlash;

- ta'lim majmu sifatida nimani anglatishi va qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligi belgilash;

- ta'lim texnologiyasining funksional majmui jarayon sifatida nimalardan iboratligini aniqlash;

- ta'lim texnologiyalari "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" maqsadlariga qay darajada to'g'ri kelishi va uni baholash muvoinligini ko'rsatib berish;

- pedagogik texnologiyaning majmular nazariyasining asosiy qonuniyatlariga mosligini nazoratda tutib turish yo'l-yo'rig'ini ishlab chiqish.

Shuni aytish joizki, ta'lim texnologiyalari, pedagogika ilmining tadqiqot ob'ekti sifatida, aniq fanlarni o'qitishda usuli bo'libgina qolmay, ijtimoiy fanlarni o'qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilinishi lozim.

Bu zaruriyat, shu vaqtgacha o'quvchi (talaba)lar yopiq tafakkur paradigmasi (namuna misol)lar asosida o'qitilganligi, ularda o'ziga nafaqat nafaqat tan olmaslik, faqat o'z fikrini to'g'ri deb bilish shakllantirilganligidandir. Bu hol har qanday taraqqiyotga g'ov bo'lib, shu paradigmasida yurgan kishilarni inqiroz sari etaklaydi.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiyot etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada,

ayniqsa, ta'lim-tarbiyada deqsinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmogda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ma'rifati va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim.

Pedagogik texnologiyaning tom ma'nosini bilan va uning hududimizga mos turini yaratish uchun majmular nazariyasini to'la egallab olish zarur. Chunki pedagogik texnologiya majmular nazariyasining qonuniyatlariga 100 foiz suyangan bo'lib, yangicha falsafiy tafakkurni, yangicha dunyoqarashni ifoda etadi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektaga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektaga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tartibli ta'sir natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan, dastavval, AQSh va XX asrning 70-yillarida falsafaning bixiv-ozizm oqimini zaminda yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mam-lakatlarga tez tarqaldi.

Yer yuzi mamlakatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo'linib, sovuq urush avjiga chiqqan davrda sotsializm tarafdorlari bu ijtimoiy xodisani ma'kura nuqtai nazaridan tan olmay, ko'p yillar davomida uni ko'r-ko'rona inkor qilib kelishdi.

XX-asr 90-yillarining boshida sotsializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustaqil bo'lganidan keyin, har jihatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham keng yo'l ochildi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mam-lakallar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosay va ilmiy ma'rifiy aloqalar o'rnatma boshladilar. Natijada, yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatorida jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Oxirgi yillarda Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik tex-nologiyalarni o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Pedagogik texnologiyaning hududga mos variantini yaratishga qo'l urgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)ning peshqadam pedagog olimlariga tasanno aytish bilan birga ular yo'l quyayotgan ba'zi kamchiliklarni aytish, ularni tuzatib o'tishni lozim ko'rdik. Chunki bu kamchiliklar pedagogik texnologiyalarning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunishga halal bermogda. Buning uchun biz, MDHda shu yo'natishda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog olimlarning "Pedagogik texnologiya" tushunchasiga bergan ta'riflarini hamda ular pedagog texnologiya asosida tuzib chiq-qan dars loyihalarini tahlil qilib chiqdik. Tahlilimizning yakuni quyidagicha:

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zurliligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, "PT-bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagog muvaffaqiyatni kafolatlay

oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasi¹."

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: "PT-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy hususiyatlariga e'tiborni qaratadi.

"PT-o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligi hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv hususiyatlaridan uni ozod qiladi"², dedi.

M.V.Klarin fikricha, "PT-o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashtir"³.

I.YA.Larnerning fikriga ko'ra, "PT-o'quvchilar harakatlari aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi"⁴.

V.P.Bespalkonning o'zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, "PT-bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shahs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir"⁵.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "PT-ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart xolga solib, uning optimal loyihasi tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir"⁶.

¹ Bespalko V.P. Shogirdlar pedagogik texnologiyasi. -M.: «Pedagogika», 1989. S.192.
² Monaxov V.M. Aksonometricheskoy podskod k proektirovaniyu, ped. texnologiyi. -M.: «Pedagogika», 1997. №6. S.26.
³ Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchitelnom protsesse. -M.: «Znanie», 1989. S.75.
⁴ Larner I.YA. Vnutrennyy o'qitish texnologiyasi. -M.: «Sov. Pedagogika», 1991. №5. S.139.
⁵ Saydahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -T.: 1999. 78-bet.
⁶ Farberman B. Iltimor pedagogik texnologiyalar. -T.: 1999. 4-bet.

Bu ta'riflarni uzozq horijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. "PT, deydi -Sakomoto, -bu majmumi fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir"⁷.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralardan YUNESKOning ta'rif bo'yicha, "PT-bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llash majmumi yondashuv usulidan foydalanishdir"⁸. AQSH va Germaniya olimlarining pedagogik texnologiyaga bergan ta'rif YUNESKO bergan ta'rifga to'g'ri keladi.

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzozq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto, Nesko va boshqa uzozq xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'riflarda majmu yonlashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining PT ga bergan ta'riflarida majmu yondashuv e'tibor o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyihasi tuzishganda uni mutloq unutilib, majmu yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira ham amal qilmaganini ko'ramiz.

Haqiqatda esa, ob'ektiv borliqqa majmu yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga, Sakomoto aytganidek, "PT-o'quv jarayonini muayyan bir majmuga keltirishdir", degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PTning boshqa hamma hususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu hususiyatlarining hammasi, majmular nazariyasiga binoan, majmu deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zisz, o'quv jarayoniga majmu sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-

⁷ YI'zavichene P.A. Teoriya i praktika moduliogo obucheniya. -Kauas, 1989. S.136.
⁸ Farberman B. Iltimor pedagogik texnologiyalar. Iltimor-nazary seminar-T.: 8-9 aprel, 1993. 3-bet.

tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalda oshirishi pedagogik texnologiya deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy usullaridan asosiy farqi, uning to'la-to'kis majmular nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullaridan afzalligi, u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuga keltirib ta'lim bosqichlarini loyihalab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim natijalarini baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab majmuga keltirib, uning loyihasini tuzishdadir.

Uning an'anaviy usullaridan keyingi farqi, u talabalarining o'zlariga berilgan bilimni yodlab olib, aytib berishiga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarishga yo'naltirilganligidadir.

Pedagogik texnologiyaning boshqa ta'lim usullaridan navbatdagi farqi, uning yordamida o'quv jarayoni tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir. Ilmiy asoslanib, yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi ham a'lo bo'lmasa-da, yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagog olim, metodist yoki ilg'or tajribali o'qituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik mahorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Avvalgidek, "darsdan ko'zlangan maqsadga ob'ektiv sabablarga binoan etib bo'lmaydi" yoki "kutilmagan omillarga binoan dars buzildi" va shunga o'xshash gaplarda pedagogik texnologiyada o'rin yo'q.

Pedagogik texnologiyaning yuqori qayd etilgan hususiyatlaridan va majmular nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta'rifni beramiz. PT-bu

jamiyat ehtiyojidan kelib chiquvchi oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmu sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir.

Jahon pedagogik tafakkurida ta'lim-tarbiyaga bunday yondashuv yangi emas. XVIII asrdayoq, "Buyuk didaktika"ning muallifi Yan Amos Komenskiy ta'lim jarayonini "unda har bir usul va narsalar vaqt jihatidan shunday joylashtirilishi kerak ediki", "butun pedagog jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" bo'lgan shaklga solmoqchi bo'lgandi. Buyuk pedagog Komenskiy etmagan orzularga XX asr pedagoglari etib, bu ijtimoiy hodisa pedagogik texnologiya nomini olib, butun dunyo o'qituvchi va pedagoglariga dasturiy bo'lib xizmat qilmoqda.

Pedagog nazariyalar yig'indisi hisoblangan pedagogikada katta hajmda nazariy va amaliy bilim to'plangan bo'lishiga qaramay, XX asr ikkinchi yarmigacha mashhur pedagoglarning biron-tasi qayta tiklanadigan, ya'ni izdoshlari tomonidan ular o'tgan yuqori samarali darslarni o'zlariga o'xshab o'tish imkonini beradigan pedagogik jarayon andozasini ishlab chiqishmagan. Buning boisi, mashhur pedagoglar usuli tarkibida o'zlarining shaxsiy sifatleri etakchi o'rinni egallaganligidadir. Ma'lumki, jamiyat tarkibida mashhurlikka da'vogar buyuk shaxslar juda ham oz. Bizga, ular har bir maktabda, har bir litsey va kollejda, har bir oliy o'quv yurtida, har bir sinf va dars honalarida kerak. Bunga etishishning birdan bir yo'li-mashhur pedagoglarning darsini pedagogik texnologiya shakliga solib, loyihasini tuzish va ko'paytirishdir.

Texnologik yondashuv ishlab chiqarishdan olingan bo'lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyihalashtirilgan. Ular

ishlab chiqarishda kerakli natijalarga erishish garovi hisoblanadi. Bu texnologiyalarni qo'llash vaqtida hudud va ularning ijrosi o'zgarsa ham, kerakli mahsulot chiqaveradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ham shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chiqildi.

Bu ish birinchi bor AQSh olimlari B.Blum, D.Kratvolb, N.Granlund, Dj. Kerolla, Dj. Blok, L.Anderson va boshqalar harakati natijasida amalga oshdi.

Pedagogik texnologiya, umuman olganda, reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni o'quvchi (talaba) larga tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan.

Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lakda o'quvchi (talaba)lar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. O'quv materiallar dars maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan bo'ladi. Har qaysi modulga test savollari tuziladi. O'quv jarayoni aniq savollarga aniq javoblar topishga qurilgan bo'lib, savollar va javoblar o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lishi natijasida bir butunlikni ya'ni majmuni tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyada reproduktiv usul qatorida illanuvchi-tadqiqot va boshqa usullar ham ishlatiladi.

Mustaqil O'zbekistonning erkin fuqarolarini shakllantirishda halq bo'jaligi uchun zavrur bo'lgan ma'lum bilim hajmiga ega mutahassis handa turli muammolarga duch kelganda, mustaqil izlanib, ularni hal qilib ketadigan tadbirkor kishilarni tarbiyalashda tipik harakatlarga, reproduktiv va nostandart vaziyatlardan yo'l topib, chiqib ketishga o'rgatuvchi tadqiqot uslublari mos tushadi. Bizga zarur bo'lgan usul ushbu ikki an'anaviy uslublar qorishmasidan hosil bo'lib, texnologiyalashtirilgan integrativ usuldir. Uni pedagogik texnologiya deyilmoqda.

O'quv jarayonining pedagogik texnologiya tamoyillari asosida tuzilgan loyhasini, aloqida olingan bitta darsga,

bitta mavzuga yoki o'quv predmetining bir qismiga va butun o'quv predmetiga tuzib chiqish mumkin.

Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining **birinchisi**-o'quv predmetini bir butunlik sifatida ko'rib, undaga turdosh bilimlar yig'indisini mantiqiy tugallanganligi asosida "katta", "o'rta" va "kichik" modullarga ajratib chiqishlik. **Ikkinchisi**, muayyan fandan kutilgan umumiy maqsadni hamda umumiy maqsaddan kelib chiqqan holatda, uning qismlari (katta modul) va darslar (o'rta modul) hamda dars ichidagi kichik modullarining har biridan kutilayotgan maqsadlarni identifikatsiyalashtirib chiqish hamda kichik modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish; **uchinchisi**-dars modullari ichida echiladigan masalalarni har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish; **to'rtinchisi**-maqsadlari aniq bo'lib, test savollari tuzilganidan keyin maqsadlarga erishish usullari tanlanib, ular ishlatiladigan aniq joylarni belgilab olish.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, avval aytib o'tganimizdek, majmu yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu pedagogik texnologiyaning **heshinchi** tamoyili hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, dars berish usullari ustida tadqiqotlar olib borish hamda yangi uslublar yaratishda zamonning eng ilg'or ilmiy yo'nalishlaridan biri-har bir narsa va hodisaga majmu sifatida yondashish zarur. Aks holda, faoliyat an'anaviy tus olib, kechagi kunni ifoda etib qoladi. SHu nuqtai nazaridan har qanday pedagogik faoliyat davomida majmu yondashuv tamoyili markaziy o'rinda turishi kerak. SHundaygina pedagogik faoliyat zamoniga mos bo'lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini sharaf bilan bajarish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik usullarni tasniflash va texnologiyalashirish nimalarni anglatadi?
2. Akademik YU.K. Babanskiy taklif qilgan va didaktikada keng tarqalgan usullar guruhidan xabaringiz bormi?
3. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini asoslab bergan Rossiyalik, O'zbekistonlik va Yaponiyalik olimlardan kimlarni bilasiz?
4. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish tamoyillarini tahlil qila olasizmi?

2.2. Ta'lim tizimida metodika va texnologiya uyg'unligi

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimi va jarayoniga kirib kelayotgan pedagogik texnologiyalar, ularni qo'llash borasida ko'plab ilmiy izlanishlar, baxs-munozaralar mavjud. Albatta, turli hil qarashga ega bo'lgan bu fikr-mulohazalar bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldiradi, deb o'ylaymiz.

Xo'sh aslida texnologiya nima degani o'zi?

Ilmiy - pedagogik adabiyotlarda texnologiya so'zi grekcha «techné» - san'at va mahorat, «logos» - ta'limot so'zidan olinganligi qayd etib o'tilgan.

YUNESKOning ta'riflashicha esa, «pedagogik texnologiya» bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib bilimlar yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir.

O'tmishga nazar tashlasak, pedagogik texnologiya atamasi g'arb pedagogika fani va amaliyotiga dastlab 1950-60-yillardan boshlab kirib kelgan. Shu kungacha olimlar tomonidan pedagogik texnologiyalar xususida ta'rif, tushuncha, izohlar juda ko'p bildirilgan. Lekin shuni aytib o'tish joizki, ayrim amaliyotchi

o'qituvchilar tomonidan pedagogik texnologiya metodikaning aynan o'zi yoki darslarda interfaol usullar, texnika vositalaridan foydalanish deya qat'iy fikr bildirilmoqda. Shu bois o'qituvchilar orasida noto'g'ri tushuncha bo'lmastligi uchun pedtexnologiya va metodikani bir-biridan ajratib olish zarurdir.

Bugungi kunda metodikaning o'zi ikki hil ma'noda ta'riflanadi, ya'ni, birinchidan, metodikaga fan sifatida qarash kerakligi, uning o'z predmeti va tadqiqot yo'nalishi e'tirof etiladi. Ikkinchi tomondan esa, metodikaga metod va usullarning uyg'unlashuvi, ya'ni texnologik jarayon sifatida qaraladi. O'qitish texnologiyasi - bu jarayon. Agar metodikaga fan deb qaralsa, metodik asoslarga ilmiy asoslar sifatida qaraladi. Bunda esa metodika va texnologiyani bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydi. Ya'ni, texnologiyani kengroq, ma'noda tushunish kerak. Chunki texnologiya metodikadan farq qilgan holda faqat bilim berish emas, balki aniq maqsad va natijaga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni hamdir.

Metodika va texnologiyaning bir-biridan farqini Z. Abasov shunday tushuntiradi: «metodika, bizning fikrimizcha, ta'lim maqsadlariga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni, o'qitishni tashkil etishning birgalikdagi majmuidir. Bir hil mazmunga ega bo'lgan metodika, uslub va usullar yoki metodik tizim ikki o'qituvchida ikki hil natija berishi mumkin. Pedagogik texnologiya qo'llan-ganda esa, turli o'qituvchilar turli hil yondashuvda, turli hil vosita va usullardan foydalanishsa-da, bir hil natija olishlari mumkin».

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o'qituvchining shaxsiy mahorati va harakteri metodikada aks etadi, ya'ni metodika o'qituvchiga natijani kafolatlamaydi. Texnologiya esa, metodikadan farq qilgan holda ko'plab olimlarning fikricha, ilmiy va amaliy xulosalarga asoslanadi.

Texnologiya metodika, didaktika hamda ta'lim - tarbiya nazariyasini inkor etmaydi, ularning o'zini bosmaydi ham. U ma'lum algoritmnlarni ishlab chiqadi, o'quv jarayonini konstruk-

siyalaydi hamda kafolatlangan natijaga erishishning aniq va qat'iy yo'llarini belgilaydi («Shkola texnologii» №5, 2002 y. 58-bet).

Ushbu xulosalardan ko'rinish turibdiki, pedagogik texnologiyaning ham, metodikaning ham o'z o'rnini bor. Lekin har qanday pedagogik texnologiyalar, har qanday yangi usul va metodlar pedagogik jamoa, ota-onalar tomonidan yaxshi qabul qilinishi hamda ta'lim tizimining yaxshilanishi, rivojlanishi, shu bilan birga o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi kerak. Buning uchun amalda qo'llanilayotgan yoki qo'llanilmogchi bo'lgan pedagogik texnologiya zamirida ilmiy asos - ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik psixologik va falsafiy asos bo'lishi va ta'kidlab o'tilganidek, ta'lim tizimi va shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qila olishi lozim.

Tajribadan ma'lumki, pedagogik texnologiyalarni qo'llashda maktab o'quvchilari va ota-onalar tomonidan ziddiyatlar, qararna-qarshilik va noroziliklar yuzaga kelishi mumkin (Bunga hozirda qo'llanilayotgan reyting tizimini misol qilish mumkin). Bunday vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun, avvalo, quyidagilarni amalga oshirish zarur, deb o'ylaymiz:

A) o'quvchilarga qo'llanilmogchi bo'lgan pedetexnologiya, uning maqsadi va kutiladigan natijalar to'g'risida to'liq axborot berish;

B) qarorlar qabul qilinishi bosqichida mazkur masala yuzasidan o'quvchilar orasida keng miqyosida muhokamalar o'tkazishni tashkil etish va ularning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish;

B) o'quvchilarning pozitsiyalariga ko'ra turli hildagi guruhlar bilan tabaqalashtirilgan ishlar olib borish;

G) moddiy, moliyaviy va psixologik yordam, moddiy texnik ta'minot, innovatsion faoliyatga ijobiy yondashishni shakllantirish;

D) hamma o'quvchilar uchun doimiy va majburiy ilmiy metodik o'qishlarni (muammoli seminar, Konferensiyalar, davra subhatlari, treninglar) tashkil etish.

Ma'lumki, DTSga o'tish bilan bog'liq oxirgi 20-30 yillar mobaynida rossiyalik olimlar rivojlangan g'arb davlatlari ta'lim-tarbiya tizimini, shuningdek, pedagogik texnologiyaga oid ishlarni chuqur o'rganib bordilar va shu asosda ilmiy tadqiqot ishlarni yaratdilar (M.A.Gussakovskiy, M.A.Bogoslavskiy «Научные достижения и передовой опыт в области педагогики и народного образования» М. 1991г.). O'z navbatida ilg'or pedagogik amaliyot va tadqiqotlarga asoslangan holda pedagogik jarayonlarni rivojlantirishning ilg'or yo'nalishlarini aniqladilar. Bu yo'nalishlarning yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda metodologik asos sifatida qabul qilinishi ta'limning og'lona tashkil etilishiga omil bo'la oladi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Pedagogik maqsadlarning yo'nalishlarini gumanitarlashtirish, ya'ni insonga beriladigan ta'lim va tarbiya jamiyat tomonidan insonning o'zi uchun xizmat qilishiga imkon berish.

2. Pedagogik jarayonlar orasidagi asosiy subyektlar o'quvchi va o'quvchi munosabatini ob'ektiv-subektiv shakldan dialog munosabatiga asoslangan subyektdan subyektaga ko'chirish. Bunda o'quvchining ma'naviy intellektual ta'siri ostida har bir o'quvchining o'z imkoniyatlarini to'la ishga solishlari ta'minlanishi kerak.

3. SHu vaqtgacha mustahkam o'rnatib qolgan shaxsni bir hilda ijtimoiylashtirishdan farqli o'laroq milliy, tabiiy, demografik va ruhiy-fiziologik asoslarga o'quvchilarning individual xususiyatlari diqqat-e'tiborini kuchaytirish. Bunday holda har bir bolaning shaxsida zo'xir bo'ladigan ichki kechimmalarni avaylashga e'tibor berishni kuchaytirish muhimdir. Bunda «har tomonlama va uyg'un rivojlantirish» chaqiriqlariga qararna-qarshi o'laroq, shaxsni shakllantirishda faoliyat-xizmat tarzida yondashish yo'nalishi aniq, ko'rinishga ega bo'lishi kerak.

4. Ta'lim mazmuniga bo'lgan qiziqish «moddiy» tomondan «rivojlantiruvchi» yo'nalishga o'tish. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim mazmuni «tayyor» holda beriladigan bilimlar maqdoriga emas, balki o'quvchilarning ijobiy tashabbuslari, faoliyatlarini rag'batlantirish, ko'nikma va malakalarini shakllanishiga xizmat qilmog'i kerak. Ya'ni, dunyo, madaniyat, tabiat, xayot, oila, salomatlik kabi tushunchalarni o'z ichiga olgan pedagogik jarayonning asosiy funksiyasini tashkil qiluvchi tarbiya masalalarini ta'lim orqali xal qilishga intilishdir.

5. Davlat va maktab orasidagi o'zaro munosabatlar harakterining o'zgarishi-bu maktablarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Bu respublikamizdagi o'ziga xos xususiyatlari, sharoitlari bilan farq qiladigan xududlarda maktablarning o'ziga xos ravishda rivojlanishlariga davlat tomonidan kerakli sharoitlar yaratish orqali amalga oshiriladi. SHuning uchun ham mustaqil davlatimizning yangilangan ta'lim siyosatini amalga oshirishi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali qo'llanilishida mahalliy idoralar, xokimliklarning mustaqil faoliyatlari muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimiga kirib kelar ekan, kerakli pedagogik shart-sharoitlar bo'lishi taqozo etiladi. Ko'pgina pedagogik olimlarning ilmiy izlanishlaridan ma'lumki, agar pedagogik jarayonda moddiy—texnik ta'minot, mazmun, metod, usul, o'qituvchi shaxsi o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda ta'sir etsagina, bu jarayon mukammal va samarali bo'lishi mumkin.

Gap zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktabning moddiy-texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'yadi.

Mashg'ulotlarni guruhlariga ajratish va individual o'tish uchun o'quvchilarning sinf va sinfdan tashkari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni (sinf xonasi, kutubxona, sport zali,

ustaxona va h.k.) ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi, kerakli materiallardan foydalana olish uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-omnabop jurnallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishi uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini engillashirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir.

Pedagogik jihatdan ta'minlanishning yana bir elementi, bu—o'qituvchi shaxsi, maktab pedagogik jamoasini shakllantirish, pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq zamonaviy maktablarda jahon andozalariga mos ravishda o'qitish ishlarini yaxshilash maqsadida pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash sifati, kasbga tayyorgarlik darajalarini muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda maktablarning moslashuv jarayonidan o'tishiga imkon berish ham pedagogik jihatdan ta'minlanishning elementlariga kiradi. Shu bilan birga bo'laning intellektual rivojlanganligi haqidagi axborotga ega bo'lish zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamonaviy ta'lim, ilg'or pedagogik texnologiya yangi ruh va mazmundagi, pedagogik tafakkur, taraqqiyparvar fikr, g'oyalar mahsulidir. Yangi fikr, g'oyalar o'z navbatida mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning chuqur tahlil qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy muhit ahvoli tahlil qilingan holda ta'limni insonparvarlashirish, yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish, yangicha ishlash yangi pedagogik tafakkurning asosi bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim natijasini kafolatlaydigan, ta'lim tizimining rivojlanib borishi, jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotiga xissa qo'shadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kirib kelishiga zamin yaratadi.

Bayon etilgan fikrlar shunday xulosalarga kelishimizga imkon beradi: ta'limning har bir bosqichida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda ja-

miyat munosabatlarini isloh qilish, ya'ni demokratiyalashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta'limni insonparvar-lashtirish-ega samarali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-konseptual asosga ega bo'lgandagina qo'llash muvofiqdir. qo'llanilayotgan texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi xayotiga engillik olib kelishi, o'quvchining hohlab, qiziqib o'qishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini kafolatlash kerak. Zamonaviy pedexnologiyalar qo'llanilishidan oldin adaptatsiyadan o'tishi, pedagogik shart-sharoitlar, moddiy-texnik baza hisobga olinishi lozim.

Agar pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ilmiy asos va kafolatlangan natija bo'lmas ekan, bunday texnologiyalar oqibati shaxs kamoloti, ta'lim tizimi va jamiyatning yuksalishiga to'g'ri bo'lmaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Xo'sh aytingchi, texnologiya nima degani? U haqdagi baxs-munozara va ilmiy izlanishlardan xabaringiz bormi?
2. Pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga qo'llashda turli xil ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun qanday ishlarni amalga oshirish zarur deb xisoblaysiz?
3. Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy asoslangan, kafolatlangan natijalari bormi?

2.3. Maxsus fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni

O'quv tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi ham bevosita o'qituvchidan ijodkorona faoliyatini, qolaversa, ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini egallashga jalb etadi. Madomiki, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lim tarbiyaga singdirish shart ekan, bu jarayon qayerga ketish mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. U shaksiz pedagogik korxonada, pedagogik ishlab chiqarishda ro'y beraadi.

Texnologiya bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qilgan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. Texnologiya tushunchasi regulativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir kuchiga ega bo'lib nazariyachi olimlar va o'qituvchilarni yangicha tafakkur, erkin ijod qilishga undaydi.

U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Samarador o'quv-bilim faoliyatining asoslarini topish.
 - Uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo'qotishga olib keldigan samarasiz) asosdan ko'ra intensiv (jadal) mumkin qadar ilmiy asosda kirish.
 - Talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish.
 - O'qitish davomida to'siqlarni tuzatishlar kirishini loyixalash metodiga tayangan holda yo'qotish.
 - Ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashirish va zaruriy harakatlarni algoritmash.
 - Texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish.
- Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida bu bosqichlarining har biri o'ziga xos amaliyotlardan iborat bo'ladi.

Amaliyot-o'qituvchining sinfda(auditoriya) mavzu bo'yicha o'quv unsurlarini tushuntirish maqsadida bajaragan ishlarining yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining ushbu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi.

Amaliyot texnologiya asosini tashkil etib, ta'lim maqsadini rejalashtirishda va amalga oshirishda e'tiborga olinadigan asosiy unsur hisoblanadi.

Biror bir o'quv unsurini tushuntirish uchun o'qituvchi samarali ta'lim vositalari materiallaridan foydalanish davomida u yoki bu algoritmik harakatni maqsadga mos holda aniq bajardi.

Texnik nazorat-o'qituvchi faoliyatiga tegishli bo'lib, texnologiyada ishtirok etayotgan vositalarning texnik holatini aniqlash va baholashdir. Binobarin qo'llanilishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalarini mashg'ulot oldidan tayyorlash yoki ishlatish jarayonida o'zgaradigan xususiyatlarini belgilab olish ta'lim jarayonining bir maromda, uzluksiz davom etilishini, vaqtdan samarali foydalanishni kafolatlaydi.

Vaqt o'tishi bilan u yoki bu texnik vosita ko'rsatkichlari o'zgarishi, pasportida ko'rsatilgan maqdordan farqlanishi mumkin. Shu boisdan **dopusk** tushunchasi texnologiyada qo'llaniladi.

Dopusk (o'tlash farqi)-eng katta va eng kichik chekli o'lchamlar orasidagi farq-o'lovdir, didaktik jarayondir. Foydalanayotgan har bir texnik vosita uchun dopusk maydoni-ishlatish chegarasi mavjud bo'ladi. Agar shu chegara buzilsa pedagogik texnologiya sifatida putur etadi yoki ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Demak o'qitishning texnik vositasini yarqoli xolga keltirish choralari ko'riladi. Dopusk tushunchasiga shuningdek reyting tizimida ham duch kelishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki «sharik»lari qatori o'z xususiy sohasiga metodlari va vositalariga ega ma'lum «material» bilan ish ko'radi va u inson ongi tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida boshqa texnologiyalardan ajralib turadi.

Uning o'ziga xos jihati-tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Texnologik yondoshuv asosida o'quvchilarning o'quv-bilim faoliyatini qanday tashkil etish kerak? Pedagogik texnologiya «sinf dars» tizimini qonuniyatlari asosida joriy qilinadimi yoki uni inkor etadimi? kabi savollarga javob beraylik. Kichik guruhlarda ishlatishni tashkil etayotgan o'qituvchi oldida birinchi galda guruh tarkibi masalasi turadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, guruh tarkibining maqbul somi-5 kishidan iborat bo'lishi e'tirof etildi. Guruhni saralashda quyidagi holatlar e'tiborga olinishi lozim: **Birinchi o'rinda** turli predmet bo'yicha guruh tuzilishi mumkinligi hisobga olinishi zarur, ammo bir predmet chegarasiga ham guruh tarkibini turg'un saqlash tavsiya etilmaydi. U alohida o'quvchilarning harakatlanishini hisobga olgan holda doimo rostanlab turilishi lozim. O'quv guruhining yaxlitligida o'quvchilarning o'zaro munosabatlari ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

O'quv jarayonini kichik guruhlarda tashkil etish darsning barcha bosqichlarida yangi materiallarni bayon qilishda o'tilganlarni mustaxkamlashda, mashq bajarishda qo'l kelishi ta'kidlanishi: kichik guruhlarda ishlash texnologiyasini darsning barcha bosqichlarida qo'llash mumkin degan fikrni o'quv predmetlariga ham ko'chirish mumkin. Biroq bu yerda gumanitar predmetlartarix davlat va huquq asoslari, adabiyot, ba'zi hollarda geografya va biologiya fanlari yangi o'quv materialining katta qismini o'rganish uchun kichik guruhlarning tashkil etilishiga imkoniyatlar ochib beradi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha kichik guruhlarda ishlash, kichik yoshdagi bolalarni, yuqori sinf o'quvchilarini o'qitishda ham bir hil darajada samarali bo'ladi. Frontal ishlash sharoitida o'quv materiallari mazmuni va uzatish usullari har bir o'qituvchining individual xususiyatlariga bog'liq hamda variantlanmaydi. Bu esa o'quvchiga o'z xususiy fikrini bildirishga va rivojlantirishga, o'z nuqtai nazarini asoslashga imkon bermaydi. O'quv axborotlarini o'zlashtirish samarador-

ligining muhim sharti bu jarayonga bo'lgan o'quvchidagi imkoniyatni, misol uchun, o'z tengqurlari bilan muxokamaga kiritish yoki bu savol bo'yicha mavqini ximoyalash va boshqa holatlar. Bunday imkoniyatlarni frontal shakl ham, individual shakl ham bera olmaydi. Buning uchun birmuncha qulay kichik guruhda ishlashdir. Bunda kichik guruhlarda o'zlashtirish darajalarining bir hil emasligining sabablarini topib o'qituvchi o'z xususiy pedagogik faoliyatini tuzatadi. Aynan shuning uchun o'quv jarayonini har bir o'quvchini o'qitishning alohida bosqichlarida nimalariga erishganini doimo hisobga olish bilan amalga oshiriladi. Kichik guruhlarda ishlashning tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Eng asosiy o'qishga qiziqish keskin oshadi, ijodiy munosabatlar shakllanadi. O'quvchilarning javoblaridan ma'lum bo'lishicha biror-bir o'quvchi doskada topshiriqni bajarayotgan bo'lsa, qolganlarning uchdan ikki qismi begona ishlar bilan yoki o'zaro gaplashish bilan band bo'lar ekan. **Ikkinchi o'rinda** o'qituvchining tushuntirishi, **uchinchi o'rinda** frontal topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar ko'proq beparvolikka yo'l qo'yishar ekan. Kichik guruhlarda ishlash paytida esa bor yo'g'i 2,1% o'quvchilarning fikri chalg'ishi kuzatiladi.

Umuman olganda pedagogik texnologiyalar o'quv ta'lim tizimida uzluksiz jarayon bo'lib, murakkab tizim hisoblanadi. Endi bu yirik yo'nalishga maxsus fanlarni qo'shib yangicha yondoshish bundan ham murakkab hisoblanadi. Umuman sifat-bu ob'ektning sifat belgisini ifodolovchi xossalalar, alomatlar majmui. Sifat ob'ektlarining kishilar ehtiyoj va talablarini qondirishni, uning maqsadga va qo'yiladigan talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya-bu oldindan loyihalashtirilgan o'quv tarbiya jarayonini muntazam va tadrijiy tarzda amalga oshirilishini ta'minlovchi texnologik tartiblar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya-bu faqat ta'limda texnik vositalardan foydalanishgina emas, balki, o'quv tarbiya jarayonini mazmundor texnikaviy amalga oshirishdir. Xususan konstruk-

tsiyalash va usullar hamda materiallarni qo'llash vositasida ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil etish yo'li bilan ta'lim jarayonini optimallashtirish tamoyillarini aniqlash va usullarini ishlab chiqish ahamiyatidir.

Pedagogik texnologiyalarni moddiylashtirish (darsliklar, ta'lim metodikasi, o'qituvchi, pedagog o'qituvchi faoliyati)-shaxsni belgilangan sifatlarda shakllantirishga maqsadli va oldindan ko'zlangan pedagogik ta'sirni yaratish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlarning tashkillostirilgan majmui. Uning tuzilishini quyidagi invariant usullar belgilaydi: o'quvchi; ta'lim tarbiyaning maqsadi, ta'lim va tarbiyaning mazmuni; tarbiya va o'qitish jarayonlari; o'qituvchilar pedagogik faoliyatini tashkillostirish shakllaridan iborat. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik eksperimentga alohida e'tibor berish kerak.

Tadqiqotchi maxsus yaratilgan yoki nazorat qilyotgan sharoitlarda o'quv yoki nazorat qilyotgan sharoitlarda o'quv yoki tarbiya ishlari sohasidagi **eksperiment**, **ta'lim usullari**, **vositalari va ularning natijalari** o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash pedagogik omillar o'rtasidagi sabab, oqibat munosabati haqidagi yangi bilimlarni olishga imkon beruvchi pedagogik tadqiqot usullarining majmuidir.

Nazoratdagi va eksperiment guruhlarni qiyoslash o'rganilayotgan ob'ekt yoki tizimga xos tegishli o'zgarishlarni qayd etish asosida ko'riladi.

Yangi pedagogikada modellashtirish ham maxsus fanlarni o'qitish va pedagogik texnologiya o'rtasida bog'liqlik vazifasini bajaruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Maxsus o'xshash modellar yaratish yo'li bilan amalda mavjud pedagogika tizimini moddiy yoki fikran tiklash, bunda mazkur tizimni tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tamoyillari namoyon bo'ldi.

Modellashtirish yordamida tizimning kam ahamiyatli xossalardan chetlatish mumkin, lekin har qanday model shun-

day pedagogik xodisalar toifasini ma'lum darajada soddalashtirishni nazarda tutadiki, u narsani idroklash sifatida ko'rinadi va ob'ektni ayman o'xshash barcha tomonidan uning takrori bo'lish mumkin emas. Pedagogik faoliyat o'quv programmasi yoki bir qator boshqa programmlar, shuningdek ta'limning boshqa vazifalari va uning ijimoiy maqsadlarida ko'zda tutilgan natijalarga erishish uchun ta'lim muassasalarida maxsus tayyorlangan bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat pedagogning vakolatligi, pedagog faoliyatining samaralligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi; bilim darajasi va u boshqalarni o'qitmogchi bo'lganini tushunishi; o'qitish texnologiyasini egallaganlik darajasi; shaxsni o'qitish tarbiyalash va rivojlantirish bilan bog'lik vazifalarni bir vaqtda bajarishga erishish qobiliyati. Maxsus fanlarni o'qitishda har doim zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonunlari hisobga olingan holda ta'lim-tarbiya ishlari olib borilishi shart, ammo maxsus fan bo'lgani uchun maxsus yo'nalishlar ishlab chiqish kerak. Masalan, Arxeologiya o'z ilmiy yo'nalishiga ega, unga alohida tizim kerak. Etnografiyaga alohida usul kerak. Bular shunday tizimlash-tirilishi kerakki, natijani oldindan bilish shunga qarab xulosalar va yana yangiliklar kiritishga harakat qilishga imkon tug'lsin.

Bunda ***birinchi navbada*** pedagogikaning klassik qonuniyat-lariga bo'ysunib ish boshlash. ***Ikkinchidan*** zamonaviy pedagogika asoslaridan umumli foydalanish. ***Uchinchidan*** aynan maxsus faning qaysi ilmiy yo'nalishda bo'lsa o'shani hisobga olish (masalan: etnografiya bo'lsa, uning eng muhim tomonlari asoslarini hisobga olish). ***To'rtinchidan***, pedagogning o'z uslubi, shaxsiy pedagogik qobiliyatini ishga solish zarurdir.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda texnologiya tushunchasi o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'z ichiga olgan pedagogik faoliyat sifatida nimalardan xabardor qiladi?
2. Texnologik yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarning bilim faoliyatini qanday tashkil etsa bo'ladi?
3. Yangi pedagogik texnologiyalarni moddiy-lashtirish deganda nimani tushunasiz?

III BOB. YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA TAMOYILLARI

3.1. Maxsus fanlarni yangi metodik va pedagogik texnologiyalar asosida o'rganilishi

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklarini kafolotlovchi, jamiyatni ma'naviy yangilaydigan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iktisodiyotini shakllantiradigan va uni jahon hamjamiyati darajasiga ko'tarib, uzviylikni ta'minlaydigan ochiq demokratik huquqiy davlat qurmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2016 yil 8-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqlarida "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqni-saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-Kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi"-degan edi.¹

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkin ki ta'lim-tarbiya jarayoniga davlatimiz rahbariyati katta e'tibor qaratadi. Bir qator qonunlar qabul qilindi. Ta'lim to'g'risidagi va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ham yuksak ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u ana-riy ta'lim metodlaridan nimasi bilan farq qiladi?

Pedagogik texnologiyaga atalgan turlicha ta'riflar mavjud. Ammo «pedagogik texnologiya» haqida ta'riflardan e'tiborga loyiqrog'i YUNESKO ta'rifidir.

«Pedagogik texnologiya-bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samarador-

lashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamada shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir».

Aslini olganda pedagogik texnologiya-bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (inovatsiya) yondoshuvdir. U pedagogika-dagi ijtimoiy muxandislik tafakkurining ifodalanshidir.

Dastlab 70-yillar boshlarida rivojlangan mamlakatlar AQSh, Yaponiyada pedagogik texnologiya masalalari bo'yicha jurnallar chiqarila boshlangan, keyinchalik bu muammo ustida ixtisoslashgan muassasalar ish boshlagan.

1996 yilda Misr universitetida YUNESKO homiyligida pedagogik texnologiya bo'yicha xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Ko'pgina mamlakatlar o'qitishda texnologik yondoshuvdan foydalanib, o'quvchilar o'zlashtirishni oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha sinovtajriba markazida o'qiyotgan 50 ming boladan 75 % an'naviy o'qitishda faqat eng yaxshi o'quvchilar erishadigan natijalarni qo'lga kiritishgan. Bir qator boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalar o'qitishning bu tizimini qo'llash o'rta o'quvchiga an'naviy o'qitishda 80-85 % o'quvchilar erishadigan natijadan yuqoriroq natijaga erish imkonini berishni ko'rsatdi. Pedagogik texnologiyani o'zlashtirish Singapur, Koreya va Yaponiyaga 9, 13 yoshlik va bitiruvchi sinf o'quvchilarni o'rtasida matematika bo'yicha 3 ta yuqori o'rinni egallash imkonini berdi. Ta'limning samaradorligini oshirishga texnologik yondoshuv AQShda o'tiz yillar muqaddam saqlangan edi.

Pedagogik texnologiya (bu iboraning birlamchi tushunchasida) **bixelozizm** g'oyalariga asoslanadi. Bu yo'nalishning psixologiyadagi eng muhim koidasi **organizmning** ko'rsatkichi (stimulyatsiya) bilan unga javobi o'rtasidagi aloqani bir ma'noligining so'z-siz tan olinishidir. Bu ta'lim jarayonini tajriba-sinov tarzida o'rganishga ham bir xilda daxldordir.

¹ SH.M. Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T. "O'zbekiston", 2019 yil, 1-jild, 16-bet.

Amerika pedagogikasi bixevloristik rag'batlash va quvvatlash nazariyasini qabul qilgan. U ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma, fikrlash tarzi, baholash, xulq kabi hatii harakatlar majmuasini namoyish etishni oldingi qatorga olib chiqdi. Masalan:

- matndagi ataylab yo'l qo'yilgan xatoni o'qib chiqib, xech bo'lmaganda 90% aniqlikda topish;

- o'quvchilar uch xonalik 10 ta son ustida bexato amallar bajarishda namoyish etadilar;

- «Gamlet»ni o'qib chiqib, uning qisqa mazmunini yozma ravishda ifoda qiladilar;

- o'quvchi hayvonlarning atrof muxitiga qanday moslasha borishini tasvirlab beradi;

- kutubxonada mustaqil ishlab o'quvchi o'z guruhida ma'lum mavzu bo'yicha ma'ruza qila oladi;

- qurbaganing ichki a'zolarini jarroxlik yo'li bilan aniqlaydi.

Ma'lumki pedagogikada talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: *muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodolovchi o'yinlar, rollar bajarish, mavzuviy o'qitish* va hokazo¹. Ammo ular oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi deb bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogning izlanishini ko'zda tutish, yuksak kasbiy mahoratini, ijodiy yondoshuv va ko'p vaqtini sarflashni talab qilishda bo'lsa kerak. Endi tubdan farq qiluvcchi ta'lim turlarini ko'rib chiqamiz: *og'zaki-ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy*.

1) Og'zaki-ko'rgazmali (illyustrativ) yondoshuv. U an'anaviy bo'lib va asosan o'qituvchining axborot-berish, talabalarning bilimini qabul qilish, to'plash va xotirasida saqlash bilan belgilanadi. Shu bilan birga *bilish* tushunchasining asl mohiyati xotirada saqlanuvchi axborot sifatida qaratiladi. Bunday bilimlar, ularni qo'llay olish ko'nikmalari orqali tekshirilib ko'riladi (imtihonlarda) ya'ni xech qanday qo'llanalarsiz, xotiradagi bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri savollarga javoban ifoda etish. Bu tizimdagi bilimlar esda saqlab qolish natijasi, ko'pincha rasmiy

ma'lumotdir. Ular xotirada tubdan yuzaga keltiriladi, qayta esga olish darajasidagi bilim o'zoq vaqt xotirada saklamaydi. Shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi-zaruriy axborotni ma'lum qilish va uni xotirada mustaxkamlash ustida ishlashdir. Bunday o'quv jarayonida o'quv predmeti savollar miqdori, va'z, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar oraliqidagi soatlar taqsimoti, dars o'tish joyi qabiy belgilab olinadi.

2) Pedagogik texnologiya. I.P.Podlasiyning ta'kidlashicha: texnologiya yaratilguncha shaxsiy mahorat xukumonlik qiladi. Ma'lumki, maxsuldor ta'lim o'quvchilarni yod olingan qoidalar asosida, bir hil vaziyatdagi namuna bo'yicha hatii-harakatlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

«...Muqaddam qo'llanilgan va o'qituvchi uchun ishlab chiqilgan darsma-dars ishlama o'rniqa pedagogik texnologiyada o'quvchining o'quv o'zlashtirish jarayonining tarkibi va mazmunini aniqlab beruvchi o'quv jarayonining loyihasi sifatida ta'kid etiladi» deb yozgan V.P.Bespal'ko.

Pedagogik texnologiya doirasida maxsuldor darajadagi ta'lim aniq qayd etilgan va qismlari tavsiflanib, kutilgan natijalari bilan asl holiga qaytarish lozim bo'lgan konveyrtli jarayon sifatida ko'riladi¹.

Albatta pedagogik texnologiyada o'quv ashyolari aniq qayd etilgan, o'quv maqsadiga mos holda ishlab chiqilgan, o'quv mavzularini tavsiya etishning muqobil yo'llarini ko'zda tutadi, har bir qismi test va qo'shimcha tuzatishlar kiritish bilan hamohang bo'ladi. O'quv ishlari yuqori natijalarga erishishga qaratilgan. Bunday yo'naltirilganlik mashg'ul bo'lish, musobaqalashish va o'zaro yordamlashish tushunchalaridan xalos emas. Shu bilan birga u butun ta'lim jarayoniga maxsuldor ko'rinish beradi. Shuni ta'kidlash joizki, ma'lum sharoitlarda bir o'quv mavzusini maxsuldor usulda ikkinchisini izlanuvchan-tadqiqot usulda peda-

¹ Farberman B. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» T. 2000 y. 7-bet

gogik texnologiyaga o'tishning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

3) *Izlanuvchan-yondoshuv*. Bunday maqsad o'quvchilarda muammoni xal etish, yangi, oxirigacha tugallanmagan tajribani mustaqil o'zlashtirish. Ta'sir etishning yangi yo'llarini yaratish qobiliyatlarini, shaxsiy idrokni rivojlantirishdan iboratdir. Izlanuvchan ta'lim andozasining ta'lim mazmuni tabiat va jamiyat bilan o'zaro ta'siri natijasida shaxs tadqiqotchilik va jadal ijodiy harakterli faoliyat yo'lga boshlaydi. Shu bilan birga pedagogik ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatini boshqarishda demokratik, rag'batlantiruvchi yo'l tutadi, ularning shaxsiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, hamkorlikda ishlashga da'vat etadi, o'quvchilar o'quv faoliyatining operativ texnik jihatlarini o'zlashtirishga qadar uning ahamiyati va rag'batlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Avval ta'kidlaganidek, hozirga qadar o'qitishda izlanuvchan yondoshuvni o'z ichiga oluvchi pedagogik texnologiya ko'rinishlari ishlab chiqilgan.

O'quv jarayonining texnologik shakl modeli va uning amaliy tadbiri yangilik xususiyatiga ega va an'anaviy ta'limni qayta shakllantiradi. Ta'kidlash lozimki, pedagogikada ham texnologik, ham izlanuvchan yondoshuvlar zarur. Har birining qo'llaniladigan, o'rni bor va ularning maqbul ravishda birga qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston pedagoglari pedagogik texnologiya bilan etarlicha tanish emaslar. Albatta, bu holatni tuzatishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Texnologik yondoshuv doirasida yaratilgan didaktik loyihalash usullariga bo'lgan munosabatingiz o'quv jarayonini samarali va shu bilan birga o'quv jarayonini ijodiy rejalashtirish, yangi fikrlar bilan boyitish, ularning natijalarini baholashga yordam beradi. Darsliklar yaratuvchi mualliflar ham pedagogik texnologiya asosida o'qitishning xususiyatlarini hisobga olishlari juda muhimdir.

Tarbiyalash texnologiyasi-nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash

texnologiyasi pedagogikada yangi yo'nalish hisoblangan. «Ijtimoiy pedagogika» bilan birgalikda fuqarolik g'ururi, vatanparvarlik, ijtimoiy faollik, mas'uliyat xissi va boshqa shaxsiy sifatlarni shakllantirishda jiddiy ta'sir qilmogda. Ta'kidlash joizki, tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarining g'oyasi, mazmuni va tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi har tomonlama (kompleks) yondoshuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi.

1. Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalishta bo'yicha ta'sir etiladi.

- tafakkuriga, sezgilarga va xulqiga.

2. Tarbiya (tashki pedagogik ta'sir) va o'z o'zini tarbiyaning o'zviyiligi tufayli ijobiy natijaga erishiladi.

3. Tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha vosita va tadbirlarning muvofiqlashtirilishi: ijtimoiy institutlar, birlashmalar, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san'at, oila, maktab, huquq-tarbiya idoralari, jamoalar har tomonlama yondoshuvning zaruriy shartidir.

4. SHaxsning ma'lum sifatlari amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va qo'llash bobida quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- Oliy o'quv yurtining ilmiy kengashlarida pedagogik texnologiyani qo'llashga qaratilgan tajribalar rejasini muvokama qilib, uni amalga oshirish;

- Professor o'qituvchilarni o'quv adabiyotlari va uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash;

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish» mavzusida kirish ma'ruzasini professor-o'qituvchilar uchun o'tkazish;

- Oliy o'quv yurti rahbarlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlarini maqsadli «pedagogik texnologiyalar»ga bag'ishlangan 8-12 soatlik kurslarda o'qitish;
- Etakchi uslubiyatchilardan (har bir kafedradan bitadani) 36 soatlik dastur asosida maslahatchi tayyorlash;
- Oliy o'quv yurtlari «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» bo'yicha ilmiy-amaliy seminar o'tkazish;
- Maslahatchi pedagoglar, tashabbuskorlar tomonidan pedagogik texnologiya asosida o'tkaziladigan darslarni metodik ta'minotini ishlab chiqilishi;
- Tajribalar natijasini muxokama qilish va istiqbol vazifalarni aniqlash;

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar 1997 yilgi «Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan keyin sezilarli darajadagi o'zgarishlarga olib keldi. Bu o'rinda shuni aytib o'tish ham joizdirki, yangi tahrirdagi qonunda ta'limni isloh qilish, zamonaviy kadrlar, pedagogik kadrlarni etishtirib chiqarish masalalari muhim o'rin olgan va ta'kidlangan. O'z navbatida o'qitishning zamonaviy turlariga to'xtalib, axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish va ta'lim berishda eski tuzum iskanjasiidan chiqish, ayniqsa yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uni yanada rivojlantirish masalalari ko'tarilgan.

Ta'lim berishda yangi pedagogik texnologiyalarining samarasi albatta oldingi an'anaviy o'qitishdan ko'ra yuqori natijani beradi. Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlarida o'qitish yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda.

Chunki bu usulning samarasi katta bo'lib, bunda o'quvchi yoki talabning o'zi darsni o'tkazadi, muammoni echadi, o'qituvchi uni nazorat qilib turadi. Turli yo'llar bilan erkin muhokama qilingan holda mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik mala-

kalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatining texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davr ta'lim texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushurish va aniqlash-tirishni talab qiladi. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarining ilmiy asoslari ularning tasnifi, mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining-texnologiyalashtirish muammolarini ta'minlash masalasi turibdi. Pedagogik texnologiyaning mezonidan biri boshqaruvga asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash undagi o'qitish metodlari va vositalarini o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarining samaradorlik mezonini ta'lim jarayonining aniq sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zdat tutadi.

Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurklarida qo'llash imkoniyati tushuntiriladi. Shunday qilib oliy maktabga mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini murakkab va doimiy harakatlardagi tizimini tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi tafakkurining kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarini amalga oshirish bilan bog'langan. Bo'lg'usi pedagogning texnologik tayyorgarligi oliy o'quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o'quv yurti ta'lim jarayonida foydalaniladigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalari: muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

Muammoli o'qitish texnologiyasi. Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitilish texnologiyasidir. Hozirgi, oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi-bu muammoli o'qitishdir.

Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishni reproduktiv shakllariga nisbatan tobora oshib boradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek o'rganilgan mavzular xususiyatlari-dan kelib chiqib bunday vaziyatlarni yaratilishining maxsus usullarini ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'llidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashgaqqat holati emas. U bilishi maqsadlari maxsus taqazo qilingan aqliy tafakkurlik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va engil yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashgaqqat muammoli vaziyat bilan bog'lik bo'lavermasligining ta'kidlash o'rini bo'ladi. Engil bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashgaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashgaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashgaqqatlaridan farq qilib unda talaba mashgaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning avval va ayni vaqtda ma'sul bo'lgan vazifa masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talabaga tanish bo'lgan ma'lumotlar va engil faktlar, xodisalar (qaysiki, ularni turishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilishlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir. *Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilardir:*

- Talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- Vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilim mashgaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning *birinchi sharti* o'quv axborotlarining takomillashib borish tizimidir.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning *ikkinchi shartida* muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni echish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning *uchinchi sharti* ta'lim oluvchining sub'ektiv mavqei, ularni bilish maqsadlarini anglab etish va qaror qabul qilish masalasini xal qilish va natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ixtiyorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llaniladigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Delfin metodi. Guruh a'zolaridan har bir muqobilga muayyan izchillikda baho berish talab qilinadi. Tadbirni o'tkazish tartibi quyidagicha. Masalan, statistik metodlar orqali 5 ta kamchilik (defekt) sabablari aniqlangan.

qaysi biri muhim kamchilik? Muxokama ishtirokchilari muammoli avvalo muhimlik darajasiga ko'ra saralab chiqadilar. O'zlari uchun muhim hisoblangan muqobilni birinchi o'ringa, ikkinchi darajalarini beshinchi o'ringa qo'yadilar. Shundan so'ng har bir muqobilga har bir ishtirokchi kamchiliklarning sabablariga to'xtalgan holda 10 ballik tizim asosida baho qo'yib chiqadi.

Bunda eng yuqori ball sifatida 1 va eng past 10 ball etib belgilanadi. Uchinchi bosqichda muqobillarning har biri o'zaro ko'paytiriladi va hosila raqam topiladi. Eng kam raqam tezlikda va birinchi navbatda bartaraf qilinadigan sababni bildiradi. Hissoblashni osonlashtirish uchun maxsus jadval yasalishi mumkin.

Mugobillarni baholash.

M.K		Mugobillar													
		1			2			3			4			5	
	T	B	X	T	B	X	T	B	X	T	B	X	T	B	X
A	4	7	28	3	4	12	1	1	1	2	3	6	5	10	50
B	5	2	10	3	6	18	2	7	14	1	10	10	4	4	16
V	2	8	16	1	1	1	4	3	12	3	4	12	5	2	10
G	5	10	50	4	5	20	3	4	12	2	3	6			
Hosila	10			51			39			34			77		
	4														

Izoh: T-toifa bahosi (1dan 5 gacha)

B - ball bo'yicha baho (1dan 10 gacha)

X - hosila (ya'ni TqB)

MK - muxokama qatnashchilari.

Fikrlar hujumi (mozgovaya atka). Bu metoddan maqsad mumkin qadar katta maqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir hil fikrlash inersiyasidan xoli qilish ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir. Bu metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi baxs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mulqoq taqiqlash, har qanday lugma va xazil mutoibani rag'batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi-mashg'ulot rahbariga bog'liq. **Fikrlar hujumi** ishtirokchilarning maqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi bir soatgacha.

«**Fikrlarning muddatli hujumi**». Destruktiv berilgan baho bilan dialog metodi. Bu metod E.A.Aleksandrov tomonidan taklif qilingan va G.Yu.Bush tomonidan o'zgartirilib yo'lga qo'yildi. Dialogning mohiyati shundaki, jamoa bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalar qo'yiladi.

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1-bosqich. Maqdor va texnologik mulqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich. Vazifa, muammolan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

3-bosqich. To'g'ridan-to'g'ri «Fikrlar hujumi» qoidasiga asosan har bir guruhda g'oyalar ishlab chiqish;

4-bosqich. g'oyalarni tartibga solish va tasniflash;

5-bosqich. g'oyalarni destruktivlash; ya'ni amalga oshirish imkoniyatiga qarab baholash;

6-bosqich. Avvalgi bosqichlarda bildirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish.

Ishirokchilar: 1) g'oyalar ishlab chiquvchi; 2) Muammoli vaziyatni tahlil qilish va g'oyalarni baholovchi; 3) Zid g'oyalarni ishlab chikuvchi guruhlariga bulinadigan bo'lsa, samarali natijaga erishish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligini tushuntirib bering?
2. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'lim metodlaridan qanday farq qiladi?
3. Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi qanday majburiy talablarga rioya qiladi?
4. Maxsus fanlarni o'qitishda muammoli o'qitish texnologiyasi va muammoli vaziyatning belgilari nimalardan iborat?

3.2. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari va elementlari

Ilg'or ijodkor pedagoglar an'anaviy ta'lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, o'quvchining aqliy mehnatini

amalgaga oshirish usullarini izlashlari natijasida o'ziga xos ta'lim usuli vositalarini yaratilarki, buning oqibatida yangigacha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi ana shu izlanishlar zamarida yangi pedagogik texnologiyaga asos solgan pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi. qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo'naltish berish ta'limni amalgaga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligini ta'minlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi. Ta'limga testlarning olib kiritilishi, diagnostik tahlilning olib kiritilishi, bilimlarni ko'p balli baholash tizimida aniqlashga o'tish, bob, bo'lim mazmunini yaxlit holda o'zlashtirishni muddellashtrish, tizimga solingan nazorat turlarida, o'quvchilarning ishlashi va nixoyat noan'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi biz bu paytgacha o'rganib qolgan an'anaviy ta'lim o'rniiga vujudga kelgan yangi pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangigacha fikrlash tizimidagi ta'limga o'tishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda o'quv mehnati ham boshqa mehnat turlari kabi o'ziga xos bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsda shakllanishini talab qiladi, buning uchun esa iroda, diqqat, kuzatuvchanlik, fikr yuritish, xayol kabi shaxsiy sifatlarining tarbiyalanganligi zarur.

Biz ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni to'rtovsiz tahlil qilish hamda qo'yiladigan metodlarning nechog'lik mosligiga to'g'ri baho berish tamoyillarni belgilashimiz va ta'limning olinishi zarur bo'lgan natijasini ifodalay olishimizga ko'rsatadigan yo'l hisoblanadi. Mana shu tamoyillarga tayanib ta'lim jarayoni samarali bo'lishini ta'minlaydigan texnologiya yangi pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Ta'limni amalgaga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- Ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi usilvorligini ta'minlash;
- Ta'lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalgaga oshirish;

- Ta'lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- Ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Hozirgi vaqtda yangi pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- Muntazam tahlil qilib borish;
- Loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash;
- Metodlarning maqsadga muvofiqligini aniqlay bilish (ta'lim metodlari);
- Olinishi zarur bo'lgan natijasini oldindan taxmin qilish (maqsadlarning amalgaga oshishiga erishish);
- Ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash.

Yangi pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayoniga tadbiq qilinishi, ta'lim jarayoniga bir qator yangi elementlarni olib kiritishni taqozo qiladi. Bular:

- Diagnostika;
- O'quv birliklarini (mezonlarini) belgilash;
- Diagnostik tahlil;
- Tuzatish kiritish (korreksiya);
- qayta to'latish (kentiklik yo'qotish);
- Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish;
- Reying.

Yuqoridagi tamoyillar va elementlarga asoslangan holda va yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limga joriy qilish, ayniqsa xorijiy hamda hamdo'stlik davlatlaridagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'zimizning yangi pedagogik texnologiya tizimini vujudga keltirish borasida amalgaga oshirilayotgan ishlarni umumlashtirish va amalda qo'llash uchun quyidagilarni amalgaga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonining ishtirokchilari-pedagog va o'quvchi o'rtasida o'quv mehnatini rejasini ishlab chiqish; ya'ni pedagog bo'lim yoki bobni o'rganish rejasini tuzar ekan, ushbu rejada o'quvchi faoliyati o'z aksini topmog'i lozim.

2. Fanning ichki bog'lanishi yoki fanlararo bog'lanish imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish; Ma'lumki, har bir o'rganiladigan kichik yoki yirik o'quv birliklari oldin o'rganilganlariga tayanadi. Demak o'quvchini yangi bo'lim, bobni o'rganishga olib kirishda undagi mavjud bilimlarga tayanish, agar mavjud bilimlar yangi bobni, bo'limni o'rganishga etarli bo'lmasa "oraliq tayyorgarlik" olib borish va shundan keyingina masa "oraliq tayyorgarlik" olib borish va shundan keyingina o'quvchini bilimlarini o'rganishning navbatdagi bosqichiga olib kirish lozim. Bunday ishlash yangi pedagogik texnologiyaning asosiy elementlaridan biri DIAGNOZ (tashxis) hisoblanib o'quvchilarning yangi bilimlarini o'zlashtirish qanchalik darajada tayyor ekanliklarini aniqlashdan iborat.

3. O'quv birliklari (mezonlari)ni belgilash. O'quv birliklari o'quvchi tomonidan o'rganilishi lozim bo'lgan tushunchalar, ta'riflar, qoidalar, qonunlar, xodisalar, voqealardan iborat bo'lib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishning ta'minlanishi shu bob, yoki bo'limning o'zlashtirilishiga olib keladi. O'quvchi bob, bo'lim uchun ajratilgan soatlarda o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan o'quv birliklari aniqlaydi, u uchun ajratilgan vaqtni ham belgilaydi. O'quv birliklari o'zlashtirilishi (bitilishi) zarur bo'lgan mezonlar hisoblanib, o'quvchi bilimni baholashning chegaraviy qiymati bilan o'lganadi, ya'ni o'quvchi ushbu ko'rsatilgan mezonlarni bilsagina baholanadi. O'quvchi shu paytda guruhga nisbatan o'rtacha baho bilan ishlamaydi, balki aniq o'lganlarga asoslangan holda ish olib boradi. SHuning uchun ham o'quv birliklarini bilish o'quvchi uchun zarur topshiriqqa aylantiriladi.

O'quv rejasini tuzishda o'quvchi o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan o'quv birliklarini bo'limlar, boblar, semestrlar bo'yicha aniqlaydi va o'quvchilarga topshiriq sifatida bo'limni o'rganishdan oldin vazifa qilib beradi. Berilgan topshiriqlar o'zlashtirish reytingini aniqlashda nazorat topshiriqiga o'tkaziladi.

4. Diagnostik tahlil. Bilim, ko'nikma va malakadagi kamchilikni aniqlash, ularni to'ldirish va navbatdagi o'zlashtirish

bosqichiga kutarilish maqsadida diagnostikalashtirish amalga oshiriladi.

Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- O'quvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostikalashtirish bo'limlardagi etishmovchiliklarning oldini olish;

- Aniqlangan etishmovchiliklarini to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;

- Maxsus topshiriqlar bilan ishlash soatlarini belgilash.

Yakuniy diagnostik tahlil qilish.

Diagnostik ta'lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, uining asosiy elementlaridan hisoblanadi. O'zlashtirishdagi kamchiliklar sababini aniqlash, har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlash, rejaning borishida tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining kafolatlanganligi ta'minlanadi. Diagnostik tahlil nazorat turrlardan test so'rovida amalga oshiriladi. Test so'rovi natijalarini diagnostik tahlil qilish ikki muhim vazifani xal qiladi:

1. qaysi o'quvchi qaysi o'quv birliklarida qiyinaladi.

2. O'quvchi qaysi bilimlarini kuchaytirishi lozimligini aniqlaydi.

5. Tuzatish kiritish (korreksiya). Bo'lim, bobning o'zlashtirilish darajasining diagnostik tahlili natijasida 50%dan kam ko'rsatkich olinsa, o'quvchi ta'lim jarayonining borishiga tuzatish kiritishi lozim. Tuzatish kiritishda quyidagilar bajariladi:

- O'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzularni aniqlash. (diagnostik tahlil asosida)

- qayta o'rganilishi lozim bo'lgan mavzularni yangicha o'rgatish metodikasini ishlab chiqishi.

- O'quv rejasida tuzatish kiritish soatlarni belgilash.

6. qayta to'ldirish (nuqsonlarni yo'qotish), qayta tuzatish kiritish (korreksiya)dan maqsad, olingan bilimlardagi kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Kamchiliklarni bartaraf etish to'ldirish asosida amalga oshiriladi. qayta to'ldirish asosan amaliy-tadbiqiy mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. SHu maqsadda

o'qituvchi o'quvchilar o'zlashtirish darajasidagi "to'ldirishni" amalga oshirmoqi lozim.

Bunda o'qituvchi tanlayotgan o'quv vazifasining darajasini o'quvchilarda mavjud bo'lgan real bilimlarga moslashtirishi zarur.

7. Kutilishi lozim bo'lgan natijani olish. Bu element yangi pedagogik texnologiyaning markaziy g'oyasi hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya ta'lim jarayoni natijasida kafolati bo'lishini talab qalar ekan, jarayonning borishini ko'zda tutilgan maqsadda amalga oshirilishi va natijali bo'lishining maqsadli rejalashtirilishini o'qituvchi oldiga maqsad qilib qo'yadi. Jarayon borishi davomida shu jarayon tahlil qilib boriladi, tuzatishlar kiritiladi, qayta to'ldirishlar amalga oshiriladi va oldindan kutilish rejalashtirilgan natija olinishiga erishiladi.

Biz yangi pedagogik texnologiya deb ilgari surgan g'oyaning maqsadi ana shundadir.

Ta'limda texnologik yondashish variantlari

1. Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar ta'lim tizimi doirasida ta'lim jarayonini etarli samarali loyihalash ko'idasi ishlab chiqilmadi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga kafolati erishishda o'quv jarayon loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisi tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash-o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:


- Ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- Tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;

- O'quvchilarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;

- Bajarlidigan o'quv ishlari majmuasi;

- Natijani baholash.

Bundan ko'rinadiki, o'quv jarayoni "modulli" ko'rinishga kelib, turli mazmun bilan to'ldirilgan, umumiy tizimga mos holda ishlab chiqilgan bloklar, qismlardan iborat.



Tuzatishlar korreksiya

O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirishda pedagogdan yuksak malaka talab etadi, materiallar tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsultativ vazifalarni bajaradi.

Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;


- O'quv maqsadli shajarasi;

- O'quv maqsadlarni nazorat topshirliglariga aylantirish;

- Maqsadga erishish usullari;

- Erishilgan o'quv maqsadlarini baholash;

Bu tarkibiy qismlarning har biri ma'lum yo'nalishdagi pedagogik operatsiyalar tizimini tashkil etadi.




Tuzatishlar korreksiya (faqat xususiy o'quv maqsadlari uchun)

Maqsdar katalogini ishlab chiqish


2. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganligi o'quvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rganishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib o'quv jarayonini to'la qamrab olishi kerak.

Pedagog odatda o'z oldiga o'quvchilar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni ega-lab amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi.

Pedagog o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qan-day biladi? Pedagogik maqsadlarga erishgani, yoki erishmaganli-gini bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, pedagog o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan uslublari maqsadga mu-vofiqligiga yoki samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mum-kin. Odatda jamiyatdan buyurtmani umumiy ko'rinishda oladi. Fan bo'yicha berilgan o'quv dasturlarida berilgan maqsadlar ham juda oz ko'rinishda bo'ladi. Bundan chiqish uchun maq-sadlarni aniqlashirish borasida ma'lum bir tizimni tuzish mum-kin: jamiyatning umumiy talablaridan ta'lim tizimi vazifalariga ma'lum o'quv yurti, o'quv fani, uning tematik va alohida o'quv masalalariga.



Ta'limning interaktiv metodlari 4. «Kichik guruhlarda ishlash»



Maqsadi:

O'quvchi kichik guruhlarda ishlaganda, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rga-nishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Qo'llash usuli:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kerakli asos yaratiladi. O'quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.


3. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlarga 3-5 kishidan bo'linishlari kerak.

4. Aniq ko'rsatmalar beriladi.

5. qo'llab-quvvatlab va yo'naltirib turiladi.

6. Muxokama qilinadi.

«Aqliy hujum»



«Aqliy hujum» biror muammoni echishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Bu metod orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga urgatadi

«Aqliy hujum» metodini prinsipi juda soddadir:

- Siz bir guruh ishtirokchilarni to'playsiz, hamda ular oldiga biror muammoli vaziyatni echish bo'yicha o'z yechimlarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini suraysiz. Mazkur etapda ishtirokchilardan xech biri boshqa qatnashuvchilarni g'oyasi, fikrini muhokama qilishi yoki baholashi mumkin emas.

«Aqliy hujum» metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama qilinmaydi va baholammaydi.


2. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar, ular hatto bo'lmag'ur bo'lsa ham, hisobga olinadi.

3. qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa shuncha yaxshi.

4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

5. g'oya va fikrlarni bildirish uchun vaqt aniq belgilanadi.

«Munozara»



«Munozarani o'tkazish metodi»

1. Yetakchi, munozara temasini tanlaydi va qatnashuvchilarni taklif etadi.

2. Yetakchi qatnashuvchilarga muammo bo'yicha «Aqliy hujum» masalasini beradi va uni o'tkazish-tartibini belgilaydi.


3. Yetakchi «Aqliy hujum» vaqtida bildirilgan g'oya va fikrlarni yozib borish uchun kotib tayinlaydi. Bu etapda yetakchi guruh qatnashchilarini har bir a'zosi o'z fikrini bildirishga sharoit yaratib beradi.

4. Etakchi ikkinchi etapga o'tishdan avval qisqa tanaffus e'lon qiladi. Ikkinchi etapda «Aqliy hujum» qatnashchilari bildirgan fikr va g'oyalarni guruhlashitirib, ularni tahlil qilishga o'tiladi.

Tahlil orqali qo'yilgan vazifani eng maqbul yechimini topishga harakat qilinadi.

“Nafis arra”

Mazkur metod yordamida o'quvchilar o'rganiladigan material bo'yicha ma'lum bilimga mustaqil ega bo'lishi, jamoa bilan ishlash malakasini oshirishi, axborot almashish hamda jamoa bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.



Metodning etaplari

- guruhda o'rganiladigan material nomi doskaga yoziladi va qanday savollarga javob topilishi lozim ekanligi tushuntiriladi.

Guruh o'quvchilari 5-6 kichik guruhlariga (boshlang'ich guruh) bo'linadi va har bir guruh o'rganiladigan material bo'yicha alohida ma'lum mavzularni oladi. Har bir guruh o'rganiladigan mavzu bo'yicha, oldindan tayyorlangan, kerakli materiallarni jamlamasi bilan ta'minlanadi;

Boshlang'ich guruhlar 10-12 minut davomida taqdim qilingan materialni o'rganadi va muhokama qiladi. Natijada Siz o'ziga berilgan temani yaxshi biladigan 5-b guruh ekspertlariga ega bo'lasiz; keyingi etapda har bir guruhdagi qatnashchiga ma'lum tartib raqami beriladi va tartib raqamlari bir hil bo'lgan o'quvchilardan yangi (ekspertlar) guruhlari—tuziladi;

15-20 minut davomida yangi ekspertlar guruhini har bir a'zosi oldingi guruhga berilgan tema mazmunini tushuntirib beradi. Natijada umumiy mavzuni yaxlitligi bo'yicha o'zlash-tirish ta'minlanadi; ekspertlar guruhining har bir a'zosi olingan axborotni ma'lum bir vaziyatda qo'llay olishini ta'minlash uchun mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyat guruhlariga beriladi va har bir guruh ushbu muammoni to'g'ri yechimini topishi lozim;

- muammo har bir ekspert guruhida muxokamadan o'tgach guruhlarining sardorlari muammo bilan sinfni tanishtiradi va uning yechimini ko'rsatib beradi;

- dars oxirida o'quvchilar bilimini tekshirib ko'rish va baholash uchun o'rganilgan material bo'yicha ekspres test o'tkaziladi.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarini qo'yilishi o'zining ma'lum xususiyatlariga ega. Bu shundan iboratki, ta'lim maqsadlari o'quvchilar harakatida ifodalangan aniq ko'rinadigan va o'rganadigan natijalar orqali belgilanadi.

Ta'lim mazmuni odatga ko'ra asosan tematik yo'nalishga ega va unda o'qitishning aniq maqsadlarini ko'rish qiyin. O'qit-

tish vazifalarini taqqoslanadigan maqsadlarini yengillashtirish uchun, o'zlashtirgan o'quvchilarni malakasini ifodalovchi fe'llardan foydalanish mumkin: biladi, tushuntiradi, chiqaradi, ishlatadi, namoyish qiladi, ajratadi, topadi va hokazo. Fe'llarni umumiy yoki xususiy ko'rinishda ham ifodalash mumkin: o'rganish, aniqlash, tanishish, tushunish, belgilash, ajratish, to'plash, tuzish va hokazo.

SHunday qilib, maqsadlarni aniqroq tayinli qo'yishning asosiy yo'li - ma'lum natija bilan yakunlanadigan harakatlarni ifodalaydigan fe'llardan foydalanishdir.

Taqqoslanadigan ta'lim maqsadlarini (vazifalarini) shakllantirish quyidagi tizim bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak: tayinli o'quv mashg'ulotining umumiy maqsadi -> o'qitishning xususiy maqsadi -> taqqoslanadigan o'qitish maqsadi (vazifa).

Pedagog kadrlarga qo'yiladigan zamon talablari

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobat bardosh kadrlar tayyorlovchi, pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi, bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- ta'lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilati;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati;

Umumlashtirilgan model doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi. Malakaviy talablar pedagogning umumlashtirilgan modelidan kelib chiqadigan alohida yo'nalishlar bo'yicha, quyida differensiallangan tayyorgarlik yo'nalishlaridan bir nechta berilmokda.

Kasbiy tayyorgarlik (fanni chuqur bilish, kasbiy muvofiqlik, eruditsiya)

Pedagog:

- o'qitiladigan fan mansub bo'lgan tarmoq bilimlar sohasining

ning

- tarixi va rivojlanish istiqbollari;
- o'qitiladigan fanning o'quv jarayonidagi o'rni va roli haqida *tasavvurga ega bo'lishi*; - «Ta'lim to'g'risidagi qonun haqida»

haqida;

- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan maqsad va vazifalar haqida;

- o'z fani bo'yicha o'quv dasturini;

- o'z fani va tegishli tarmoqning zamonaviy ilmiy va amaliy

yutuqlarini;

- o'z fanining tushunchalari, atamalari va ta'riflari, qonuniyatlari, tamoyillari, usullari va uslublarini; -ilmiy-amaliy

ijodiyot metodologiyasini;

- fan bo'yicha tegishli mashg'ulotlar olib borishda dalillash va inkor qilish usullarini;

- ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fan bo'yicha sifati bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni; - muvofiq sohaning, malaka oshirish uchun kerak bo'lgan kasbiy axborotni bilishi va qo'llay olishi;

- o'qitiladigan fan bo'yicha bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- fanga ta'luqli turli ma'lumotlar (ma'ruza, dars, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar)ni malakali o'tkazish va uslubiy ta'minlash;

- o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini tashkiliy va uslubiy ta'minlash;

- o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtirish usullari («Kichik guruhlarda ishlash», «Aqliy hujum», ishbilarmonlik

uyinlari, dialog va boshqa yangi va shaklda ifodalash usullari)ni axborotli (taqatma material va shu kabilar) va uslubiy ta'minlash;

- o'quvchining fan o'yicha olgan bilimlari, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning ob'ektiv (mazmun bo'yicha) shakllarini ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

«Ilg'or pedagogik texnologiyalar»

Pedagog:

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning ilmiy-uslubiy asoslari;

• Ilg'or pedagogik texnologiyalarning tarixi;

• o'quv jarayoniga yondashish tamoyillari haqida *tasavvurga ega bo'lish*;

vuruga ega bo'lish;

• o'zlashishtirishning umumli va izlanuv pog'onalari uchun pedagogik texnologiyalarni;

• o'qitiladigan fanga taaluqli ilg'or pedagogik texnologiyalarni;

• o'quv jarayonining muvofiq vaziyatlarini o'rganishga doir tushuntiruv - ko'rgaznaviy, texnologik va izlanuv usullarini;

• o'qitishning faol usullarini bilishi va qo'llay olishi;

• o'qitishga texnologik va izlanuvchan yondashish usulini ishlab chiqish;

• uy vazifalarini maqsadli, diagnostik, kerakli xajmda berish, loyihalarning mantiqiy tuzilmasi, korreksiya;

• o'quv maqsadlari va vazifalarining tizimini ishlab chiqish;

• o'quv maqsadlari va vazifalari asosida test topshiriqlarini tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Axborotli texnologiya

Pedagog:

- axborotdan jarayon sifatida bilim olish va ijod qilish;

- fan, texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlar;

- axborotda jamiyatni rivojlantirish muammolari;

- sun'iy intellektning axborot tizimlari va bilim berish usullari;

- axborotlashning texnik vositalari va telekommunikatsiya vositalari;

- universal va muammoli-mo'ljali axborot texnologiyalarini amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida *tasavvurga ega bo'lish*;

ega bo'lish;

- o'qitiladigan fanga ta'luqli bo'lgan universal va muammoli-mo'ljali axborot texnologiyalarni;

li - mo'ljali axborot texnologiyalarni;

- tabimda multimediya texnologiyasini; axborotni modelashstirish asoslarini;

- o'qitish va nazorat qilining avtomatlashgan tizimini;

- o'quv materiallari haqida axborotli ma'lumot tizimini bilishi va qo'llay olishi;

bilishi va qo'llay olishi;

- o'qitiladigan fan bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish;

— global Internet kompyuter tarmog'idan foydalanish;

— o'quv jarayonida amaliy dastur paketlarini qo'llash;

— o'quv jarayonida elektron pochtdan foydalanish

bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

«Reyting nazorati o'quvchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash»

Pedagog:

- rivojlangan davlatlarda o'quvchilarning bilimlarini baholash va nazorat qilish tizimlari;

- o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini reyting nazorat qilishning maqsad va vazifalari haqida *tasavvurga ega bo'lish*;

vuruga ega bo'lish;

- Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishni reyting tizimi to'g'risidagi Nizomini;

- o'quvchilar bilimlari ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimini tashkil etish va o'quv-uslubiy ta'minlashni rejalashtirishga oid uslubiy ko'rsatmalarni;

"o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash uchun og'zaki so'rov, yozma usullarni va testlashni *bilish va qo'llay olish*."

- o'qiyotgan fan bo'yicha o'quvchilarning bilimlari ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimini rejalashtirish, tashkil etish va o'quv-uslubiy ta'minlash;

- o'quvchilarning bilimlarini turli nazorat ishlari (og'zaki, so'rov, yozma, testlash) usullarida baholash;

- o'qitilayotgan faning bo'limlari bo'yicha va yoppasiga yozma nazorat qilish ishlari ishlab chiqish;

- o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini joriy, oralq va yakuniy nazorat qilish;

- o'qilyotgan fan bo'yicha tezkor (ekspress) nazorat qilish uchun testlar ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishni *shart*.

O'quvchilarning mustaqil bilim olishini tashkiliy va uslubiy ta'minlash

Pedagog:

- rivojlangan davlatlar o'quvchilarining mustaqil bilim olish taxnologiyasi, uning tashkiliy va uslubiy ta'minlanishi;

- «SHaxs axborotli muhit» tizimidagi jarayonlar va ularni boshqarish;

- axborotli jamiyatni rivojlantirish muammolari haqida tasavvurga ega bo'lish;

- mustaqil bilim olishning «o'qishni o'rgatish» tamoyilini;

- o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun global internet kompyuter tarmog'ini;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mustaqil bilim olishning turli tashkiliy shakllarini;

- «Loyihaviy o'qitish»ni;

- o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun faol o'qitish metodologiyasini bilishi va qo'llay olishi;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quvchilarning mustaqil bilim olishini tashkil qilish, rejalashtirish va uslubiy ta'minlash;

- o'quvchilarni mustaqil (turli-tuman manbalardan) bilim olishlariga rahbarlik qilish;

- o'quvchilarni mustaqil bilim olish vositalari yordamida olgan bilimlarini nazorat qilish va baholash;

- mustaqil bilim olishda ilmiy bilish va ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishni *shart*.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim jarayonini samarali bo'lishni ta'minlaydigan texnologiya nima?

2. Ta'lim tizimida diagnostik ta'lim texnologiyasi qanday vazifalarni xal qiladi?

3. Ta'limda texnologik yondashuv variantlarini tushuntirib bering?

4. Ta'limning interfaol metodlarini eslang va tushuntirib bering?

3.3. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarining asosiy tamoyillari va ana shularga asoslangan ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish

Pedagogik texnologiya ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy, uslubiy, amaliy shuningdek, o'quv

jarayonining axborotli hamda texnik vositalar yordamida uyush- tirilishi borasidagi imkoniyatlarga egaligi bois o'qituvchilar, pedagog va psixolog olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o'r- ganilmoqda.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari va ular- ning mohiyatini bilish mazkur jarayon borasida aniq, tasavvurga ega bo'lishimizga imkon yaratadi. Shu bois biz quyida peda- gogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyati xususida so'z yuritmoqchimiz.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham egadir. Ular quyidagilar:

Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili. Ushbu tamoyil ikki jihatni o'zida aks ettiradi:

- ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti birligi;
- pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi. «Tizimlilik» tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga xoslikni anglatadi.

Asoslilik tamoyili. Mazkur tamoyil fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'na- lishlarga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlash-tirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun «yadro», «o'zak» sanaluvchi ma'lumotlarga ega bo'lib, ushbu ma'lumotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq, mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, uni guruhlashitirib va kengaytirib borish uchun tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday mohiyati yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash ishida fanlararo aloqadorlik xusu- siyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining yirik yo'nalishlar tarzida biriktirilishi shaxs xotirasida nisbatan zo'rqiishni kamaytiradi. Shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

O'tgan asrning 80-yillarida ta'lim jarayonining tashkil etilishi talablarga barcha sohalar bo'yicha oz-ozdan ma'lumot berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi ma'lum aniq, fan mohiyatini o'zlash- tirish, o'zlashtirilgan bilimlar negizida yangi ma'lumotlarga ega bo'lish uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltirish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

Mohiyatli yondashuv asoslanitirishning muhim omili sanaladi. U shuningdek, tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarni umumlashitirish tarzida sinergetik yozdashuvni ham ko'zda tutadi.

Madaniyatni anglash tamoyili. Mazkur tamoyil olmon pedagogi Disterverg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu tamoyil talabalarga ijtimoiy jamiyat madaniy taraqqiyotning mavjud darajasidan kelib chiqib, ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi etakchi omil sifatida kafedra (minbar) orida turgan ma'ruzachi pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda ma'ruzachi o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahorati darajasining yuksakligi bilangina yuqori natijalarni qo'lga kiritib bo'lmasiligi barchamizga ayon. Bu borada zamonaviy ta'lim imkoniyatlari: kompyuter, multimedia vositalari, jamiyat ijtimo- moy madaniyati va iqtisodiy taraqqiyoti qo'llamining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda biz «mutaxas- sislarni bilish, bajara olish» g'oyasiga tayanuvchi bozor iqtisodiy munosabatlar jarayonini tashkil etishga tayyorlab olishimiz lozim.

Ta'limni insonparvarlashitirish va insoniylashitirish ta- moyili. Tilga olingan ushbu har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunoncha humanus-insoniylik, humanitas-insoniyat) bir o'zaka ega bo'lsada, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Insonparvarlashitirish OO'Yu da o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, inso-

niylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda insonparvarlashirish - bu inson va ijtimoiy jamiyat bilan bog'lik barcha munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmat, shah'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyat jarayoni bo'lsa, insoniylashtirish - «barcha sharoitlar inson va uning kamoloti uchun» degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un kelishiga e'tibor berish lozim. Endilikda pedagog (o'qituvchi) talabalarining qobiliyati va imkoniyatlarini o'rganib avtoritar tarzda emas, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalari bilan diqqat asosida ta'lim jarayonini insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatga ega: birinchidan, OO'YUning har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim;

ikkinchidan, o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlanishiga zamin hozirlaydi.

Ta'limning uzluksiz tamoyili. Mazkur tamoyil talabalarining kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, ularning hayot faoliyatlari davomida takomillashirib borishini nazarda tutadi. Shaxsga butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, chunki mavjud bilimlar har besh yilda o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituv-

chining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog etakchiligini ta'minlagan o'qitishdan talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishini ifoda etadi.

Faoliyati yondashuv tamoyili. Nazariya va amaliyotning didaktik bog'likligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi ikki hil ma'noda izohlanadi: talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar hamda ular tomonidan o'zlashtirib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Bilimlar faoliyat yuritish jarayonidagina mustaxkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilish lozim. Amaliyotdagi tadbqiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillariga amal qilgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirib borishiga hamda talabalarining kasbiy sifatlarni egallashi, shuningdek, ularda shaxsiy tajribalarining hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

Ma'ruza mashg'ulotlariga texnologik yondashuv, rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, ta'limni alohida o'rgatuvchi epizodlarga bo'lish, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish kabi o'quv jarayonining qitralari bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga mujassamlashtirish imkoni tug'iladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishga doir o'quv maqsadlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Bunda maqsad deb o'qituvchining faoliyati nazarda tutiladi (o'rgatish, tushuntirish, ko'rsatish, sozlab berish va x.k.) vazifalarga esa o'rgatish natijalari kiritiladi. Demak, vazifalar deb talabalarining dars boshlaganda bilimay, so'ngida o'rgangan, agar shu mashg'ulotda o'rgatilmaganda, keyinchalik bu narsani qila olmagan harakatlarni tushunish lozim.

Bizning nazarimizda, ma'ruza mashg'ulotida vazifalarni yanada aniqroq qo'yish o'qituvchi uchun katta mas'uliyat yuklaydi va quyidagi talablar qo'yiladi:

- har bir vazifani «dars yakunida talabalar quyidagilarni bajara olishlari lozim...» deb boshlash lozim;
- har bir vazifa tartiblab chiqiladi;
- har bir vazifa fe'llar bilan yakunlanishi lozim;
- har bir vazifani talabalar bajarishi imkoniyati darajasida qo'yish lozim;
- har bir vazifa faqat bitta natijani ko'zlashi kerak;
- vazifani shunday qo'yish lozimki, uning ishlatilishini mezonlash, qanday qilib maqsadga erishganligini aniqlash mumkin bo'lsin.

Shuni esda tutish lozimki, vazifalar o'quv savollarini, mavzularni, bo'limlarni, predmetni, nimalarni baholash kerakligini (og'zaki, yozma yoki test uslubida) aniqlab beradi. Vazifalar aniqlangan bo'lsa, shundan so'ng o'quv natijalarini aniqlash uchun nazorat topshiriqlari tuzish lozim. Nazorat topshiriqlari og'zaki, yozma, nazorat savollari yoki test bo'lishi mumkin.

Fanlardan ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza mashg'ulotlarini yaratishda ma'ruza matni qismlari (asosiy savollar) bo'yicha o'qituvchi maqsadi, talabalar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar (identiv o'quv maqsadlari) va nazorat topshiriqlari (to'rt hil darajali) o'rtasida uzviy ravishda pedagogik, ruhiy va metodik bog'liqlik bo'lishi lozim.

Nazorat topshiriqlari tizimida turli hil darajali topshiriqlar o'rtasida quyidagi mezon bo'yicha kerak:

1-darajali topshiriqlar barcha nazorat topshiriqlarining 40, 2-darajali topshiriqlar 30, 3-darajali topshiriqlar 20 va 4-darajali topshiriqlar 10%ni tashkil etadi.

Biz quyida «Tarix o'qitish metodikasi» fanining biror mavzusi bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza matnini yaratish bo'yicha tavsiyalar keltiramiz:

MAVZU: Fargona vodiysidagi joy nomlari (2 soatga mo'ljallangan ma'ruza).

Asosiy savollar:

1. Farg'ona viloyatidagi joy nomlari
2. Andijon viloyatidagi joy nomlari
3. Namangan viloyatidagi joy nomlari

Tayanch tushuncha va iboralar: Farg'ona, Sovay, qo'qonboy, Chuvalacha, Bog'dod, Bochiqir, Andijon, Mingtepe, Namangan, Pop, Chust, Beshariq, Ropqon.

Identiv o'quv maqsadlari (talabalar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar):

- 1.1. Farg'ona viloyatidagi joy nomlarini ta'riflaydi.
- 1.2. Andijon viloyatidagi joy nomlarini ta'riflaydi.
- 1.3. Namangan viloyatidagi joy nomlarini ta'riflaydi

So'ngra barcha asosiy savollar bo'yicha ma'ruza matnlari keltirilishi lozim, har bir asosiy savol ma'ruza matnidano'ng talabalar darajasini sinash uchun **Nazorat topshiriqlari** beriladi.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari va uni o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bera olasizmi?
2. Ta'limni insonparvarlashtirish va insoniy lashtirish tamoyili nima? va unga amal qilinishi holatlari qanday?
3. Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish vazifalarini bilasizmi?

IV BOB. TARIX TA'LIMIDA INTERFAOL METODLAR

4.1. Tarix ta'limida yangi pedagogik texnologiyalarning roli

Mustaqillik yillarida davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlarni amalga oshirish istiqboli taqdirimizni belgilaydigan va jahon hamjamiyatida o'z o'rnimiz bo'lishini ta'minlaydigan jarayoniga aylandi. Ya'ni, Vatanimiz kelajagining ustuni bo'lgan yosh avlod ongida milliy g'oya tafakkuri, vatandarparlik va insonparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, ayniqsa tarix fanining o'rni va roli beqiyos bo'lib, uning yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish metodikasi alohida va muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu borada Istiqlolning o'zi bosh tarixiy voqea bo'lib, o'tgan yillar davomida tarixni o'qitish va o'rganish, umuman tarixning dolzarbligi to'g'risida Birinchi Prezident Islom Karimov faoliyati beqiyosdir. Jumladan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» mavzusidagi tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan (1998 yil, 28 iyun) suhbat, «O'zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi (1998 yil, 27 iyun) Farmoni va boshqa Vatan tarixini rivojlantirish xaqidagi fikrlari tarix ta'limi tizimida va xususan tarix o'qitish metodikasi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Barcha erishilgan muvoffaqiyatlarni mustahkamlash, kelajagi buyuk davlatni barpo qilish, avval bor yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash tarixiy vazifa bo'lib qoldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov «Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifi yukaltirish, milliy uyg'onish ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir»¹, -degan edilar.

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini amalga oshirishga amaldagi oshirishga amaldagi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish uni zamonaviy ilm-fanning ilg'or tajribasi va yutuqlariga asoslanib,

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining barcha shakl va turlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy-metodik jihatdan to'la ta'minlagan holda erishish mumkin.

Tarix ta'limi tizimi sohasiga tashki tomondan doimo bo'lib turadigan o'zgarishlar amaldagi ta'lim tizimi oldiga fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish madaniyat va kundalik pedagogik amaliyot talabalarining ko'nikuvi muammolarini uzluksiz ravishda ko'ndalang qo'ymoqda. Shu munosabat bilan tarix ta'limi tizimida tarix fanining tadqiqot jarayoni samaradorligini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini zamonaviy o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, ta'lim mazmunini shakllantirish va uzluksiz ta'lim bo'g'inlariga moslab davlat standartlari tuzib chiqishga kiritilgan va u har fan xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilmogda.

Mamlakatimizdagi ta'lim tuzilishi va mohiyati, kadrlar tayyorlash isloh qilish tarix fani oldiga ham aniq vazifalar qo'ydi. Bunday vazifalar qatoridagi Respublikaning ijtimoiy-ig'itodiy rivojlanishi, fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi muvoffaqiyatlar istiqbollari hisobga olgan holda tarbiyalash va ta'lim berishning maqsad, mohiyat, usul, vosita va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash bilan bog'liq muammolarning barcha majmuasi kiradi.

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturiga muvofiq tarix fani va amaliyoti oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim tizimida rivojlanishning maqsad, vazifa hamda istiqboli yo'nalishlarini amalga oshirish barkamol, o'zini takomillashtirishga, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarini xalq etishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishga qaratilmog'ilozim.

Bulardan tashqari, Respublikamizda tarix fanining asosiy maqsadi ijtimoiy-ig'itodiy sharoitda bozor islohati, milliy-madaniy va an'anaviy xususiyatlar, ma'naviy-ahloqiy va ilmiy merosimiz, umuminsoniy qadriyatlarini hisobga olgan holda ta'lim

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Siharg», 1997, 14-bet.

tizimida eng muhim fundamental va amaliy tadqiqotlarning istiqbolini oldindan belgilash va ishlab chiqishdan iboratdir. Ko'rsatilgan maqsadning amalga oshuvi jamiyatni rivojlantirish va bosh muammoni yechishga qodir bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan bir, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto qidirib topishlari ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchilarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalinishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi. SHuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalari-ni tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari - interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiya masalalari, muammolari o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha pedagogik texnologiya-bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi talabaning natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad

bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quv o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa kila olsalar, o'zlari-ga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Tarix ta'limi tizimida har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'qituvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Respublikamizning o'ziga xos ta'lim tizimida uzviylikni saqlash ta'limning har bir bo'g'inida umumiy va kasb-hunar ta'limi dasturlarini takomillashtirishga istiqbolli yondashuvni talab etadi. Shuningdek, bu talab ilmiy bilimlarning tarix tizimiga moslashgan istiqbolli muvozanati sharoitidagina amalga oshishi mumkin. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim va tarix fani sohasida ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, demografik, madaniy-tarixiy va boshqa tarmoqlar taraqqiyotining istiqbolini belgilashda, uning yaxlit rivojlanishida integratsiyalashni ko'zlovchi uzluksiz ta'limning tizimi yondashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Barcha fanlar tadqiqotida bo'lgani singari tarix ta'limida ham yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning mohiyatini to'liq ochib berib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalari tajriba maydonlarida sinovdan o'tkaziladi. Bunda har bir ta'lim bo'g'inining tajriba-sinov maydonlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari tegisli vazirliklarning buyruqlari bilan birlashtirilb qo'yiladi.

Ustuvor yo'nalishlardagi ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishdan kutiladigan asosiy natijalar-uzluksiz ta'lim tizimining nazariy-metodologik bazasi; uzluksiz ta'limning yangilangan mazmuni; shaxsni kamol toptirishning ijtimoiy-tarbiyaviy tizimi, shu jumladan, o'quvchilarning maxsus toifa kontingenti; umumiy ta'lim va kasb-hunar dasturlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari; o'quv-metodik majmualarning yangi avlodi (yangi darsliklar, o'quv-metodik va me'yoriy hujjatlar, test materiallari va boshqalar); zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar; ta'lim sifatini va uzluksiz ta'lim tizimi faoliyati natijalarini baholashning mezonlari va tartiblarini yaratish; hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mehnat qila oladigan mutaxassis kadrlarning yangi avlodini shakllantirish va hokazolar¹.

Shu tariqa, ilmiy-tadqiqot mavzulari va muammolarning ustuvor yo'nalishlarini hayotga keng joriy etish uchun ilmfanning turli sohalari olimlar hamda mutaxassislari hamkorligida ish yuritiladi, ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga imkon yaratiladi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimida pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasini, ular yordamida uchinchi ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'quvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda xurfiylik, bilimga chanoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiradi.

Tarix ta'limida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining mohiyati va vazifalari nimalarga bog'liq. Avvalo, pedagogik texnologiya - bu o'quvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir.

¹ SH Karbonov, E. Seytvallov, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi: pedagogik ilmiy-tadqiqot muammolari va yo'nalishlari, Toshkent, «Fan» 1999, 11-bet.

Hozirgi kunda o'quvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayapilar. Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiya o'qitish jarayonining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini ko'rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi. Yoxud pedagogik texnologiya o'quvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir.

Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o'quv jarayoni texnologik vositalari yordamida amalga oshirish, deb qarab kelinadi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlanadi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan «o'qitish texnologiyasi» - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligi e'tirof qilinadi.

Ta'lim tizimida qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganilib kelinadi. Natijada o'qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu ilg'or metodikalar texnologiyalar darajasiga kutarila olmay asta-sekinlik bilan o'z mavqegini yo'qotib pedagogika fanidan uzoqlashib ketmoqdalar. Misol uchun, 60-yillarda katta shov-shuvga sabab bo'lgan «Dasturi ta'lim» (Проработанное обучение) yoki 70-yillarda sobiq ittifoq miqyosidagi «Shatalovchilik harakati»ni eslash kifoya¹.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlari etarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlashi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqullashirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash

¹ N.Sayidimmedov, Yangi pedagogik texnologiyalar, Toshkent «Moliya» 2003, y. 8-9-betlar.

munimn emas. Pedagogik texnologiya bu sohada nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatini aks ettiradi.

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaat va ta'lim ustuvorligi»dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratiladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bu modelni amalga oshirish bilan hayotimiz jabhalarida ro'y beradigan «portlash effekti» natijalari ro'y-rost ko'rsatib berildi, ya'ni:

- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;
- insonning hayotidan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyada mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;

-jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi;

-fuqarolik jamiyatini ko'rishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi¹.

«Portlash effekti» sari shijoat bilan qadam tashlash, yo'llarda uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil xalq etish masalalari nafaqat pedagog nazariyachi va amaliyotchilarni jumbushga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida keltirib chiqaradi. Demak, jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazish jarayonini yangi qurol va vositalar bilan ta'minlash davr taqozo-sidir.

Ma'lumki, bugungi kunga kelib tarix ta'limida axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallashtirilgan zamonaviy turi sifatida ta'lim jarayonida qo'llanila boshlandi. Kelajakda iqtisodiy bo'xronlar

ortda qolib o'quv yurtlari dasturi «mashina» bilan etarli darajada ta'minlanadi. Shundaygina axborotli texnologiya asosida o'quvchi-talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'quvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin.

Tarix ta'limini texnologiyalashtirish ob'ektiv jarayon ekanligini, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyoti yo'nalishtan bilan belgilanishini e'tirof etgan holda pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog'liq vazifalarni belgilashga harakat qilamiz.

1) Ko'p bosqichli ta'lim tizimida pedagogik texnologiyaning o'rnini asoslash va zaruriy tavsiyanomalar ishlab chiqish;

2) Zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya kabi soha texnologiyalari bilan pedagogik texnologiyalarni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;

3) Istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash, amaliyotga joriy etish, ommalashtirish va samarasini aniqlash;

4) Tegishli boshqaruv organlari (Ta'lim markazlari) tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etilishi darajasini nazorat qilish va baholash;

5) Respublikamizdagi oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida ilg'or pedagog va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish;

6) Oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqsa, mutaxassis-pedagog (tarixchi-pedagog)lar uchun 40 soat hajmida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maxsus kurs joriy etish;

7) Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilarning ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish bo'rsidagi ishlarni amalga oshirish va hokazolar.

¹ I.A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni millatni qitishga xizmat etsin. Toshkent «O'zbekiston», 1998 y. 30-bet

Bugun mamlakatimiz istiqloli sharofti tufayli barcha fan sohalari rivojlangan davrlarlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashirish imkoniyatlari mavjud, umuminsoniy qadriyatlarini ijodiy o'rganish va hayotimizga tatbiq etish davri keldi. Milliy Dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «Kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlanadi»¹.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va adolatlil fuqarolik jamiyati ko'rish yo'lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiyaviy jarayoni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati ham Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. SHu sabab biz bu pedagogik tushunchaning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonini o'rganishga tarixiy yondashmokatimiz.

Gap zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llash xususida borar ekan, u maktablarning moddiy texnik ta'minotiga ham o'z talabini qo'ydi. Mashg'ulotlarni guruhlariga ajratib va individual o'tish uchun o'quvchilarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash, olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llash, qo'l mehnati, amaliy faoliyat jarayonida amalga oshirishlariga sharoit yaratishni ko'zda tutish muhimdir. Shuningdek, o'qituvchining darsga puxta tayyorlanishi kerakli materiallardan foydalana olishi uchun zamonaviy pedagogik-psixologik, didaktik va falsafiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop jumallar, gazetalar, badiiy adabiyotlardan foydalana olishlari uchun boy fondga ega bo'lgan kutubxona, uning ishini engillashtirish uchun sinf xonalari kompyuter bilan ta'minlanishi ham muhimdir¹.

Pedagogik jihatdan ta'minlanishining yana bir elementi, bu o'qituvchi shaxsi, maktab pedagogik jamoasini shakllantirish,

¹ Barkanov avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sihano» 1997 y. 59-bet.

² Yulidar Amirjonova, Miroldika va texnologiya bir-biridan qanday firoqlanadi? «Maktab» gazetasi, 2003 y. 19 mart.

pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq zamonaviy maktablarda jahon andozalariga mos ravishda o'qitish ishlarini yangilash, maqsadida pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash sifati, kasbiga tayyorgarlik darajalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda maktablarning adaptatsiya jarayonidan o'tishiga imkon berish ham pedagogik jihatdan ta'minlanishning elementlariga kiradi. SHu bilan birga bolaning intellektual rivojlanganligi haqidagi axborotlarga ega bo'lish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi zamonaviy ta'lim, ilg'or pedagogik texnologiya yangi rux va mazmundagi, pedagogik tafakkur, taraqqiyparvar fikr, g'oyalar mahsulidir. Yangi fikr va g'oyalar o'z navbatida mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklarning chuqur tahlil qilinishi natijasida yuzaga keladi. SHuning uchun ham jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy muhit ahvoli tahlil qilingan holda, ta'limni insonparvarlashtirish, yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona xalq etib borish, yangicha ishlash yangi pedagogik tafakkurning asosi bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim natijasini katoatlalaydigan, ta'lim tizimining rivojlanib borishi, jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotiga hissa ko'shadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kirib kelishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda makruraviy mo'ljallarning tubdan yangilanishi, milliy istiqlol g'oyasining omma ongiga uzluksiz singdirib borilishi pedagogik tafakkurni ham o'zgartirmoqda. Makruraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasi, tasavvurlarni qamrab olmasdan iloji yo'q. Yangi pedagogik bilimlar ko'lamli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib bormoqda, tadqiqot yo'nalishlari erkin shaxsni shakllantirish muammolariga qaratilayapti, bu esa ta'lim-tarbiya tazimida yangicha metodo-logik yondashuvlarni yuzaga keltirayotir.

Texnologik yondashuv ta'lim taraqqiyotining xarakterlan-tiruvchi kuchi sifatida bugun amaliyotga tezkor tatbik etilmog'i

zarur. qolaversa, Birinchi Prezident I.A.Karimovning Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasida «Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur» degan ko'rsatmalarini unutmastigimiz, har bir fan o'qituvchisi yangi texnologiyalarni loyihalashga ijodiy yondashishi lozim¹.

Pedagogik texnologiya fan mavzulari bo'yicha oldindan loyihalaniishi va u o'qitish tekisligiga ko'chirilsa. YAkuniy natijani kafolatlanishi bilan farqlanishini eslatib o'tamiz. Shu bilan birgalikda har qanday pedagogik texnologiya asosini ilmiy jihatdan ko'rilgan didaktik jarayon tashkil etadi. Ana shu jarayonni ajratilgan o'quv vaqti doirasida amalga oshirish oliy o'quv yurti o'qituvchisining pedagogik mahoratini darajalab beradi.

Bayon etilgan fikrlar shunday xulosalarga kelishimizga imkon beradi: ta'limning har bir bosqichida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda jamiyat munosabatlari ishlab chiqarish, ya'ni demokratishtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta'limni insonparvarlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-konseptual asosga ega bo'lgandagina qo'llash muvofiqdir.

Qo'llanilayotgan texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi hayotiga engillik olib kelishi, o'quvchining xohlab, qiziqirib borishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini kafolatlashi kerak. Zamonaviy pedagogik shart-sharoitlari, moddiy-texnik baza hisobiga olinishi lozim.

Agar pedagogik texnologiyalarni qo'llashda ilmiy asos va kafolatlangan natija bo'lmas ekan, bunday texnologiyalar oqibati shaxs kamoloti, ta'lim tizimi va jamiyatning yuksalishiga to'g'ri bo'lavermaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi muvaffaqiyatlarini nimalarda deb bilasiz?
2. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashni qoniqarli deb hisoblay olasizmi?
3. Tarix ta'limi tizimida pedagogik texnologiyalarning qanday usullarini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?
4. Tarix ta'limida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining mohiyati va vazifalari nimalariga bog'liq?

4.2. Maxsus fanlarni o'qitishda interfaol metodlar asosida seminar mashg'ulotlari tashkil etish

Metodik xizmatni tashkil etishda seminar o'qishlardan, trening mashg'ulotlaridan umumiy foydalanish o'zining samarasini berib kelmoqda.

Ullarning tashkil etish turlari bosqichlari, e'tibortalab tomonlari juda ko'p. Jumladan, seminar dasturlarini ishlab chiqishdan avval bir necha g'oyalarni belgilash hamda muammolarni aniqlash uning asosiy mazmunini tashkil etadi.

1. Seminar o'tkazish vaqti.
2. Seminar o'tkazish joyi.
3. Seminarini kim o'tkazadi?
4. Seminar o'tkazish uchun qancha vaqt talab qilinadi?

Seminar o'qish jarayonini oldindan loyihalashtirishda bu jarayon mavzusining o'ziga xosligi, joy va sharoiti, qatnashchilarning imkoniyati va ehtiyoji hamda hamkorligidagi faolligini tashkil eta olish hisobga olinishi kerak. SHunda kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Bunda har bir seminar-o'qish texnologiyasiga reja tuzib olish maqsadga muvofiq.

¹ N.Sayidaminov. Texnologik yondashuv usulvorligi. "Ma'rifat" gazetasi 2003 y. 19 fevral

Mavzu	Fanlar integratsiyasi
Maqsad va vazifalar	O'qitish samaradorligini oshirish
Mashg'ulot jarayoni	Metodlar: og'zaki bayon qilish, suhbat, munozara, bahs
Mazmuni	Amaliy, kichik guruhlarda ishlash
SHakli	Jamoadi ishlash
Vositalar	Targatma vositalar. Texnika vositalari
Uslul	Nazorat, o'z-o'zini nazorat, og'zaki nazorat
Baholash	Rag'batlantirish
Kutiladigan natija	Trening uchun: yangilikni etkazish, Ish-tirokchi uchun: yangilikni o'zlashtirish

O'tkazilayotgan seminar-o'qishda ishtirokchilar qanday natijaga erishishlari lozim? Ularni aniq vazifalarga yo'naltirishganligining 3 turi mavjud.

1. Mazmunga qarashli natijalar.
 2. Metodlarning o'tilishiga qarashli natijalar.
 3. Seminar o'qishda o'tkazish tartibiga tegishli natijalar.
- g'atnashchilarni kutilayotgan natijaga erishishlari uchun yordam beradigan usullar: «Aqliy hujum», «Klastar», «Bumerang», «Skorobey texnologiyasi», «FSMU texnologiyasi», «VEER texnologiyasi», «Bits o'yini» texnologiyasi.

Izruminka (diqqatni jalb etish)-bu ishtirokchilarni o'quv mashg'ulotining mazmuni yoki uslubiga qiziqishni oshiradigan, tahlilga tortadigan savollar.

Ma'ruza-o'quv materiallarini og'zaki bayon qilish usuli. Odatda bu usul video, ko'rgazma namoyish qilish bilan olib boriladi. Ma'ruza katta xajmdagi o'quv materiallariga nisbatan uzoq vaqt davomida monolog bayon etish. Bu usulning asosiy vazifasi ta'lim berish, o'rgatish.

Ushbu usulning samaradorligi quyidagicha asoslanadi:

1. Ma'ruza qilishda uning mazmunini chuqur ilmiy-g'oyaviy ketma-ket bo'lishi;
2. Tushunarli, xissiyotga boy va soddada tilda yoritilishi;
3. Yosh va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda qisqa savol-javob o'tkazish;

4. Reja tuzish va har bir reja bayonidan so'ng xulosalash;

5. Muammoli bayon qilish;

6. Yozib olish, zarur bo'lgan joylarni ajratib ko'rsatish;

Tayyorgarlik ko'rish uchun:

1. Mavzu, maqsad va dolzarb muammolarni aniqlash;
2. Adabiyotlar bilan tanishishi;
3. g'atnashchilarning salohiyati, bilim darajasi, qiziqishi, psixologiyasini hisobga olgan holda reja tuzish;
4. Jihozlar, ta'lim vositalarini tashkil etish; Ma'ruza-kirish, bayon, xulosadan iborat bo'lishi kerak. Tinglovchilarni qiziq-tirish uchun kirish qismiga puxta tayyorgarlik ko'rish lozim. Ma'ruza kirish qismi vaqtida tinglovchilar tomonidan olingan dastlabki ma'lumot miyani ma'ruza davomida beriladigan axborotni qabul qilib olishga tayyorlaydi. Ma'ruza barcha fikrlar ishtirokchi tomonidan faqat o'zlashtirilib qolgan may, balki yana ijodiy tarzda qayta ishlashi hamda o'z qarashi bo'lib qolishi kerak. Bayon ikki-uch qismdan iborat bo'ladi. Yakuniy qism esa belgilangan mavzu yuzasidan qisqa xulosalar yoki uning g'oyasini ta'riflab berishga qaratiladi.

Seminar treningda quyidagi ma'ruza turrlaridan foydalanish mumkin:

1. Muammoli ma'ruza
2. Ma'ruza Konferensiya
3. Konspektsiz ma'ruza
4. Muallifning ma'ruzasi
5. Ma'ruza munozara
6. Aniq vaziyatni tahlil qilish ma'ruzalari.

Ma'ruzada savol berib, tinglovchilarning javoblaridan foydalanib, vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat etib, kunda-lik xayotdan misol keltirib ularni savol berishga undab, ilgari o'rganilgan fakt va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslash bilan amalga oshirsa bo'ladi.

Subbat o'tkazish va o'qitishning dialogik savol-javob usuli. Bu usulning etakchi funksiyasi-motivatsiya qilish, aniq maqsadni ko'zda tutadigan va mohirona qo'yilgan savollar yordamida belgilangan mavzu bo'yicha esga olishga va bayon etishga hamda muxokama qilishga undaydi. Ta'lim oluvchilar, trener bilan birgalikda, qadamma-qadam yangi bilimlarni mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish, yakunlash va umumlashtirish yo'li bilan o'zlashtiriladi.

Subbatar belgilangan maqsad asosida quyidagilardan tashkil topadi.

1. Tashkil qilish.
2. Yangi bilimlardan xabardor qilish.
3. Sintezlovchi-ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni tizimlashtirish, eslab qolish va anglash.

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyati
1-bosqich. Tayyorlov	Subbat mavzusi. Maqsadi va vazifalarini belgilaydi. Asosiy va yordamchi savollarni aniqlaydi. Savollar berish, umumlashtirish, xulosa chiqarish tartibini belgilaydi.
2-bosq ich. Kirish	Mavzuning maqsadi va vazifasini e'lon qiladi. Mavzu bo'yicha bilim malaka eslatiladi.
3-bosqich. Subbat	qatnashchilarning mulohazalarini umumlashtirish, hammamini faol harakat qilishga undash. To'g'ri javoblarni ma'qullaydi noto'g'rilarni ma'qullamaydi.
4-bosqich. Xulosa	Subbat natijalarini umumlashtiradi
5-bosqich. Yakun	

Subbatar erkin vaziyatda olib boriladi, savollarni aniq ifoda etish va berish muhimdir. Ular o'zaro mantiqiy bog'lik bo'lishi, o'rganilayotgan narsaning tub ma'nosini ochib berishi, bilimni tarkibli ravishda o'zlashtirishga imkon berishi lozim. Savollar o'z ma'nosi va shakli bilan qatnashchilarning rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak.

Subbatda savol berish muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun savol berishda har bir savolni barcha guruhlariga berish uchun va qo'shaloq savollar bermaslik kerak. Agar savolga xech kim javob bermasa savolni boshqacha tuzish kerak bo'ladi.

Subbatga tayyorgarlik ishlari quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

1. Subbat mavzusini aniqlash, maqsad va vazifalarini aniqlash;
2. Hamkorlikka oid tushunchalar mohiyatini ochib berishga yordam beradigan savollar tuzishni ma'lum tartibda ishlab chiqish;
3. Subbatga kirishishi va yakunlovchi qismlar mazmunini ifodalash;
4. Subbat mazmunini tinglovchilar faoliyati, xulq atvori bilan bog'lanishning to'g'ri yo'lini tanlash;
5. Subbatning mavzu va maqsadi, o'tkazish vaqti hamda tinglovchilarga mavzuga oid tushunchalarini boyitishga yordam beradigan adabiyotlarni tavsiya qilish;

Kiob bilan ishlash texnologiya chizmasi

Ish bosqichi	O'qituvchi faoliyati
1-bosqich. Tayyorlov	Tinglovchilar mustaqil o'rganishlari uchun o'quv materiallari tanlaydi. O'quv faoliyati maqsad vazifasi, natijalari baholash mezonini
2-bosqich. Mavzuga kirish	Tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu bilan tanishtirish maqsadida ilgari o'rganilgan qaysi material bilan yangisini taqqoslash va bog'lash zarurligi haqida batafsil suhbatlashadi.

3-bosqich. Kitob ustida ishlash	Baholash mezonini e'lon qiladi, kuzatadi va individual yordam beradi.
4-bosqich. Y Akunlash	O'rganilgan materialni o'zlashtirish sifatini tekshiradi, tahlil qiladi va natijalarini e'lon qiladi.

Kichik guruhlarda ishlash asosida qatnashchi o'z fikrini ishlab chiqish, uni guruhda muxokama qilish va har hil fikrlar asosida o'rganadi.

Guruhlar bilan ishlashning

quyidagi turlarini ko'rsatishimiz mumkin:

- Guruhlarga hohlashlari bo'yicha yoki hisoblash, uyinlar tarzida ajratish mumkin;
- Guruhlar bilan ishlash uchun topshiriqlar tanlashda muammoni bo'lishga erishish;
- Vaqt aniq belgilanib, topshiriqlar tanlashda bajarishga doir yo'riqnoma berilishi kerak.
- Taqdimot o'tkaziladi. Taqdimot yuzasidan munozara o'tkazilib yakunlanadi.

Loyihalar usuli bilim va malakalarni tahlil qilish, baholashni amaliy qo'llashni nazarda tutuvchi ta'limning majmuaviy usullarni amalga oshiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Maxsus fanlarni o'qitishda seminar, trening mashg'ulotlaridan umumli foydalanish samaradorligini bilasizmi?
2. Seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda ma'ruza qanday turlaridan foydalanish mumkin?
3. Seminar mashg'ulotlarida kitob bilan ishlash texnologiyasini tushuntirib bera olasizmi?


ILOVALAR



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

* O'quv jarayonidagi PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaniing ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir

* PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI

- ▶ Talabaniing dars davomida befarq bo'lmashlikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;
- ▶ Talabaniing o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylicini ta'minlanishi;
- ▶ Talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini ijodiy yondashagan holda kuchaytirilishi;
- ▶ Pedagog va talabalarning hamkorligidagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etish.





*** FANLARNI O'QITISH METODIKASI HAQIDA TALQINLAR**

138

► Pedagogikaning umumiy qoida va qonuniyatlariga asoslanib, fanning xususiyatlaridan kelib chiqib, didaktik vazifalarni amalga oshiradi (P.Leybengrub va boshqalar)

► Maxsus pedagogik fan bo'lib, fan mazmuni orqali ta'lim va shaxsni rivojlantirishning barcha vazifalarini xal etishga qaratilgan. Bunda birlamchi mazmun usul va vositalar xususiyatini belgilaydi (P.Gora va boshqalar)

► Metodika - fan emas, balki metodik ishlanma, tavsiya va maslahatlar majmuasi. Hozirda mazkur qarash yangi atama - texnologiya nomi bilan yuritilmoqda (V.N. Vernadskiy va boshqalar)

139


HOZIRGI PAYTDA O'ZBEKISTONDA O'QITISH JARAYONIGA QUYIDAGI TALABLAR QO'YILMOQDA


Sifat, ya'ni o'qitishning belgilangan darajasini egallash

Samaradorlik, ya'ni o'qitishga sarf qilingan xarajatlar, albatta maksimal samara berishi lozim


Ushbu vazifalarni yechish o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishga, innovatsion o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va tadbiq etishga olib keladi

PEDAGOGIK TIZIMNING MODELİ





DARSNI TAHLIL QILISH BO'YICHA YORDAMCHI MATERIAL



METODLAR

topishga o'rgatish

Informatsion reproduktiv
Reproduktiv muammoli

Muammoli qisman izlanishli
Axborot-reproduktiv, aktiv

Dars vaqtida o'quvchilar faoliyati tashkil etish formalari

Frontal (bir necha o'quvchidan)
yakka holda


Yakka holda juft bo'lib guruhni
frontal shaklida

Noan'anaviy darslar

TEXNOLOGIK KARTA

Mavzu	Ta'lim tizimida metodika va texnologiya uyg'unligi.
Maqsad va vazifalar.	Magistr talabalariga ta'lim tizimida metodika va texnologiya uyg'unligining mohiyati, ahamiyati, asoslari va tartibini tushuntirish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va gurux holatida o'zlashtirib olishlari hamda suxbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilib, ularning bilimlarini baxolash.
O'quv jarayonining mazmuni	Metodika va texnologiyaning bir-biridan farqlash tushunchasi. Pedagogik texnologiyaga turli xil yondashuvlar. Pedagogik texnologiyaga oid ishlarni chuqur o'rganilishi. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslari. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishidan oldin adaptatsiyadan o'tishi, pedagogik shart sharoitlar, moddiy-texnik baza xisobga olinishi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: og'zaki bayon, suhbat-munozara. "FSMU texnologiyasi". Forma: ma'ruza va amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda va jamoada ishlash. Vosita: tarqatma materiallar, matnlar. Usul: tayyor, yozma materiallar, kurgazmalar. Nazorat: og'zaki nazorat, yozma nazorat, kuzatish, o'z-o'zini nazorat. Baholash: rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida.

Kutiladigan natijalar.	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. Talabalar faolligini oshiradi. Talabalarga darsga nisbatan qiziqishni uyg'otadi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilik talabalarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishadi. Talaba: Metodika va texnologiya uyg'unligiga oid yangi bilimlarga ega bo'ladi. Yakka xolda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutq rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida yangi pedagogik texnologiyalarga oid ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi.
Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik va texnologik hamda metodik mahoratni oshirish. Talaba: Yangi pedagogik texnologiyalar asosida matn bilan mustaqil ishlashni o'rganish. O'z fikrini yangi usullar bilan ravon bayon qila olish. SHu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topish, ularni ilmiy va uslubiy tadbiq eta olish. O'z fikrini va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish. Ko'nikma va malakalar hosil qilish.



«Klaster» (tarmoqlar) metodi.

Fikrlarning tarmoqlanishi —bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga ta'luqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«BUMERANG» TEKNOLOGIYASI

O'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqari turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan.

Ta'lim bilan qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- Jamoa bilan ishlash mahorati;
- Muomalalik;
- Xushfe'llik;
- Ko'nikuvchanlik;
- O'zga fikriga hurmat;
- Faollik;
- Rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- Ishga ijodiy yondashish;
- O'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish;
- O'zini holis baholash

«SKARABEY» TEKNOLOGIYASI

«SkarabeY» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi.

- boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida (Aqliy hujum);

- mavzuni o'rganish jarayonida-o'zining mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash;

- ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash;

- mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

- ohirida-olingan bilimlarni mutahkamlash va yakunlash maqsadida.

Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarini amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg'otadi.

«VEER» TEKNOLOGIYASI

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyalarning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari,

fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, ximoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«VEER» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

«VEER» texnologiyasi muvzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;
- yakunlash bosqichida olingan bilimlarni tartibga solish;
- aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, xodisa, tushuncha tekshiriladi;
- Afzallik-biror narsa bilan qiyolangandagi ustunlik, im-

tiyoz;

- Fazilat-jiboy sifat;
- Nugsun-nomukammallik qoidalariga, mezonlarga muvofiqlik;
- Xulosa-muayyan bir fikrga mantiqiy qoidalar bo'yicha dalilidan natijaga kelish;

- Ta'limdan tashqari «Elpig'ich» texnologiyasi xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi;

- Jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- Muammolar, vaziyatlarga turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- Xushmuomalalik;
- Ishga ijodiy yondashish;
- Faollik;
- Muammoga diqqatni jimlay olish mahorati.

FSMU TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv – seminari haqida fikrlarini bilish

maqсадida), yoki o'quv rejasida asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi-talabalarni, o'quv jarayonida egallangan bilimlarini ta'lim etishga, qay darajada egallanganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi, fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

FSMU TEXNOLOGIYASI


(F)-Fikringizni bayon eting

(S)-Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating

(M)-Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol

kelting

(U)-Fikringizni umumlashtirting



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T." O'zbekiston" NMU, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T."O'zbekiston", 2016.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T."O'zbekiston", 2016.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T."O'zbekiston", 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T."O'zbekiston", 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T."O'zbekiston" NMU, 2018, 1-jild.
7. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T."O'zbekiston" NMU, 2019, 2-jild.
8. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' hayoti yotug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T."O'zbekiston" NMU, 2019, 3-jild.
9. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. –T."O'zbekiston", 1992.
10. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. –T."O'zbekiston", 1997.
11. Islom Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining ruydevori. T. Sharq, 1997 y.
12. Азизходжаева Н.Н. Педагогическое технологии и педагогическое мастерство. Т. изд. полигр. Творческий дом. им. Чулпана, 2005 г.

13. Axliddinov R., Saidov X. va boshqalar. Istiqol va ta'lim: Xalq ta'limi mustaqillik yillarida (1991-2001), T. «Sharq», 2001 y.
14. Bavaniskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktablari o'qitish metodlari. T. «O'qituvchi» 1990 y.
15. Бесполько В.П. Стаеамы педагогической технологии. М. «Педагогика», 1989 г. Ваканол avlod orzusi. Т. «Sharq» 1999 y.
16. Bo'ti Ziyomuxammatov. Pedagogik mahorat asoslari. T. «TIB-KITOV», 2009 y.
17. Bo'ti Ziyomuxammatov. Pedagogika. T. «Turon Iqbol», 2006 y.
18. Воловикова М.Л. Понятие «Педагогическая технология» в современном педагогике. Internet materiallari: 2000.zspru @ zspru. Edu.ru
19. Golish. L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. —T. TASSIS, 2001.
20. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. T. «O'qituvchi» 2000 y.
21. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T. «O'qituvchi» 2004 y.
22. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. М. «Знание», 1989 г.
23. Ларнер И.ЙА. Внимание о технологии обучения// «Сов. Педагогика», 1990, №3, С.139,
24. Монахов В.М. Аксиоматический подход к проектирован. пед. технологии.-«Педагогика», 1997, №6. С.26.
25. Назарова Т.С. Педагогические технологии: новый этап эволюции. Педагогика. 1997 г.
26. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar». Qarshi. «Nasaf» nashriyoti. 2000 y.
27. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T. «O'zbekiston» 1987 y.

28. Полтарақ Д.И. ва бошқалар. Методика ипользования средств и обучения в преподавания истории. М. «Прогресс» 1987г.
29. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. «Moliya» 2003 y.
30. Sayidaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.-T.: 1999. 7-8-betlar.
31. Tursunov I.Y. Xalq ta'limining dolzarb muammolari. T. «O'qituvchi» 1990 y.
32. Toshpro'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. T. «Universitet» 2002 y.
33. Toshpro'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. T. «Turon Iqbol» 2010 y.
34. Turg'unboev K. Pedagogik mahorat asoslari. ANDU, 2002 y.
35. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy amaliy Konferensiya materiallari. T. O'ZPITTL. 1999y, 4-5 may.
36. Tolirov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarni tatbiqiy asoslarig'. T. «Fan», 2006 y.
37. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T. «Fan» 2000y
38. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.: 1999.4-bet.
39. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Ilmiy-nazariy seminar-T.: 8-9 aprel, 1993. 3-bet.
40. Xamdamov R., U.Begimqulov, N.Toylaqov. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalarig'uchun. O'ZME davlat ilmiy nashriyoti, -T. 2010.
41. Chorig'ev A. Problemy narodnogo obrazovaniya i podgotovki pedagogicheskix kadrov Uzbekistana. T. «Fan» 1997 y.
42. Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limining rivojlanishi tarixi. T. «O'qituvchi» 1998 y.

43. Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. –T. «Fan va texnologiyalar», 2014.
44. Qodirov B. Ta'lim tizimidagi islohotlar, maqsad va yo'nalishlar. T. «O'zbekiston» 1999 y.
45. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: Pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo'nalishlari. T. «Fan» 1999y.
46. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. T. «Sharq» 2000 y.
47. Юзвичене П.А. Теория и практика модульного обучения. – Каунас, 1989.С.126.

- 11183 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

G'AFFOROV YARASH

**MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA YANGI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH USULLARI**

Muharrir:	–	I.T. Nishanbayeva
Musahhih:	–	M.X. Mustafayeva
Rassom:	–	J.R. Azimov
Kompyuterda sahifalovchi:	–	J.R. Azimov

Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida

TASDIQONOMA

№ 3991

2021 yil 2 mayda boshiga ruxsat etildi
Bichini 60x84, 1/16. Times New Roman garnituras.
Ofset bosma. Shartli bosma to'bog'i 10.
Adadi 100 nusxada. 24-sonli buyurtma

“Shafoat nur fayzi” nashriyoti. Toshkent shahar,
Uchtepa tumani, Maxorat-71

“Shafoat nur fayz” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira-19
Telefon +99899 993-83-36